

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MUQIMIY NOMIDAGI QO`QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

K. TURG'UNBOEV, M. TOLIPOV, I. OXUNOV

PEDAGOGIK MAHORAT

ASOSLARI

Toshkent – 2006

Mualliflar jamoasi. Pedagogik mahorat asoslari.: T., “Fan va texnologiya”, 2006. 115 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtining o‘qituvchi – talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda pedagogik mahorat o‘quv kursining mazmuni, maqsadi, vazifalari, shuningdek uning tarkibiy qismlari va ularning shakllanish jarayoni bayon etilgan.

Mas’ul muxarrir: **O‘. Yo‘ldoshev.**

Taqrizchilar: p.f. n., dos. **R.Abdugodirov**
Qo‘qon pedagogik kollej o‘qituvchisi
M. Begmatova

Ushbu o‘quv qo‘llanma Qo‘qon Davlat pedagogika institui o‘quv-uslubiy Kengashining 2006 yil “28” martdagi yig‘ilishida muhokama etilib, chop etishga tavsiya etilgan.

© Mualliflar jamoasi, 2006 yil

SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilardan yuksak darajadagi kasbiy mahoratni egallashlarini talab etadi. Ularni pedagogik faoliyatga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlash ishida pedagogika ta'lim yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Pedagogik mahorat" kursi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, pedagogik va uslubshunoslik fanlarining hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy – amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik mahorat ta'lim – tarbiyani optimallashtirishning kasbiy ko'nikma va malakalari tizimi bo'lib, u asosan yosh avlodni maqsadga muvofiq yo'naltirish, ularning ma'naviy e'tiqodini, dunyoqarashini, qobiliyatlarini ijtimoiy ehtiyoj nuqtai – nazardan har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

Mazkur kursni o'rganishdan asosiy maqsad bo'lajak pedagoglarga madaniy tafakkur, bolalar va o'quvchilar bilan muomala qila olish ko'nikmasi, o'z xulqi, xatti-xarakatini o'zi boshqara olish layoqatini tarbiyalash bo'yicha faoliyat tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu qo'llanmada bo'lajak yosh pedagoglar, shuningdek ta'lim – tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilarga kasbiy pedagogik bilim va mahoratni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar beriladi.

PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING TA'LIM –TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

1. Pedagogik mahorat va uning zaruriyati.
2. Pedagogik mahoratning maqsad va vazifalari.
3. Mahoratli o'qituvchining faoliyatini o'rganish sxemasi.

Yangi insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi pedagogik mahorat muammosining hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va praktikasi uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Chunki hamma vaqt insonni har tomonlama mukammal tarbiyalash, uning kelajagini belgilash borasida tarbiyachi pedagog mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilim va tajribasisiz erishib bo'lmaydi. Zero, pedagogik mahorat barcha o'quv-tarbiyaviy faoliyatning eng qulay yo'llarini belgilaydi, hamda har bir pedagogdan o'quvchi shaxsning barcha tomonlarini rivojlantirish va takomillashtirishga doir kasbiy bilim, tajribaga ega bo'lishni talab etadi.

Hozirgi pedagogik ta'lim yo'nalishi bo'lajak pedagog mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlarni belgilab berishi kerakki, natijada o'sha mutaxassisni chuqur ilmiy bilim kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishiga olib kelsin.

Huddi shu maqsadda Respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasiga ko'ra "Pedagogik mahorat" kursi kiritildi va o'qitila boshladi. Albatta bunga qadar ushbu muammo bo'yicha shug'ullangan Rossiyalik taniqli pedagoglardan V.A. Slastenin, A.I. Piskunov, A.P. Petrovskiy, V.K. Rozov, L.F. Spirin va boshqalarning ishlarini aytib o'tish o'rinli. Ularning tadqiqot ishlarida pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, psixologik - pedagogik fanlar tizimida va amaliyotda juda katta tajriba, bilimlar manbai, tavsiyalar to'plangan bo'lib, bular o'qituvchilarga, bo'lg'usi pedagoglarga ma'lum tizim holida yetib borishi, ular ijodiy imkoniyatlari rivojiga ta'sir etishi zarur. Lekin mavjud pedagogik-psixologik va metodika bo'yicha darsliklarda pedagogik mahorat masalasiga kam e'tibor berilgan. Bu esa ana shunday bilimlarni - tizimlashtirilgan va ayniqsa, oliy ma'lumotli pedagoglarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan qo'llanmalar yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ana shunday yaxlit tarzda yaratilgan I.A.Zyazyun rahbarligida Moskvada, 1989 yilda nashr etilgan «Основы педагогического мастерства» nomli o'quv qo'llanmasi mavjud xolos.

Hozirgi zamon uzluksiz talim tizimida bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, chuqur ilmiy, kasbiy pedagogik tayyorgarlikka erishishga imkon yaratilishini nazarda tutadi.

Psixologik - pedagogik fanlar tizimida bu masalaga ma'lum darajada e'tibor berilgan bo'lsada, lekin respublikamizda hozirga qadar yaxlit bir tizim tarzida o'rganilib, talabalarning o'rganishlari uchun qo'llanma, darslik ishlab chiqilmagan edi.

«Pedagogik mahorat» kursi esa ta'lim va tarbiyaviy ishlarning asosiy malakalarini hosil qilishga: pedagogik muomala, nutq pedagogikasi, pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish, pedagog - psixik holatini mustaqil tartibga solib turish, pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasi va rejissurasi, fikrlash madaniyati, o'quvchilar bilan muomala madaniyati, xulqini, o'z-o'zini boshqarish madaniyati, turli pedagogik treninglar va ularning elementlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Pedagogik mahorat kursining asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilarni ta'lim tarbiya tizimiga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlash ishiga yaqin yordam berishdan ibrat.

Asosiy vazifalari esa:

- talabalarga pedagogik mahoratning nazariy asoslaridan tegishli bilim, tushunchalar berish;
- ularda pedagogik jarayonning umum pedagogik-didaktik shart – sharoitlari, uni boshqara olishga doir ko'nikma, malakalarni tarkib toptirish;
- ularni ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni amaliyotga tadbiq etishning yo'l, usullari bilan qurollantirish;
- ularda tarbiyalanuvchi, o'quvchilar bilan muloqotga kirisha olish layoqatlarini rivojlantirish asosida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatishning faol yo'l, usul, shakllari bo'yicha amaliy ko'nikma, malakalarini

shakllantirish;

- bo'lajak mutaxassislarda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va ularni o'z faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish.

Mazkur kursni o'rganish asosida talabalar DTS talabiga binoan quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadilar:

- pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari;
- pedagogik qobiliyat, uning yo'nalishlari, ularning shakllanish jarayoni;
- ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik mahorat va uning maqsadi;
- xamkorlik pedagogikasining shakllari va ijtimoiy munosabatlar doirasiga kirisha olishlik;
- pedagogik nazokat, takt, texnika va texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etish.

Umuman olganda, bo'lg'usi mutaxassis pedagogik mahorat qirralarini mukammal bilishi, bu borada yetakchi mohir o'qituvchilar pedagogik ish tajribalarini o'rganishlari zarur. Quyida o'qituvchi pedagogik tajribasini o'rganish sxemasi keltiriladi.

I. Maqsadni o'rganish vazifalarini shakllantirish: dolzarb mavzularini aniqlash.

II. Pedagogik fanlar va ta'lim amaliyoti bilan bog'liq masalalarni hal etishda mohir o'qituvchilar erishgan natijalarni aniqlash.

III. Ilg'or pedagogik tajriba to'g'risida faktik materiallarni to'plash:

1. Bevosita:

- a) o'quv - tarbiya jarayonini kuzatish asosida;
- b) mohir o'qituvchi va ta'lim muassasasi rahbari bilan suhbat asosida;
- d) maktab hujjatlarini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Bevosita:

- a) pedagogik adabiyotlarni o'rganish;
- b) mohir o'qituvchilar ish tajribalari to'g'risidagi qo'lyozma (doklad, uslubiy hujjatlar) materiallarni o'rganish orqali;
- d) o'qituvchiga sirtqi uslubiy topshiriqlar (anketa, xat bilan murojaatlar) berish va javoblarini o'rganish asosida;
- e) tahlil, umumlashtirish, xulosa; o'rganilgan tajribaning o'ziga xos tomonlari; uning pedagogik tavsifi asoslanishi zarur.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik mahorat kursini o'rganishdan maqsad nima?
2. Pedagogik mahorat asoslari kursi bo'yicha qanday omillarni bilasiz?
3. Ushbu kursni o'rganishda qaysi masalalarga asosiy e'tibor qaratilgan?
4. Mazkur kursni o'rganish uchun ajratilgan vaqtni aytib bering?
5. Mohir, o'qituvchilar ish tajribasini o'rganish sxemasi qanday ko'rinishga ega?
6. Pedagogik mahorat deb nimaga aytiladi?
7. Pedagogik mahoratning asosiy elementlari qaysilar?
8. Bevosita qanday yo'llar bilan pedagogik tajriba o'rganiladi?
9. Bavosita pedagogik tajribalarni o'rganishning qanday yo'llari mavjud?

PEDAGOGIK FAOLIYAT VA PEDAGOGIK MAHORAT

1. Pedagogik faoliyatning mazmuni.
2. Pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari.
3. Pedagogik faoliyatning insonparvarlikka yo'naliganligi.
4. O'qituvchilik mahorat.
5. Pedagogik faoliyatda qobiliyat.
6. Pedagogik mahoratning mezonlari va prinsiplari.

Boshqa barcha faoliyatlar kabi pedagogik faoliyat ham o'zining xususiyatlari bilan ajralib turuvchi maqsad, vazifa, obyekt, subyektdan va komponentlardan iborat.

Pedagogik faoliyatning maqsadi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jamiyat tomonidan belgilanadi, va asosan yosh avlod shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat, avlodlarning o'zaro ijtimoiy bog'liq aloqalarini amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash, insonning tabiiy imkoniyatlaridan jamiyat tajribalarini egallashda foydalanishdan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatning maqsadi ijtimoiy jihatdan standart tarzda belgilab berilgan bo'lsada, lekin aniq pedagogik holatda vazifalar nostandart tarzda kelib chiqadi. Demak, o'qituvchidan aniq holatdan kelib chiqib, maqsadni ko'ra bilish orqali ijtimoiy xolatga bog'langan holda ijodiy yondashuvni talab etadi.

O'qituvchi faoliyati boshqalar faoliyatini boshqarish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi faoliyati o'quvchilar faoliyati asosida quriladigan faoliyatdir. Misol uchun olganda, murakkab, ziddiyatli bir holatda pedagog baqirmaslikka, u yoki bu shaxsni ajratib ko'rsatmaslikka harakat qilishi kerak, balki tarbiyalanuvchilar o'zlari mazkur sharoitdan to'g'ri xulosa chiqarishi uchun imkoniyat bermog'i lozim (tikilib turishi, jim turishi, keskin gapirishi). Albatta, bunday yechim tarbiyalanuvchilarning yuqori darajada ongliligidan dalolat bermasada, ular tarbiyachi maqsadi sari borganligini bildiradi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xos tomoni shundaki, u pedagog va o'quvchi maqsadi ham bo'lib qolishi kerak.

Boshqa odamlarning (faoliyatini boshqarish shu jihatdan ham murakkabki, tarbiya maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagini loyihalashtiradi. Albatta, bu maqsad o'qituvchi uchun yaqin va tushunarli, chunki u: «Sen bilishing, uddalashing, bajarishing kerak», deb talab etadi. Lekin bola shu birgina kun tashvishi bilan yashaydi, bugungi kun muammosini hal etib boradi. Kelajak uning uchun juda ham uzoq. Bunday qarama-qarshilikni tarbiya fojiasining asosi deyish mumkin.

Pedagog hozirgi zamon ruhi bilan yashash orqali kelajakni ko'ra bilishi, uni tashkil eta bilish uning uchun o'ta murakkabdir.

Buni tushungan mohir pedagoglar faoliyatining asosini bola ehtiyojiga tayanib yo'lga qo'yadilar, ya'ni o'zining faoliyat dasturini bola dasturiga muvofiq holda tuzadi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan jamiyatning ijtimoiy vazifasini belgilashda shaxsiy tashabbus ko'rsatishni, ya'ni o'qituvchi pedagogik pozitsiyasida jamiyat maqsadi ortib borishi o'z ifodasini topishi kerak. Aniq faoliyatning maqsad va

vazifalarini ijodiy tushunib yetish; bolalar qiziqishlarini hisobga olish va ular o'quv jarayonidagi maqsadlarini amalga oshirishda faoliyat turlari va mazmunini o'zgartirib borishi kerak.

Pedagogik mehnatning obyekti: - Inson bo'lib «shakllanayotgan shaxs ma'naviy turmushining nozik tomonlari - aql, his, iroda, ishonch o'z-o'zini anglash»dir.

Pedagogik faoliyat obyektining uziga xos tomonlari quyidagicha:

Inson tabiatning o'lik materiali emas, balki takrorlanmas individual sifatlari, faqat o'ziga xos munosabati va bo'layotgan voqealarni o'zicha tushunadigan, aktiv faoliyat ko'rsatuvchi mavjudotdir. U o'zining maqsadi, motivlari, xulqi bilan ajralib turadigan pedagogik jarayonning ishtirokchisidir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir vaqtning o'zida shu faoliyatning subyekti ham hisoblanib, turli pedagogik ta'sirlarga turlicha munosabatda bo'ladi, balki o'sha ta'sirlarni o'z ichki dunyosi, qarashlari orqali galvirdan o'tkazadi.

O'qituvchi doimo o'zgarib turuvchi, rivojlanishda bo'lgan shaxs bilan muloqotda bo'ladi. Shuning uchun unga bir xilda, shablon tarzidagi tasirlarni qo'llamaslik kerak. Bu o'ta murakkab jarayon hisoblanib, pedagogdan doimo ijodiy izlanishda bo'lishni talab etadi.

Bolaga pedagoglar bilan bir vaqtda uni o'rab turgan atrof-muhit, stixiyali ta'sir, turli yo'nalishdagi ko'p qirrali vositalar ham doimo ta'sir qilib turadi. Shuning uchun ham pedagogik mehnat barcha ta'sirlarni korrektirovka qilib (o'zgartirib, tuzatib, yangilab) turishni hatto tarbiyalanuvchi hatti-harakatini, faoliyatini maqsadli yo'naltirib turishni, ya'ni tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalashni tashkil etib turishi talab etiladi.

Umuman olganda, hozirgi zamon pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi ta'lim muassasalarida munosabatlarni demokratlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bolani pedagogik jarayonning ishtirokchisi, yordamchisiga aylantirib, uning faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Subyekt: - Tarbiyalanuvchiga ta'sir etuvchilar - pedagog, ota-onalar, jamoa.

Tarbiyalanuvchiga ta'sir qiluvchi asosiy vosita - o'qituvchi shaxsi, uning bilimi va tajribasi. O'quvchilar o'qituvchi shaxsini qabul qilmasa, uning bilimi, xatti-harakatiga tanqidiy qarasa, u holda uning ta'siri yaxshi natija bermaydi.

Agar pedagog shaxsga ahloqiy jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsata olsa, haqiqiy tarbiyachi bo'la oladi, bunga faqat ahloqiy jihatdan o'z-o'zini doimiy takomillashtirib borsagina erishish mumkin.

Tarbiyaning asosiy vositalari-tarbiyalanuvchi ishtirok etadigan turli ko'rinishdagi faoliyatlar: mehnat, muomala, o'yin, o'qish.

Bu masalada ayrim pedagoglar subyekt sifatida jamoa faoliyati ko'rinishidagi ishlab chiqarish mehnati bolalar hayotini tashkil etishini o'qitish jarayoni deb tushunsa, boshqa birovlari jamoa ijodiy ishlar orqali jamoani mustahkamlash zarur deb hisoblashadi.

O'quvchi, tarbiyachi faoliyatidagi eng asosiy masalalardan biridir bu, o'quvchi, tarbiyalanuvchi obyektini, tarbiya maqsadini amalga oshirishda faol ishtirokchiga, ya'ni o'zaro ta'sir tizimini yuzaga keltiruvchi subyektga aylantirish bo'lib qolmog'i lozim. Bu jarayon, asosan, shaxs kelajak hayotini

ijtimoiylashtirish, uning shaxsiy ehtiyojlarini jamiyat ehtiyoji bilan bog'lay olish, uning mohiyatini anglab yetish orqali amalga oshirish mumkin.

Haqiqiy o'qituvchi pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari (maqsad, vosita, obyekt, subyekt)ni tushuna borib boshqarishni bilishi, maqsadlarni aniqlay olishi, subyektni faollashtirishning zarur vositalarini tanlab olishi kerak. Lekin qanday qilib? Qaysi o'ziga xos shaxsiy qobiliyatlar, ichki imkoniyatlar hisobiga? O'z shaxsining nimasiga tayanib aytilganlarni amalga oshiradi?

Biz bu yerda pedagogik mahoratni shaxsiy faoliyat nuqtai na-zaridan tushunishga harakat qilamiz hamda uni kasbiy faoliyatni tashkil etishni yuqori saviyada amalga oshirilishini ta'minlaydigan shaxsiy kompleks xususiyatlar yig'indisi degan tushuncha nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilamiz. Bunday muhim xususiyatlarga faoliyatning insonparvarlik yo'nalishi, o'z kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyati va pedagogik texnika kiradi. Bu tarifda biz uchun eng muhimi quyidagilardir.

Birinchidan: pedagogik mahorat - shaxs tuzilishida bu o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim bo'lib, bu o'rinda sistema bunyod etuvchi omil bo'lib insonparvarlik yo'nalishi hisoblanadi. Chunki uning faoliyati pedagogik jarayonni, ijtimoiy tuzum talabi darajasida yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagog kasbiy mahoratining asosi bo'lib, uning chuqur, tushunib, anglab etadigan pedagogik bilim muhim hisoblanadi. Yo'naltirilgan kasbiy bilim, yaxlit o'z - o'zini tashkil etuvchi yuqori kasbiy faoliyat asosini tashkil etadi.

Uchinchidan: pedagogik qobiliyat, pedagogik mahoratning tezroq takomillashuvini ta'minlaydigan omildir.

To'rtinchidan: bilim va qobiliyatga tayanadigan texnika, barcha vositalarni maqsad bilan mustahkam bog'lashga yordam beradi va bu bilan pedagogik faoliyat strukturasini kengaytiradi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat tizimida yuqoridagi barcha elementlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda, uning tashqi ta'sir yordamida o'sishigina emas, balki o'z-o'zini rivojlantirishga ham asos bo'la oladi. Muvaffaqiyatning muhim sharti qobiliyat yaxlitlik beruvchi vosita: yo'naltiruvchanlik va natijaning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi pedagogik texnika hisoblanadi.

O'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'naltirilganligi tarbiyachining butun faoliyati pedagogik dramalardan iborat (turli fikrlar to'qnashuvi, o'z nuqtai nazari to'g'riligini isbotlash uchun kurash). Mahorat qanchalik yuqori bo'lsa, ziddiyatlar shunchalik aniq ko'rinadi, chunki ijodkor o'qituvchi tomonidan tavsiya etilayotgan yangicha tizim, yeskicha qarovchilar tomonidan qarshilikka uchraydi. Shaxsning yo'naltirilganligini nima tashkil etadi? Oliy maqsad, qiziqishlar, qimmatli fikrlar.

Ana shu masalani aniqlash mavzu mohiyatini tashkil etadi. Har bir o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'naltirilganligi ko'p qirrali hisoblanadi. Uning qimmatli yo'nalishida quyidagilar alohida ko'zga tashlanadi:

1. Uz-o'ziga ishonch, ya'ni, «mening misolimda, bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishsin».

2. Pedagogik ta'sir vositalariga ega bo'lishi.

3. O'quvchilarga, bolalar jamoasiga tayanish.

4. Pedagogik faoliyat maqsadiga - insonparvarlik strategiyasiga, vositalarni ijodiy o'zgartirib faoliyat obyektiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Agar o'qituvchi ishiga va o'quvchilarga mehr-muhabbatni uzviy bog'lay olsa, u haqiqiy yetuk o'qituvchidir. Kelajak oldidagi javobgarlikni his etish, ongli intilish bilan bolalarga bo'lgan ulkan muhabbatni uzviy tarzda bog'lay olgandagina pedagogik mahorat shakllana boradi. Pedagog faoliyatining yuksak vazifasi-insonparvarlik yo'naltirilganligi, uning aniq maqsadlarini belgilashga yordam beradi.

Birinchi kurs talabasi san'at muzeyiga bolalarni olib borib, u yerda gapirishga qiynaladi. Usta o'qituvchi ekskursiya jarayonida juda ko'p narsani ko'radi. O'z-o'zini anglashga, san'atni tushunishga, bu kasbga mehr qo'yishga, yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, shu kasb egalarini hurmat qilishga, tabiatni e'zozlashga, eng muhimi, o'quvchini yanada yuksaklikka olib chiqishga yordam beradi.

O'qituvchining insonparvarlik yo'naltirilganligi, uning hayotiy aktiv pozitsiyasida ham ko'rinadi. Bir misol: uzum tergani IX sinf o'quvchilari ertaga ham boqqa ishga chiqish kerak edi. Lekin bolalar ishga chiqishni, uzum terishni xohlamayapti. Chunki kechagi va oldingi kun terilgan uzumlar olib ketilmasdan oftobda chirib yotgan edi. Lekin o'qituvchi qat'iy qilib, «Sizlarning ishinglar uzum terib berish, qolgani sizning ishingiz emas» deb majbur qildi.

Albatta, o'qituvchi bolalar to'g'ri gapirayotganligini bilib tursada, ularning fikrini quvvatlamadi. Buning o'rniga u befarqligi, e'tiborsizligi tufayli shunday bo'layotganini rosmona gapirib, bu masalani tegishli rahbarlar oldiga qo'yishini aytishi kerak, o'quvchilar bilan birga qanday qilib hosilni saqlab qolish to'g'risida ham o'ylashi kerak edi.

Mohir o'qituvchining yo'nalishida ikki intilish - o'zi dars berayotgan predmet bilan doimiy qiziqishi va o'quvchilar bilan munosabatga doimiy ehtiyoj sezishdan iborat. Pedagogik mahoratning fundamental asosi kasbiy bilimdir. O'qituvchining bilimi, bir tomondan, fanga, o'zi dars berayotgan fanga, ikkinchi tomondan, bu fanni o'zlashtiradigan o'quvchiga qaratilishi lozim.

Kasbiy bilim mazmuni, u dars berayotgan predmet, uning metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlarini tashkil etadi. Kasbiy pedagogik bilimning muhim o'ziga xos tomoni, o'zi o'rganayotgan fanlarni - umumlashtirishni, birlashtirish, ya'ni uning kompleksligini ta'minlashdan iborat. Bunday umumlashtirish birlashtirishning asosini - pedagogik masalalarni yechish, pedagogik holatlarni tahlil etish, shaxsni shakllantirish qonunlarini anglash asosida vositalarni tanlash demakdir. Har bir pedagogik masalani yechish o'qituvchining butun bilimlar sistemasining mohiyatini oshiradi, muhimligini ko'rsatadi. Mohir o'qituvchining kasbiy bilimlaridagi komplekslik, umumlashtirish bilan birga shaxsiy qarashlari nuqtai nazaridan ham muhim o'rin tutadi.

Masalan: 8-sinfda adabiyot darsi. A. Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani haqida juda ko'plab adabiy tanqidchilar: O.Sharofutdinov, U.Normatov, B. Qosimovlarning fikrlari aytilgan. O'quvchilar ham bu roman haqida o'z fikrlarini aytishdi. Lekin o'qituvchi o'zi biron marta ham «Mening

fikrimcha, men o'ylaymanki», qabilida bu roman haqida o'z nuqtai nazarini bildirmasa, o'z ichki munosabatlarini aytmasa, u holda hech qachon o'quvchidan jiddiy, ko'ngildagi o'z fikrlarini talab qila olmaydi. Fanlarning nazariy asoslarini bilish, madaniyat sohasidagi butun bilim saviyasi, o'qituvchi shaxsiy qarashlari, nuqtai nazari bo'lib maydonga chiqishi kerak.

O'qituvchining mahorati. Kitobdagini auditoriyaga, sinfga yetkazuvchi emas, egallagan bilimlarni o'zlashtira olishi o'ziniki qilishida dunyoga o'zining nuqtai nazaridan qarashlari tarzida bayon etilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik kasbiy bilim asosida uning xatti-harakati va tutishlarining asosiy prinsiplari va qoidalari, ya'ni pedagogik ongi shakllanadi. Bu prinsiplar, qoidalarni har bir pedagog o'zining tajribasi asosida yaratadi, lekin ularni tushunib yetish, qonuniyatlarini ko'ra bilish faqat doimiy izlanish, o'rganishni talab etadi. Bu esa ilmiy bilimlarni egallash orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining ta'lim berishidagi qiyinchiligi kasbiy yaroqlikni egallashning murakkabligi shundaki, kasbiy bilim, birdaniga bir necha darajada, sohada shakllanadi:

a) metodologik (falsafa qonunlarini bilish, tarbiya maqsadini belgilash zaruriyatini anglab yetish) sohasida;

b) nazariy (pedagogika, psixologiya qonunlarini, prinsip qoidalarini faoliyat formalarini bilish) bilimlar sohasida;

d) metodik (o'quv - tarbiya jarayonini modellashtirish, konstruksiyalash darajasini o'zlashtirish) bilimlarni o'zlashtirishda;

e) texnologik (aniq sharoitda ta'lim va tarbiyaning amaliy vazifalarini yechish darajasini o'zlashtirish) sohasida shakllanadi.

Bu esa tajribali pedagogdan yetarlicha rivojlangan kasbiy fikrlashning keraklisini ajratib ola oladigan, pedagogik maqsadga erishishda egallangan bilimlar tahlili va umumlashtira oladigan, ularning texnologik tarzda ko'rsata oladigan bo'lishni talab etadi.

Mahoratni egallashdagi tezlik pedagogik bilimlarning o'sishini to'la ta'minlay olmaydi. Albatta, oliy o'quv yurtida a'loga o'qiyotgan talabanning pedagogik amaliyoti doimo ham muvaffaqiyatli o'tavermaydi. Muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlovchi mazkur shaxsning o'ziga xos tomonlari kasbiy o'sishga turtki beruvchi qobiliyat ham bor.

Pedagogik faoliyada qobiliyat. U (qobiliyat) pedagogik faoliyat muvaffaqiyatiga yordam beruvchi psixik jarayonlarning sodir bo'lishida namoyon bo'ladi. Bu masala bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida o'z aksini topgan (F.N. Gonobolin, «O nekotorig psixicheskix kachestvax lichnosti uchitelya», jurnal «Voprosi psixologii», № 1 1975. N.V. Kuzmina. Ocherki psixologii truda uchitelya. L. 1967. V. N. Kruteskiy. Psixologiya. M. 1980 g. Str 345.).

Mohir o'qituvchi o'z ishini, asosan, amalga oshirilishini ta'minlaydigan eng asosiy qobiliyatlarni ajratib olishimiz kerak. Barcha yetakchi qobiliyatlarni birlashtirayotgan yetakchi qobiliyat bu o'smoqda bo'lgan avlod - obyektga nisbatan sezgirlik, xushyorlikdir. (N.V. Kuzmina). Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning olib borgan tadqiqotlariga tayanib, pedagogik faoliyatning quyidagi oltita yetakchi qobiliyatlarini sanab o'tish mumkin:

- kommunikativlik (muomala qila olish qobiliyati) odamlarga yaqinlik,

xushmuomalalik, e'tiborlilik;

- kasbiy ziyraklik, pedagogik intuisiya, perseptiv qobiliyat;
- shaxs dinamizmi - irodaviy ta'sir va mantiqiy ishonchga qobiliyatlilik;
- emosional turg'unlik - o'zini qo'lga ola bilish qobiliyati;
- optimistik prognoz qilish (ishonch bilan oldindan ko'ra bilish);
- ijodkorlikka qobiliyat.

Pedagogik faoliyatga, boshqa ko'rinishdagi qobiliyatlar kabi, kasbiy bilim egallash jarayoni qanchalik tez sodir bo'layotganini kelgusi pedagog pedagogik faoliyatning yo'l, usul va vositalarini qanchalik chuqur va puxta egallab borayotganiga qarab ham bilish mumkin. Bizningcha, o'zining qobiliyati qanchalik ekanligini, kommunikativlikdan, ya'ni muomala qila olish qobiliyatini tekshirib ko'rishdan boshlash mumkin.

Umuman, bunday qobiliyatni hamma ham egallaydi. Lekin u har xil namoyon bo'ladi. O'qituvchi uchun komunikativlikning past darajasi pedagogik faoliyat muhitini buzadi, o'quvchilar bilan munosabatlarda to'siqlarni keltirib chiqaradi. Demak, tahlil qilib ko'rish kerak, ko'pchilik bilan bo'lishni xohlaysizmi (har kuni ular bilan uchrashib turish), suhbatlarga intilishi, yangiliklarni baham ko'rish - fikr almashishi. Pedagogik faoliyatda ijodkorlikka qobiliyat o'qituvchining kasbiy shakllanishi qanchalik tez ketayotganiga qarab ham belgilanadi. Xushmuomalalik o'zida muomala qilishga xohish va ehtiyojnigina qamrab olmasdan balki kommunikativlik jarayonidan qoniqish hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar bilan umuman, odamlar bilan samimiy munosabat va ular bilan ishlashdan qoniqish hosil qilish pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'z ustida ijodiy ishlash uchun quvvat beradi.

Xushmuomalalik, perseptiv qobiliyatni, ularni ichida - kasbiy sezgirlik kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Agar o'quvchining tashqi belgilariga, harakati, yuzidagi sodir bo'ladigan o'zgarishiga, ko'rinishiga qarab, uning ichki holatini tez va to'g'ri aniqlay olmasa, hatti-harakatni yuzaga keltiruvchi motivlarni tushunib yetmasa, o'qituvchi qanday qilib maqsadga muvofiq xulosa chiqara oladi?

Kuzatish qobiliyati murakkab xususiyat. U faqat ko'ra olish, eshita olishdagina emas, balki, asosan, nimaga e'tibor yo'naltirilganligi, shuningdek, olingan axborotlarni ongimizda tez qayta ishlay olishda ham ko'rinadi.

Kuzatuvchanlik qanday rivojlanadi? Biz nima ko'rmoqchi bo'lsak, o'sha narsani ko'ramiz - xuddi shu yerdan samimiy (haqiqiy) qiziqishimiz boshlanadi. Kuzatish tahlil hamdir. Bundan esa qabul qilingan axborotlarni, hodisalarni tushunib yetish uchun doimiy savollar kelib chiqadi.

Kuzatuvchanlik va tajriba intuisiya kabi qobiliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi. Mohir pedagogning bu vaqtga kelib ko'zi pishgan va bir qarashda, belgilar hatto hidiga qarab, bu xom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini aytib berishi mumkin bo'ladi. Mohir bo'lish - oldindan pedagogik jarayonni ko'ra bilish, mumkin bo'ladigan murakkablikni, pedagogik sezgirlik bilan his eta olish demakdir. Pedagog uchun mantiqiy asosga tayanib tahlil qilish, oldindan ko'ra bilishigina emas, bolalar bilan ularning quvonchi va tashvishi, qiziqishi va intilishini birga baham ko'ra bilish, uning o'rniga o'zini qo'ya olish qobiliyati ham bo'lishi kerak. Mohir pedagogda odamni

tushunishga qobiliyat unga aktiv ta'sir qila olish qobiliyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Dinamizm - bu ishontirishga va ta'sir etishga qobiliyat, bu ichki energiya, yig'inchoqlik, tashabbuskorlikka qobiliyatdir. Pedagog -ijodkorning bu qobiliyatlarni egallashning yorqin ko'rinishi bo'lib, faoliyati hisoblanadi.

Uning darslari ijodkorlik bilan sug'orilgan shiddatkor, uning tutgan o'rni tashabbuskorona xarakterga ega, uning so'zlari ongi va qalbining eng chuqur joylarigacha ta'sir etadi.

Dinamizm emosional turg'unlik bilan bevosita bog'liq. O'z-o'zini boshqara olish, to'g'ri yo'lga sola bilish qobiliyati shaxsning emosional turg'unligini yuzaga keltiradi. Pedagogik holatni egallash va shu holatda o'z-o'zini boshqarishga yordam beradi.

Optimistik prognoz qilish (ishonch bilan oldindan ko'ra bilish) yetakchi pedagogik - kasbiy qobiliyat sifatida, shu bilan birga, biz o'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'naltirilganligi - kompleks qobiliyatlarning uzviy bog'liqligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Pedagogik mahoratning elementi pedagogik texnika. Bu o'qituvchi xulqini yo'lga qo'yish shaklidir. Harakat usullarini egallamay turib bilim, yo'naltirilganlik va qobiliyatning yuqori natijaga erishuvini ta'minlab bo'lmaydi. Pedagogik texnika o'ziga ikki guruh ko'nikmani - o'zini boshqara olish ko'nikmasi va pedagogik masalalarni yechish jarayonidan ta'sir qila olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi.

Birinchi grupp ko'nikmalari - o'z tanasini, emosional holatini, nutq texnikasini boshqara olish. Ikkinchi grupp ko'nikmalari bu didaktik, tashkilotchilik, o'zaro ta'sir texnikasini egallashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahoratni ko'rib o'tgan elementlari pedagogik faoliyatda bu hodisalarni sistema tarzida aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik mahoratning yuqori darajasida barcha ishlarga yuqori sifat beriladi; kasbiy nuqtai nazarimiz shakllanadi; bilimlar pedagog faoliyatida o'z-o'zini tahlil etishga qurol bo'ladi va o'z-o'zicha harakat qilish imkoniyatlarini aniqlaydi: yuqori darajada rivojlangan pedagogik qobiliyat shaxs imkoniyatlarini har tomonlama kengroq, to'la ochilishiga yordam beradi.

Pedagogik mahorat me'zonlari:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- mahsuldorlik (o'quvchilar bilim darajasi va tarbiyalan-ganliklari natijalari);
- optimallik (vositalar tanlashda);
- faoliyat mazmuni bo'yicha ijodkorlik.

Mahorat egallashning bir necha daraja bosqichlariga ajratish mumkin. Oliy o'quv yurtlari vazifalari esa talabalarning boshlang'ich asosi, ya'ni mahorat asoslari bilan tanishtirish, yo'naltirilganlikni shakllantirish, bilim berish, qobiliyatni rivojlantirish, texnikani egallashga yordam berishdan iboratdir.

Pedagogik situatsiya (holat) va pedagogik masala. Pedagogik masala bu pedagogik mahoratning asosiy xujayrasi bo'lib, uni hal etish pedagog kasbiy darajasining yuqoriligini ko'rsatib beradi. Pedagogik masala bo'lgan pedagogik holatni o'zgartirish maqsadida uni tushunib yetishdir. Butun

pedagogik faoliyat pedagogik masalalar zanjirlaridan iborat. U o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ataylab yoki tasodifan yuzaga keltiriladi.

Maktab hayoti boshlanmoqda. Kech qolgan o'quvchi sinfga kirib keldi (pedagogik situatsiya). Uy vazifasini tekshirish ketyapti. Ikki o'quvchi tayyorlanmay kelibdi - bu ham situatsiya. Yangi temani tushuntirish jarayonida o'quvchilar bir-biriga xat uzatishyapti-yana situatsiya. Bular barchasi konfliktlar emas, lekin kutilayotgan natija bilan voqea o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Buning uchun situatsiyalarni o'qituvchi tushunib yetib o'ziga vazifalarni belgilashi kerak bo'ladi.

Strategik xarakterda (qanday qilib o'quvchilarda mas'uliyat hissini, uyushqoqlikni tarbiyalash mumkin). Taktik jihatdan (hisobga olish va nazorat vositalarini ishlab chiqish, bilish faoliyatini faollashtirish) va situativ vazifa (kech qolganga, o'qimay kelganga, e'tiborni chalg'itayotganlarga qanday munosabatda bo'lish kerak).

O'qituvchi mahorati situatsiyani pedagogik masalaga aylantirish, ya'ni sodir bo'lgan holatni, munosabatlarni qayta ko'rish maqsadini belgilashi kerak, bu bilan qo'yilgan pedagogik maqsad sari yetaklashi zarur. Pedagogik holat, agar o'z vaqtida hisobga olinmasa, unga e'tibor berilmasa, pedagogik masalaga aylantirilmasligi mumkin.

Shunday qilib, pedagogik holat maqsadga muvofiq yo'naltirilgan sharoitda pedagogik masalaga aylantirishi mumkin. (holat, maqsad, vazifa, masala).

Vazifa bir necha ko'rinishda hal etilishi mumkin. Uning samarali natijasi pedagogning yo'naltirilganligi, bilimi, uning qobiliyati, texnikani egallashiga bog'liq.

Pedagogik masala holatni tahlil qilish va muammoni tushunib yetishdan boshlanadi. Yangi ish boshlayotgan o'qituvchi bu bosqichga e'tibor bermasdan masalani yechishga kirishadi. Shoshilganidan masalaning chuqur ziddiyatli tomonini tushunmay, o'zining hayotida bunday holatlar oldin uchragan deb biladi. Natijada mohiyat oxirigacha anglab etilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, aysbergning tashqi ko'rinish turgan qismigagina e'tibor beriladi, xolos.

Holatni ko'ra bilmaslik, tushunmaslik, o'quvchining bu harakatida nima yashiringanini anglab yetmaslik masalani yechishda xatolikka olib keladi. O'qituvchining mahorati shuningdek, pedagogik masalalarni bir-biriga bog'liqligini, bir-birini taqozo etganligini ko'ra olish qobiliyatining yuqoriligidadir. Shuning uchun masalani yechish uzoqni ko'zlab amalga oshiriladi, ya'ni, bolalarni tartibga chaqirib qo'yishgina emas, balki shu harakatdan qoniqmaslik, noto'g'ri ekanligini tushunib yetish, bu holatlarni qayta takrorlamaslik hissini yuzaga keltirishdan iborat bo'lishi ham kerak.

Masalani hal etishning keyingi bosqichi - mavjud holatlarni tahlil etish, yaxlit pedagogik faoliyat jarayonida pedagogik holatning o'rni tarbiyalanuvchi va tarbiyachining o'zaro munosabatlari tahlil etilishi kerak. Natijada o'quvchi hatti-harakatlarining motivlari faoliyat maqsadi, sharoitning, o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi tushunib yetiladi. O'quvchi ko'nglida yo'q narsani unga majburan tirkab qo'yish pedagogik ta'sirning samarali bo'lishini ta'minlamaydi.

Yakuniy bosqich: Gipotezalarni ilgari surish. O'qituvchi qaysi vaqtda o'zining nazariy bilimlari va tajribalaridan eng muhim usullarini ajratib olishi, aktiv fikrlash, tahlil uchun nima zarurligini bilishi kerak. Mohir o'qituvchi masalani hal etishga jamoani jalb eta borib, holatni tahlil qilib boradi. Bu bosqichda qo'llash mumkin bo'lgan usulni fikran o'lchab, bu ta'sir usuliga mumkin bo'lgan reaksiyani tasavvur qilib ko'rish kerak. Pedagogik masalani yechishning barcha bosqichlari o'tganidan so'ng metodlar sistemasi tanlab olinadi, chunki bitta usul kam natija beradi.

Mohir o'qituvchi bo'lish, avvalo, o'qitish tizimiga bog'liq bo'lish bilan birga, o'qiyotgan odamning harakatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida o'qitish tizimi bo'lg'usi o'qituvchi uchun o'qish jarayonini qurish va anglab yetishga yordam beradi. Avvalo, oliy o'quv yurti talabani o'qitish jarayonida yuqori kasbiy mahoratga erishuvini ta'minlashga asosiy e'tiborini qaratishi kerak. Pedagogik mahoratni rivojlantirish o'qituvchilar tayyorlashni koordinasiya qiluvchi asosidir. Bularning diqqat markazida esa psixologik-pedagogik fanlar turadi.

«Pedagogik mahorat» kursi psixologiya-pedagogika va pedagogika tarixi fanlarini o'rganish talabaga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning mantiqi to'grisidagi tasavvurni berishi zarur.

«Pedagogik mahorat» kursidagi barcha mashg'ulotlar tizimi qimmatli kasbiy yo'nalishlarning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, «Ideallar bloki» bo'lg'usi o'qituvchilik kasbi, uning obro'si to'g'risida tasavvurlar hosil qiladi. (Men - ideal o'qituvchi). Shuningdek o'z-o'zini anglab yetish (men real o'qituvchi) va idealga (pedagogik texnika) yaqinlashish, usullar bilan qurollantirishga qaratilgan.

Bu kursning birinchi bosqichi talabaga muomala va munosabatda o'z pedagogik o'rnini egallab borishda yordam beradi. Ikkinchi bosqichida talaba o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning mahorat asoslarini egallab boradi.

Bu kursni o'rganish quyidagi prinsiplarga amal qilinganda muvaffaqiyatli hal etiladi.

1. Ta'limga yaxlit yondashish prinsipida. Bunda bilimlar oldin tajribada ko'rib o'tilgan tarzda o'zlashtirib boriladi. Mashg'ulot shunday ko'riladiki, mavzuning nazariy qismi munozara jarayonida o'zlashtiriladi, sxema - konspekt tuzish yoki boshqacha tizim ko'rinishida anglab yetish kerak bo'ladi. So'ngra olingan bilimlar pedagogik qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradigan mashqlarda amalga oshiriladi. Keyinchalik tushunib olingan muammo pedagogik mashq (trening) orqali anglab etiladi va bilimlarning ko'nikmaga aylantirishga yordam beradigan pedagogik holatlarda modellashtiriladi.

2. Faol kommunikasiya prinsipi, - guruhda talaba faolligini tezlashtirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Faoliyatni aks ettiradigan lavhalarni namoyish etadigan rollarga bo'lingan o'yinlar, musobaqalar, munozaralar o'tkazishdan iborat.

3. Pedagogik harajatlar bo'linganligi (taqsimlanganligi) prinsipi - psixofizik va pedagogik mashq (trening) jarayonida ayrim usullarni - sistemali o'zlashtirish maqsadi bilan bog'liq. eng muhimi har bir talaba u yoki bu o'quv yilida o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lum bilim hajmini, ko'nikma, tushunchani

bilishi zarur.

Masalan, kurs talabasi, o'zining tashqi qiyofasini, nutqini, elementar pedagogik muomala madaniyatini va tashkilotchilik texnikasini o'zlashtirib olishi kerak.

4. Mashqda bog'langanlik prinsipi pedagogik texnika rivojlanishiga yo'naltirilgan va kichik dars muhitida ko'nikmalarni ijodiy qo'llashga qaratilgan vazifalarni hal etish bilan bog'liq.

5. Turli nuqtai nazardan yondashuv prinsipi pedagogik mahorat bo'yicha mashg'ulotlarda mutaxassisliklarni hisobga olish bilan bog'liq.

6. Bilim va ko'nikmalarning bog'liqligi prinsipi. Oliy o'quv yurti laboratoriya sharoitida olingan bilimlar bilan, tayanch ta'lim muassasalarida o'tkazilgan pedagogik amaliyot davomida olingan ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi: dars va tarbiya jarayonlarida kuzatish, o'quv va tarbiyaviy ishlarni mustaqil ishlab chiqish va uni o'tkazishgacha bo'lgan tizimni yo'lga qo'yish bilan bog'liq.

Pedagogik mahoratning yuzaga keltirish oliy o'quv yurtining butun hayotni pedagoglashtirish orqaligina muvaffaqiyatli hal etiladi. Ayniqsa oliy o'quv yurtida o'tkaziladigan pedagogik bayramlar, o'qituvchilar kuni, pedagogik masalalarni teatrlashtirilgan holda yechish, topshiriqlar musobaqasi, «Mehribon ko'z» konkursidagi chiqishlarni taxlil etish, pedagogik o'qishlar, «Talabalar, javob bering» kechasi, turli mashhur pedagoglar bilan uchrashuvlarni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos tomonlarini izohlang?
2. Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
4. Kasbiy yaroqlilik deganda nimani tushunasiz?
5. Kommunikativlikning asosiy ko'rinishlari qaysilar?
6. Kasbiy ziyraklikni nimalar tashkil etadi?
7. Pedagogik intuisiya deganda nimani tushunasiz?
8. Pedagogik mahoratda shaxs dinamizmining roli nimada?
9. Emosional turg'unlik kasbiy faoliyatda qanday o'rin tutadi?
10. Optimistik prognoz faoliyat maqsadini belgilashda qanday ahamiyatga ega?
11. Ijodkorlikka qobiliyat pedagogik faoliyatda qanday o'rin tutadi?

O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY TASHKIL ETISH VA PEDAGOGIK MAHORAT.

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish va uning prinsiplari
2. Mehnatni ilmiy tashkil etishda tomonlarning majburiyatlari.
3. O'qituvchi vaqt byudjeti va uning taqsimlanishi.
4. O'qituvchi – aktyor mahoratidagi uyg'unlik va uning pedagogik amaliyotdagi ifodasi.

Mehnatni ilmiy tashkil etish - bu faoliyatni ichki va tashqi tomondan tartibga keltirish va yo'naltirish demakdir. U o'z navbatida quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

- vaqtdan unumli foydalanish va uni maqsadli tejash;
- mehnat va dam olishni unumli tashkil etish va foydalanish;
- mehnat jarayonida ishtirokchilarning sog'ligi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish;

Shuningdek mehnatni ilmiy tashkil etish prinsiplarga egaki, ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

I. Faoliyatni tashkil etish prinsipi:

- faoliyat maqsadi va vazifalarini aniqlash, belgilash;
- faoliyatning maqsadga muvofiq shakl va usullarini tanlash;
- rejalashtirish;
- normalash(me'yorlash).

II. Uyushtirish o'lchovlari prinsipi:

- hisob- kitob;
- nazorat;
- istiqbolni ko'zlash;

III. Umum tashkiliy belgilash prinsipi:

- natija;
- umumlashtirish;
- rag'batlantirish;

Mehnatni ilmiy tashkil etishning mazkur qonuniyat va prinsiplari o'z navbatida pedagogik faoliyatga ham ta'luqlidir.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish fan va texnika taraqqiyotining obyektiv ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Chunki, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar ijtimoiy voqelik bilan hamnafas bo'lib, har bir yangilik, o'zgarishlar bilan yaqindan tanishib borishlari, amaliyotga ularni tadbqiq etib boradilar.

Pedagogik mehnat o'z navbatida ikki tomonlama, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari mehnatning bu turi aniq vaqt birligi bilan chegaralanmaydi ham. Demak, o'qituvchi faqatgina dars davomidagina mehnat qilib qolmasdan, balki darsdan tashqari vaqtlarda, dam olish daqiqalarida faoliyatini davom ettiradilar.

Hozirgi zamon maktablarida o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish o'ta muhimdir. Chunki, undan ko'zlanadigan maqsad maktablardagi o'quv – tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishdan iborat. U o'z navbatida quyidagi omillarga egadir:

- o'qituvchining ijodkorligi, taraqqiyot darajasi;
- pedagogik mahoratni takomillashtiri;
- o'z stida ishlash va malakasini oshirish;
- maktabning moddiy – texnik ta'minoti;
- pedagogik mehnatni rag'batlantirilishi;
- mehnatni va dam olishni to'g'ri uyushtirish (rejalashtirish, tartiblash).

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har bir o'qituvchi pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish bo'yicha quyidagilarni bilishlari zarur:

- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishlari nazariyasi va amliyoti muammosining dolzarbligi;
- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning hozirgi kundagi darajasi;
- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning kelajakdagi istiqboli.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda tomonlar, xususan o'qituvchi va maktab ma'muriyatining majburiyatlari ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchining majburiyatlari:

- har bir dars va tarbiyaviy tadbirga puxta tayyorlanish;
- ish tartibiga qat'iy rioya qilish;
- me'yoriy xujjatlarni o'z vaqtida yuritish;
- maktabdagi har bir tadbirlarga o'z vaqtida qatnashish;
- texnika vositalari, ko'rgazmalardan unumli foydalanish;
- ma'muriyatning topshiriqlarini vaqtida bajarilishi.

Ma'muriyatning majburiyatlari:

- o'quv xonalarini zaruriy vositalar bilan ta'minlash;
- mashg'ulotlarni jadval asosida o'tilishligini ta'minlash;
- topshiriqlarning aniqligi;
- dam olishni uyushtirish;
- o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlariga sharoit yaratish;
- pedagogik faoliyatni rag'batlantirish.

Ma'lumki, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish har bir o'qituvchidan o'z o'z shaxsiy mehnatini ta'minlashga ham ega bo'lishni taqozo etadi. Shaxsiy mehnat o'qituvchining asosan maktabdagi faoliyatidan keyingi mehnat turi bo'lib, unga uy yumushlari (dam, olish, madaniy xordiq, bolalar tarbiyasi, tamorqadagi ishlar kabi) kiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, shaxsiy mehnatni to'g'ri tashkil etilmasligi o'z navbatida pedagogik faoliyatda muvafaqqiyatsizlikni yuzaga keltiradi.

Bu o'rinda aytib o'tish kerakki, shaxsiy mehnat ham o'z me'yorida bo'lmog'i kerak. Me'yorga ega bo'lmagan yoki unga amal qilmaslik har qanday kishida charchash, toliqishga olib keladi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilar bu masalaga alohida ahamiyat berishlari zarur. Chunki, pedagogik faoliyat aqliy zo'r berishni talab etadi. Aqliy yoki jismoniy jihatdan toliqqan o'qituvchi dars jarayonida o'zini xorg'in his qiladi. Natijada darsni shunchaki xolatda tashkil qiladi. Buni esa kechirib bo'lmaydigan xol hisoblanadi. Vaxolanki, dars jarayoni har bir o'qituvchidan teran fikrlash, dars mavzusida ilgari surilgan g'oya mazmuni, qo'yilayotgan muammoning yechimini aniqlashda faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ma'lum muddat davomida dam olishi, kelgusi kundagi pedagogik faoliyat uchun kuch ham to'plamog'i zarur.

Kitob bilan ishlash pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, tajribali o'qituvchi har bir darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, faqatgina darslikning o'zi bilangina kifoyalanmasdan, balki mashg'ulot materialining mazmunini boyitish, o'quvchilarga keng tushuncha, ma'lumotlar berish maqsadida ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblarni ham mutoala qiladilar. O'z – o'zidan ravshanki, bunday o'qituvchilarning har bir dars mazmunli, qiziqarli bo'lib, undan o'quvchilarda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Qo'shimcha manbalar ustida ishlash esa bir muncha vaqtni talab etadi. Kitob bilan ishlash texnikasiga ega bo'lish ortiqcha vaqt sarflanishining oldini olishga qo'l keladi. Kitob bilan ishlash texnikasi – tegishli kitobni tanlash, ularning bibliografiyasini tuzishni taqazo etadi. Bibliografiyani quyidagicha shaklda tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

№	Kitobning nomi	Muallifning ismi familiyasi	Nashriyotning nomi, nashr yili	Qisqacha mazmuni

Pedagogik faoliyat jaryonida o'qituvchi har bir dars mashg'uloti uchun ishlanma, ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallar, biluv topshiriqlari, shuningdek yozma ishlarni ham tekshirish va baholash, maktabdagi darsdan tashqari turli tadbirlarda ishtirok etish, bo'sh o'zlashtiruvchi, tarbiyaga muxtoj bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash kabilar bilan ham shug'ullanadi. Pedagogik mehnatning ilmiy tashkil etilishi esa yuqoridagi ishlarning tartiblanishiga, belgilangan vaqtda amalga oshirilishiga va nihoyat o'qituvchining vaqt byudjetini oqilona taqsimlashga imkoniyat tug'diradi.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat.
3. Vaqt byudjeti nima?
4. O'qituvchi vaqt byudjeti taqsimoti qanday amalga oshiriladi?

O'QITUVCHI – AKTYOR MAHORATIDAGI UYG'UNLIK VA UNING PEDAGOGIK AMALIYOTDAGI IFODASI

1. O'qituvchi va aktyor faoliyatidagi o'zaro aloqadorlik.
2. K.S. Stanislavskiy ta'limoti va uning pedagogik faoliyatga tadbiqu.

Maktabdagi o'quv –tarbiya jarayoni ko'p qirrali, murakkab va dinamik tarzda sodir bo'luvchi hodisa hisoblanadi. Bu esa har bir o'qituvchidan san'atkor bo'lishni talab etadi. Bundan ko'rinadiki, pedagogik faoliyat san'at (teatr) bilan o'zaro aloqadaorlikka ega. Pedagogika nazariyasida o'qituvchi o'z navbatida aktyor hamdir deb ta'riflanishi bejis emas. Zero, pedagog va aktyor faoliyati ijodkorlikni talab etadi.

Ma'lumki, teatr pedagogika nazariyasida K.S.Stanislavskiyning g'oyalar tizimi "Aktyorlik ijodkorligi" to'g'risidagi fan deb tan olingan. Uning ta'limotiga ko'ra har bir aktyorda nazariy bilim bo'lishi bilan birga talant va iqtidorga ham ega bo'lishi kerak.

Talant nima? – degan savolga javob berib K.S.Stanislavskiy "Talant – insonning ko'plab ijodiy qobiliyatlarining baxtli yig'indisi bo'lib, u irodaviy sifatlar bilan bog'liqdir" deydi. Bundan tashqari u aktyorning ijodiy qobiliyatiga xos bo'lgan: kuzatuvchanlik, ta'sirchanlik, kuchli xotira, temperament, fantaziya, tasavvur, ichki va tashqi ta'sir, singdirish, amalga oshirish, did. Aql, ichki va tashqi ritm va tizimni his etish, ohanglilik, samimiylilik, o'z – o'zini boshqarish, tirishqoqlik, ma'lumot-fondlarga boylik, ma'noli qarash, yuz, mimika, tana xarakatlari kabi xususiyatlarni alohida ta'kidlaydi. Albatta bu xususiyatlar o'qituvchilarga ham hosdir. Boshqacha qilib aytiganda yuqorida zikr etilgan xususiyatlar pedagoglarning butun borlig'ida (ko'zlarida, yuz

tuzulishida, xarakatlarida, teran fikrlashida, ma'naviy olamida) ko'zga tashlanib turadi.

Ilg'or o'qituvchilarning o'quv-tarbiya jarayonlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, pedagogik aloqani belgilab beruvchi muhim shartlardan biri bu undagi hissiyot hayajonning kuchliligi hisoblanadi. Dars jarayonida pedagog hayajonining turli-tumanligi uning yorqin ifodalanishi, o'quvchi faoliyati va tajribasida tasdiqlanishi shuncha kuchli bo'ladi. Dars his-hayajonsiz, ma'nosiz bir mashg'ulotdir. Shuning uchun o'qituvchi his-tuyg'usini rivojlantirish pedagogik mahoratning muhim elementlaridan biri deb hisoblash zarur.

K.S.Stanislavskiy o'zining tizimida asos qilib talant, temperamentni emas, (chunki bularga o'rgatib bo'lmaydi) balki sahnada ishonchli tarzda o'z-o'zini his etishni oladi. Ko'pincha, pedagog va aktyorga noto'g'ri hissiyot va hayajon halaqit beradi. Chunki noto'g'ri his-hayajon, o'ransiz tarzda muskul harakati, fikrlash qobiliyatini yomonlashtiradi va estetik his-hayajon tuyg'uning paydo bo'lishiga xalaqit beradi. Bunga qarama-qarshi tarzda pedagog o'zini erkin, bo'sh, holi tutishi kerak. Bu maxsus mashq orqali amalga oshiriladi.

Talantli pedagoglar faoliyati kuzatilganda, ular o'quvchilarni o'ziga rom eta olishi, auditoriyaga qarab qanday muomala chorasini qo'llashni bilib olishi qoyil qoldiradi. Bunday o'qituvchilarda aql bilan hissiyotning tengligi mavjud. Ularning ichki hayoti yorqin, nozik, tezkor, undaylar ortiqcha xarakatsiz so'z bilan faoliyatning, ma'lumot va hissiyotni auditoriyaning e'tibor chegarasini yaxshi seza oladi. Baxtli pedagog uchun o'quvchilar bilan har bir uchrashuv bir kashfiyot, xar bir yangi dars oldingilarga o'xshamaydi. Uning ishi doimiy ijodkorlik bilan yo'g'rilgan, boshqa. hayotni tasavvur qilmaydi.

Pedagog va aktyor auditoriyani bilishi va his etishi zarur uning ilg'or va qoloq qismini tushunishi, kimga tayanish va kimga yordam berishni yaxshi bilishi zarur. Shuningdek, mazkur shaxsning yoshi, kasbiy yo'nalishiga ko'ra reaksiyasini bilmog'i kerak. Nima uchun sinf pedagogga bo'ysunadi? Pedagogning o'ta xushyorligi qanday yuzaga keladi? Bunga o'zini tayyorlash mumkinmi?

K.S.Stanislavskiyda yaxlit muomala jarayonining bosqichlari to'g'risida juda qiziq fikrlar bor. Bularning hammasini butunicha pedagogik faoliyatga qo'llasa bo'ladi.

Birinchi bosqich. Aktyorning sahnaga chiqishi «Barcha qatnashchilarni bir-bir qarab chiqishi, so'ngra bitta obyektни mo'ljalga olish.

Ikkinchi bosqich. Obyektga yaqinlanish, uning e'tiborini o'ziga tortish.

Uchinchi bosqich. Ko'z bilan obyekt qalbini egallab borish.

To'rtinchi bosqich. O'z qalbini obyektga uzata bilish.

Beshinchi bosqich. Obyektning qarshi javobi va qalban o'zaro tushuna olish, o'zaro qabul qilib olish.

Pedagog o'zining tajribasi, o'zining fikrini yetkaza oladigan vositalar arsenaliga ega bo'lishi kerak. Bu vositalar doimo individual qaytarilmasdir. Pedagogning ixtiyorida so'zi, ovozi, ohangi, intonasiyasidan tashqari, yana imo-ishoralari, harakatlari, ritmikasi ham mavjud. Bu o'rinda uning ko'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Huddi shu narsa pedagogning boshqalar e'tiborini o'ziga tortishiga yordam beradi. Auditoriya diqqatini o'ziga tortadigan bir nechta jumladan, passiv va faol metodlar bor.

Passiv metod - bu, asosan, pedagog auditoriya e'tiborini o'zining shaxsiga bo'ysundiradi. Izchil, mantiqiy asoslangan fikrlari va mo'tadil hissiyoti bilan auditoriya diqqatini pedagogik faoliyatning yagona tuguniga birlashtiradi.

Agressiv metod. Passiv metodga tamoman qarama-qarshidir. Bu yo'l bilan kuchli, aqlli, tezkor pedagoglar ish ko'radi. U his-tuyg'usi, irodaviy sifatleri, intellekt kuchi orqali ajralib turadi va auditoriya e'tiborini shiddatli tarzda juda tez o'ziga qarata oladi. Bunday pedagoglar oldindan mashq qilingan harakatlari orqali tinglovchilarni, uzoq davom etmasada, lekin pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun qancha muddat talab etsa, shuncha vaqt turli usullar yordamida uni qo'llab-quvvatlab turishi kerak. Buning uchun ko'pincha temporitm va o'ziga hos pedagogik monotonlik qo'llaniladi va buning yordamida pedagog tinglovchi ongiga kirib boradi, tinglovchini sehlrab, so'ngra uni kuchaytirib, oxir-oqibat kuchli hayajonli holatni yuzaga keltiradi. Huddi shu kuchli hayajonli holat shaxsda ma'lum ko'rsatma va ishonch hosil bo'lishiga olib keladi.

Bunday yuzaga keltirish uchun pedagogning juda, ko'p mashq qilishi, uning psixo - texnikasi va qo'llayotgan usuliga qat'iy ishonchi ahamiyatlidir.

Albatta, buning uchun pedagog juda ko'plab o'zining vosita va usullarini ishlab chiqadi va ulardan foydalana borib eng yuqori samaraga erishadi.

Pedagogik jarayon pedagogik ta'sirning o'ziga xos sehrini talab etadi. Bunday sehgargalikni yaratish uchun ma'lum ahloqiy platformada shaxslararo munosabat texnikasini yuqori darajada egallagan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, kimda-kim odamlar sirlarini bilishga kirishmoqchi bo'lsa, u, avvalo o'z-o'zining ichki sirlarini juda yaxshi bilmog'i zarur. Auditoriya o'qituvchi uchun sirli bo'lib qolar ekan, u holda u o'quvchilar ustidan hukmronlik qila olmaydi. Shuningdek, pedagog pedagogik maqsadlarga o'zini bo'ysundirish mahoratini egallamas ekan, auditoriyaga ta'sir etish uchun o'zining imkoniyatlarini o'rganmas ekan, u holda, auditoriyaning axborotini qabul qila olmaydi.

Huddi shu o'rinda A.S.Makarenko ilgari surgan bir qator talablar jumladan: «Jamoaning harakat qilish qonunlari», «Kelajak chiziqlar tizimi», «Parallel pedagogik ta'sir etish» g'oyalari ahamiyatlidir.

Pedagog shaxsga ta'sir etishda doimo jamoa kuchidan unumli foydalanmog'i, bu o'rinda jamoaning doimo harakatda, rivojlanishida, takomillashuvda ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Bundan tashqari A.S.Makarenko (система перспективная) «Kelajak chiziqlar tizimi» prinsipini ilgari surib shunday deydi: «Insonning haqiqiy stimuli bu ertagalik quvonch... Avvalo, o'zi uchun quvonchli holatni tashkil etishi va uni hayotga joriy etishi zarur, ikkinchidan, qat'iylik bilan oddiy ko'rinishdagi quvonchni murakkabroq insoniy qiymatga ega bo'lgan quvonchga aylantirish va uni amalga oshirishga harakat qilish kerak. Bu o'rinda juda qiziqarli holat yuz beradi:

Qandaydir arzimas shirin kulchaga qoniqish hosil qilish orqali eng chuqur insoniy burchini his etishgacha bo'lgan his -tuyg'u yuzaga keladi.

Kelajak chiziqlar tizimi prinsipining mohiyati shundaki, butun jamoa va uning har bir a'zosi ijobiy estetik his-tuyg'ularini uyg'ota olishni mehnatda erishgan natija bilan kasbiy mahorat, ma'naviy o'sish, erishilgan natija bilan

qanoatlanmaslik kabi his tuyg'uni tarbiyalashdan iborat. Kelajak, ertangi quvonch har bir shaxsni har qanday to'siq va qiyinchilikni yengishga eng og'ir vazifalarni ham hal etishga undaydi. Bu o'rinda o'qituvchi san'ati shundaki, u topshiriqlarni qiyinlashtira borib, amalda nafaqat yaqindagini ko'ra bilish, balki jamoani hamda ayrim shaxsning kelajagini ko'ra olishga o'rgatib borishdir.

Biron bir jamoaning boshlig'i bo'lib, ular faoliyatini maqsadga muvofiq yo'naltirish uchun pedagog o'zi ham ma'lum sifatlariga ega bo'lishi kerak. Hammadan avval o'z xulqini o'zi boshqara olmog'i lozim. Albatta, bu ishga pedagogni maxsus tayyorlamoq kerak.

Masalan, Chexoslovakiyada o'qituvchilar tayyorlash tizimida asosiy e'tiborni xulq, harakatlarni kordinasiya qilishni shakllantirish, o'z tanasini boshqara olishga o'rgatishdan boshlanadi (ya'ni, kerakli natijalarga erisha olish, o'z tanasini his etishayotganini bilish). Bu tizimdagi yakuniy vazifa esa xulqiy harakatlarni amalga oshirilishi, pedagogik ta'sirining ma'lum mazmunini ifodalashga bo'ysundirilishi, uni avtomatlashtirishdir. Bu yo'ldagi dastlabki qadam mashq, lekin boshqalarning harakatlarini ko'r-ko'rona qaytarish emas, uning hayajonini, maqsadini, motivlarini tushungan holda kirib borishdir.

Keyingi qadam - aloqa o'rnatish uchun mashqlar: bunga mimikalar, imo-ishora, jest, nutq va tovushlar kompleksidagi mashqlar.

So'nggisi: ritm uchun maxsus mashqlar, borliqni his etish, xulqiy harakatlarni qayta ishlash bilan bog'liq. Bularning hammasi pedagog uchun auditoriyani erkin boshqara olish, o'z tajribasini bera olishda zarur bo'ladi.

K.S.Stanislavskiy aktyorlarni 4 guruhga ajratib, bu o'rinda ularning tasavvuri va diqqatining rivojlanishiga ham katta ahamiyat beradi.

1-guruh. Tashabbus bilan ishlaydi, tasavvuri mustaqil, doimo, ortiqcha kuch talab etmaydi. Bunday aktyor bilan ishlash oson.

2-guruh. Tashabbusiz, lekin nimani aytsang, osongina o'zlashtirib oladi va mustaqil rivojlantiradi. Bunday odamlar bilan ishlash oson.

3-guruh. Aytganingizni ilib oladi, lekin rivojlantirmaydi, bunga qobiliyati yo'q. Bunday aktyorlar bilan doimiy muammo kelib chiqadi. Xulosa bundaylarning qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tinmay ishlash kerak.

4-guruh. O'zi ijod qilmaydi, aytganlarni ilib olmaidi. Bundaylardan aktyor chiqmaydi.

Endi o'qituvchilarni ham mana shu guruhlar bo'yicha tiplarga ajratib ko'raylik:

1-guruh. Juda qiziq qon bo'lib bunday o'qituvchilar tashabbuskor, tasavvurining rivojlanishi tezkor, darsni o'ziga hos tarzda tashkil etadi, bolalarni qiziqтира oladi, bu bilan ularning ham tasavvurini rivojlantiradi. Uning berayotgan materiali, darslik materialidan keskin farq qiladi. U hayajonli, harakatchan. Bolalar o'qituvchi gapirayotganini ko'ra oladilar. Bunday o'qituvchida o'qish oson. Bunday o'qituvchilarga ko'rsatma kerak emas, o'zlari yangi metodlarni topa oladilar.

2-guruh o'qituvchilari tashabbusiz ularga turtki beruvchi biron narsa kerak. Bunday turtki dars konspekti, dars materiali, yangi ko'rsatmalar, uslubiy ishlanmalar xizmat qiladi. Turtki berilgandan so'ng, bunday o'qituvchilar buyog'iga ishni o'zlari olib ketaveradilar. Bunday o'qituvchilarda o'qish oson. O'z ustida doimo ishlashlari orqali birinchi xildagi o'qituvchilar

qatoriga o'tishlari mumkin.

3-guruh o'qituvchilari. Bundaylar tekis ishlamaydi, darslar ba'zan yaxshi, ba'zan yomon. Bolalarning qiziqishlari ham tekis emas. O'qituvchi materialni aniq tiniq ko'ra olsa, rivojlantira olsa, bolalar ham uni yorqin ko'ra oladilar. Bunday o'qituvchilar darslik materialini yaxshi va aniq yetkaza oladi, boshqachasiga kuchi yetmaydi. Ular berilgan ko'rsatmalar, ishlangan metodikalarning yaxshi ijrochilari xolos, ammo o'zlaricha yangilik, parvozga erisha olmaydi.

4-guruh o'qituvchilari uchun yaxshi darslik, uslubiy ishlanma va ko'rsatmalar hech qanday ahamiyat kasb yetmaydi, ularda sezilarli ko'nikma va tasavvur yo'q. Bunday o'qituvchilar darsidan o'quvchilarga hech qanday foyda yo'q. Hamma faoliyatida ko'r-ko'ronalik, bilimsizlik, kasbiy savodsizlik ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, teatr va pedagogik faoliyat mazmun va vosita belgilari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, bir qator umumiy jarayon xususiyatlariga egadir. Bu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- teatr va pedagogik ijodkorlik jarayoni mazkur jarayonning faol qatnashchilari bo'lgan kishilar guruhining bevosita ishtirokida ommaviy so'zga chiqish vaziyatida amalga oshiriladi;
- teatr va pedagogik faoliyat o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra o'zi ta'sir ko'rsatadigan obyektni ayni vaqtda ijod subyektiga aktyor ijodkorga aylantiradi, uning faol ishtirokchisiz ijodkorlik ishi bo'lmaydi;
- ko'pgina boshqa faoliyat turlaridan farqli, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik yotadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z psixik xolatini boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni aynan haqiqatdan qo'zg'atishni talab qiladi;
- teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jo'shqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi, boshqacha qilib aytganda, hamisha jarayondan iborat bo'ladi;
- teatr va pedagogik ijodkorlik jamoa tusda bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik va aktyorlik faoliyatidagi o'xshashliklar qaysi sifatlarda ko'rinadi?
2. Pedagogik jarayondagi rejissura va aktyorlik elementlari haqida sizning fikringiz?
3. Pedagoglarni qanday tiplarga ajratish mumkin?

PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISHDAGI MAHORAT

1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish va uning ta'lim – tarbiyaviy mohiyati.
2. Pedagogik ta'sir ko'rsatishda ishtirok.
3. Ta'sir ko'rsatishning yo'nalishlari.
4. Ta'sir ko'rsatish shakllari va ularning samaradorligini ta'minlash shartlari.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning xilma-xil manbalari ichida alohida ahamiyat pedagogga beriladi. Tarbiyalanuvchining ongi, hissiyoti, faoliyati va xulqiga ta'sir etishda pedagoglar qanday imkoniyat vositalariga ega? Hamma ham, ayniqsa, yangi ish boshlovchi pedagoglar bu usullarni biladimi yoki tushunadimi, o'quvchilar bilan muomala qilish va ta'sir etish ko'nikmalarini egallaganmi?

Ijtimoiy-psixologik nazariyani va muomala qilishning pedagogik amaliyotini o'rganish asosida kommunikativ ta'sirning ikki asosiy usullarini ajratish mumkin. Bular so'z yordamida ishonitirish va ta'sir etish; his-tuyg'u, tarbiya xatti-harakatini shakllantirish, mustahkamlash va o'zgartirishga qaratilgan usullar yig'indisidir. Lekin ishonitirish va ta'sir etishning psixologik mexanizmi bir xilda emas. O'quvchilarga ta'sir etishning har qanday usullari o'zining spesifikasiga ega.

Pedagogik adabiyotlarda «Pedagogik ta'sir» tushunchasi qabul qilingan. Bu o'rinda mazkur tushuncha tarbiyalanuvchining tarbiyachi bilan munosabati jarayonida uning faoliyati passivlashtirilib, qat'iy programmashtirilib qo'yilmaydimi? – degan savolni tug'diradi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar maktablar oldiga yangidan yangi vazifalarni, xususan o'quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ijodkor, tashabuskor, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan qilib tarbiyalashni qo'yimoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim – tarbiya jarayonini xamkorlik pedagogikasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarda ilgari surilgan qonuniyat, qoida va usullar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Ta'sir ko'rsatishning bu xildagi ko'rinishini taniqli pedagog A.S. Makarenko "Parallel ta'sir ko'rsatish", "Kelajak chizig'lar tizimi" ta'limotlarida ta'riflagan edi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, parallel ta'sir ko'rsatishmi yoxud pedagogik ta'sir ko'rsatishmi baribir jarayonda o'qituvchi asos hisoblanadi. Uning uchun o'quvchi ta'sir ko'rsatishning obyekti hisoblanadi. Biroq o'qituvchi ta'sir ko'rsatish jarayonida o'z navbatida o'quvchi (obyekt)dagi ijobiy fazilatlarga hamda o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy kuchiga tayanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik ta'sir har bir o'quvchida o'z – o'ziga ta'sir ko'rsatish ham yuzaga keladiki, bu xol o'zaro ta'sir ko'rsatishni yuzaga keltiradi.

O'sayotgan yosh avlod ijtimoiy muhit, tabiat bilan doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi. O'zaro ta'sirning natijasi uning ishonchliligi bilan o'lchanadi. Ya'ni uning egallagan bilim, qarashlari va munosabatlari, xulq normalari sistemasining mukammalligi bilan belgilanadi. Endi biz ishonitirishni pedagogik o'zaro ta'sir natijasi sifatida qarab chiqaylik. Ishonitirish haqiqiy va yolg'on bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonitirish haqiqatga to'g'ri keladi va shaxsni ijtimoiy foydali odamga aylantiradi. Inson o'zining haqiqatda to'g'riligini himoya qilib, hatto o'limga ham bora oladi. Yolg'on ishonch salbiy qarashlar, salbiy hayotiy tajribalar tufayli yuzaga keladi.

Yolg'on ishonch bilan qaraydigan o'quvchilarni ko'plab uchratish mumkin. Lekin, biz ularni ajrata olamizmi? Yolg'on ishonch bilan qaraydigan o'quvchilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- «a'lo»ga o'quvchi bolalar faqat maqtanish uchun o'qiydilar va ular darsni yodlab oluvchilardir;

- haqiqiy o'quvchi o'qituvchidan tanbeh eshitib turishi kerak, aks holda bunday o'quvchini hurmat qilishmaydi;

- o'qituvchini aldash - aqlilik, topqirlik belgisi;

- maktabda axloq qoidalarini buzish, demak, o'qituvchining doimiy nazorati ostida bo'lish demakdir. Bundaylar kuchli xarakterli bolalar hisoblanadi;

- butun kuch-quvvatini sarflab ishlash keraksiz urinishdir. Bunday ishonch mustahkamlana borib, o'quvchini keyinchalik odamovi, egoist, shaxsiyatparast qilib qo'yadi, oqibat aqliy va jismoniy mehnatda sustkashlik va befarqlikka olib keladi.

Noto'g'ri ishonchni qayta o'zgartirish juda ko'p vaqt talab etadi.

Uni tezlik bilan uch yo'nalishda amalga oshirish zarur:

a) sinf, guruh jamoasida sog'lom ijtimoiy muhitni (qarashlar) yaratish kerak.

b) maxsus qimmatli hayotiy tajribalarni to'plash orqali;

v) noto'g'ri qarashlarni (ishonchni) chuqur asoslangan motivlarga tayanib inkor etish zarur.

Birinchi navbatda, sog'lom jamoani tuzishga harakat qilish orqali uzoq, o'rta va yaqin kelajak maqsadlarini belgilashga va uni rivojlantirishga harakat qilish kerak. Pedagog hamjihat jamoa bilan tarbiyalanuvchidagi fazilatlarga tayanib, noto'g'ri qarashlarni tezda o'zgarishga muvaffaq bo'lishi mumkin.

Noto'g'ri qarashlarni o'zgartirishning usullaridan bir nechtasini (A. I. Kochetov) quyida keltiramiz:

1. O'smirlarni boshqalar bilan o'zini qiyoslab ko'rishga uni qiziqarli odamlar bilan yaqindan tanishishni yo'lga qo'yish usulidan (o'ziga o'xshamagan bolalar bilan uchrashtirish) foydalanish mumkin.

Masalan, bola o'qishni xohlamaydi, uning tanishi ko'p o'qiydi, ko'p narsani biladi, lekin yodlab oluvchi, «maqtanchoq» emas.

2. Kelajakda noto'g'ri qarashlar nimaga olib kelishi mumkinligini misollar orqali ko'rsatish yo'li bilan (shunday kamchiliklarga ega bo'lgan odam oxir oqibatda o'z hayotini barbod qildi, vijdon, or-nomusni yo'qotib, o'zini juda kuchli deb hisoblasada, aslida kuchsiz bo'lib chiqdi) ishontirish zarur.

3. Tarbiyalanuvchi (noto'g'ri qarovchi)ga o'z fikrini isbotlashga imkon berish kerak. So'ngra uning keltirgan dalillari noto'g'riligini isbotlab berish kerak.

- noto'g'ri qarashlarni yo'qotish uchun pedagogning o'zidagi axloqiy fazilatlarni boladagi noto'g'ri xulqqa qarama-qarshi qo'yish. Bola qo'pollik qilsa, o'qituvchi muloyimlik bilan javob berishi kerak;

- noto'g'ri qarashlarni yo'qotish uchun shunday bolalarda imkoniyatlarini uning qarashlariga qarshi qo'yish kerak.

Masalan: yaxshi sportchi bo'lish uchun albatta «2» baho olish shart emas, balki ko'plab o'qish, shug'ullanish, mashq qilmoq kerak;

- noto'g'ri qarashlarni unga ishonch bildirish, yordam berish orqali ham yo'qotish mumkin. (Qanday yordam berishim mumkin? Senga nima bo'ldi, biror yering og'riyaptimi?)

- noto'g'ri qarovchilarga nisbatan ochiqchasiga kurash olib borish.

- ishonch odamda uchta komponentlardan tashkil topadi: bilim, his-

tuyg'u, xulq.

Pedagogik qarashlarda quyidagi formula amal qiladi: tushundim, hayajonlanyapman, qabul qildim, bunga amal qilaman. Bularning birontasi inkor etilsa, tarbiya samarasi juda past bo'ladi.

Ishontirishga qo'yiladigan talablar bilim, qarashlar va xulq normalari tizimi sifatidagi ishontirishni ularni shakllantirish usullari sifatida ishontirishdan farq qilish kerak. Ishontirish orqali yangi qarashlarga munosabatlar shakllantiriladi.

Ishontirishning ko'rinishida munozaralar, suhbatlar, o'qituvchi hikoyasi va o'qituvchi shaxsiy namunasi muhim rol o'ynashi ma'lum darajada ta'sirchan bo'lishi uchun, u qator talablarni qoniqtirishi kerak.

1. Ishontirish mazmuni va shakllari shaxsning yoshi, rivojlanish darajasiga qarab borishi kerak.

Masalan: kichik maktab yoshida ertak, voqeyiy fantastik hikoyalar, keyinchalik borliq, dunyoni o'rganish, insonning ma'naviy dunyosini o'rganish asosida.

2. Ishontirish umumlashgan prinsiplar va qoidalarni o'zida mujassamlashtirmog'i hamda aniq faktlar, misollarni o'z ichiga olishi zarur. Kichik maktab yoshida ko'rgazmali obrazlarning roli qimmatlidir.

3. Ishontirishda xulqdagi fikrlar tahlil etilishi lozim.

4. Boshqalarni ishontira borib, o'zi izohlayotgan narsani yuzaga chiqarish uchun o'zida ham chuqur ishonch bo'lishi kerak.

O'zaro ta'sir metodi ishontirish samaradorligini belgilovchi quyidagi shartlarga rioya qilmog'i kerak.

1. O'zaro ta'sir kuchi oldindan ta'minlangan bo'lishi ishontiruvchining obro'si va mazmuni bilan belgilanadi.

Uquvchi o'qituvchiga qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, uning ta'sirini shunchalik yaxshi qabul qiladi.

2. Ishontirishni yo'lga qo'yayotganida ishonuvchining psixik o'ziga xos tomonlarini hisobga olish zarur.

Buning uchun pedagog tarbiyalanuvchining asab sistemasi tipini bilishi, ta'lim-tarbiyadagi yaqin rivojlanish zonasini anglab yetishi kerak.

Masalan, bolalar kuchi beqaror nerv sistemasi tipiga taalluqli.

Unda tarbiyalanishga qaraganda qo'zg'alish ustun turadi.

Shuning uchun tarbiyachi ishontirishni shunday yo'lga qo'ymog'i kerakki, bolada yana qo'shimcha tarzda kuchli qo'zg'alish holati yuzaga kelmasin.

3. O'zaro ta'sir jarayonida ishontiruvchi va ishonuvchining intellektual, emosional holatini hisobga olish zarur. Masalan, bola ortiqcha hayajonda, bu bolada negativ hissiyot ustun. Shu holatda pedagog tarbiyalanuvchining xulqi noto'g'riligiga ishontirishga harakat qilsa, uning bu ishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Ishontirish metodini qo'llashda fikr, hissiyot va irodaviy ta'sirning uzviy bog'liqligiga amal qilgandagina u ta'sirchan bo'ladi. Uni qo'llashda ishontirish tuzilishiga rioya qilish maqsadga muvofiq: bilish, hissiyot-xulq. Birinchi ikkita komponentni bir-biridan ajratmaslik kerak.

Ilgari surilayotgan qoidalar isbotli bo'lishi, faktlar, dalillarga amal qilish,

pedagogning hayajonda bo'lishi, fikrning to'g'riligiga qat'iy ishonchini himoya qilishga tayyor turishi katta ahamiyatga ega. Bu esa yorqin ilhomlantiruvchi so'zlarda ifodalanadi va u bolalar xotirasida uzoq vaqt esda qoladi. Ishontirish metodidan foydalanishda bolalarning qiziqishini bilish, uni hisobga olish va undagi yaxshi tomonlarni ko'ra olish muhim ahamiyat kasb etadi va ularni qayta tarbiyalashda hisobga olish kerak. Ishontirishning samaradorligi o'qituvchi o'zining so'zi va xatti-harakatidagi uzviy birlikka bog'liq. (Masalan, biron narsani bolaga va'da berib, uning ustidan chiqish). Yanada yomoni, agar o'qituvchi yuksak, to'g'ri gaplar aytsayu, lekin bu gaplar, o'zining kundalik faoliyatiga asos qilib olinmasa, bundan yomoni yo'q. Bunday o'qituvchilar jamiyatga katta ziyon yetkazadi. Ishontirishda yuqori samaradorlik mashqlar bilan mustahkamlansagina ta'minlanadi. Mehnatsevarlikni nafaqat hikoyalar yordamida, balki mehnat yordamida ham tarbiyalash mumkin.

Butun o'quv-tarbiya jarayoni o'smoqda bo'lgan yosh avlodda dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ishontirishning asosi bo'lgan bilim shaxs dunyoqarashining yetakchi elementi, strukturasidir. Bilim, agar isbotli, dalil-ashyoviy bo'lsa, u ishonchga aylanadi. O'quvchi isbot-dalillarga asoslangan bilimga ega bo'lsa, boshqa eski bilimlar, qarashlarni inkor etadigan va bu inkorni asosli, isbot bilan tasdiqlaydigan bo'ladi.

Aniq ishontirish mantiqiy isbotlash demakdir, ya'ni ma'lum qoidalarini aniq munozarasiz bir fikrga olib kelish demakdir.

Isbotlash tezis, asoslash va namoyish etish (isbotlash usuli)dan iborat. Tezis shunday fikrki, uni isbotlash kerak. Asoslar shundayki, uning yordamida tezis isbotlanadi. Nazariy fikrlar, hayotiy va eksperimental faktlarni tahlili davomida namoyish etish orqali tezisni isbotlovchi xulosa, umumlashmalar xoliga keltiradi.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik davomida o'quv materiali mazmunini tahlil qiladi. Undagi bosh va ikkinchi darajali masalalarni ajratadi, bosh tezisni belgilab oladi. Asosiy e'tiborni bosh muammoni isbotlashga qaratadi. Bolalarga ma'lum bo'lgan narsalar ko'p vaqt olmasligi kerak.

Tezis aniq bir tomonlama bo'lib, ikki xil fikr bo'lmasligi va butun isbot qilish davomida o'sha fikrga qat'iy rioya qilish kerak.

Masalan: «Tanada ichki energiyani o'zgarish usullari» (VII-sinf fizika) mavzusida bosh fikr - tananing ichki energiyasini ikki xil usulda: ishlash orqali va issiqlik berish orqali o'zgartirish mumkin. Bu fikr ishonchli eksperiment, o'quvchi hayotiy tajribasini tahlil qilish orqali isbotlanadi.

Isbotlash uchun asoslar tanlanadi (faktlar, aksioma, o'rganilgan qoidalar va boshqalar bolalarni noto'g'ri fikrga olib kelmasligi kerak). O'quvchida o'rganilayotgan material to'g'risida yetarli darajada bilim, ma'lumotlar bo'lsa, asoslarga tayanib xulosa qilinadi.

Masalan, quyidagi tezisni isbotlashimiz kerak: «Alyumin elektr tokini o'tkazadi». Asos tarzida maktabdagi ma'lum qoidani tanlaymiz: «Alyuminiy - metall, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi» shu asosda isbotlaymiz, alyumin elektr tokini o'tkazuvchandir.

Pedagogik jarayonda ta'sir etish. Ishontirish metodi kabi ta'sir etish ham muhim rol o'ynaydi. Ta'sir etish muomala va faoliyatda odamlarning o'zaro

munosabatlaridagi muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy hususiyati shundaki, u inson ongi va xulqiga bildirmasdan ta'sir o'tkazadi, shaxs psixik strukturasiga nazoratsiz kirib boradi va bular kundalik turmushda xatti-harakat, intilish, motiv va ko'rsatmalar tarzida amalga oshiriladi. Bu o'rinda o'zida ta'sirni sezayotgan odamning faol roli pasayadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'sir o'quvchilarning ongli aktivligini bevosita faollashtiradi. Turli ko'rinishdagi ta'sir pedagogik ta'sirning vositalari, arsenalini boyitadi, o'qituvchiga o'quvchi shaxsiga nozik va taktik jihatdan individual yondashish imkonini beradi. So'z yordamida bolada tetiklik yoki qo'rquv, quvonch yoki xafagarchilik, o'ziga ishonch yoki ishonchsizlik, qiziqish yoki zerikish hislarini yuzaga keltirish mumkin. So'zning ma'nosi, mazmuni va nutq mantiqi bilangina emas, intonasiya, jest, mimika, harakatlardagi o'ziga xoslik bola emosiyasiga o'zgacha ta'sir etishi mumkin.

Agar o'qituvchining kayfiyati yomon bo'lsa, asabiy - qo'zg'aluvchan xarakterda doimiy muomalaga kirishilsa, ma'lum vaqt o'tgach, sinf jamoasi bilan muomalada asabiylik yuzaga kelayotgani, bu esa muomalaning kundalik normasiga aylanib qolayotganini sezadi. Nima uchun?

Psixologlar oddiy maktabda bir qator tadqiqotlar o'tkazib, natijada bir necha qobiliyatli bolani ajratib olishadi. Ularning familiyasi o'qituvchilarga ma'lum qilinadi. Hech kim hayoliga keltirmaydiki, bu tadqiqotlar obyekti erkin tarzda tanlab olindi, haqiqatdan ham ko'rsatib o'tilgan bolalar o'z tengdoshlaridan hech qaysi jihatdan ajralib turmasdi. Yil o'tgach, psixologlar yana maktabga kelishdi. Aniqlanishicha, o'sha o'quvchilar haqiqatdan ham o'z tengdoshlaridan intellektual rivojlanishi bilan ma'lum darajada ilgarilab ketgan edi. Nima sodir bo'ldi? O'qituvchilar psixologlarning fikrini tushunmagan holda o'sha bolalar uchun barcha intellektual qobiliyatlarini intensiv rivojlantirish uchun real sharoit yaratib berishgan ekan.

Ba'zan teskari misollar ham, kam bo'lsada, uchrab turadi. O'quvchini qat'iy tarzda salbiy qabul qilishga kayfiyatini sozlab olgan o'qituvchi yuqoridagi ko'rsatmaning aks natijasini olishi ham mumkin va bunday bolalarga doimiy qoloq, o'zlashtirmovchi o'quvchi «tamg'asi»ni qo'yib, hatto o'z kamchiliklarini tuzatishga bo'lgan o'quvchi xatti-harakatini ham ko'rmaydi. Buning ustiga bunday o'quvchi to'g'risida butun sinfnings salbiy munosabatini yuzaga keltirishga va mustahkamlashga harakat qiladi. Pedagogik ta'sirning umumiy asosiy shartlari quyidagicha:

- a) o'quv materialining mazmuni;
- b) ta'sir o'tkazilayotgan sharoit;
- v) o'qituvchining o'tkazayotgan ta'sirlar muvaffaqiyatiga ishonch;
- g) o'quvchilarning o'qituvchiga munosabati (obro'si), o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olish va ta'sir etish jarayonida bolaning holati;
- d) ta'sir etish texnikasiga ega bo'lish;
- e) ta'sir etish uchun yetarli sharoitning yaratilishi.

Ta'sir etish ko'rinishlari

Ta'sir etish ko'rinishlarini klassifikasiya qilish uchun quyidagi asoslar qo'llaniladi:

1. Ta'sir etuvchi manbalarga ko'ra farqlanadi:

- a) tetik, uyg'oq holatdagi ta'sir;

b) tabiiy uyqu holatdagi ta'sir;

v) gipnoz, uyqu holatidagi ta'sir. Bu, masalan, chet tilini uyquda o'rganishda (gipnopediya) foydalaniladi.

2. Ta'sir subyektning holatiga qarab farqlanadi.

a) boshqa odam tomonidan ta'sir ko'rsatiladigan faoliyat;

b) o'z-o'ziga ta'sir obyekti o'zining subyekti bilan to'g'ri kelib qoladi.

3. Ta'sir etuvchi ta'sir etish maqsadiga ko'ra farqlanadi:

a) ataylab ta'sir;

b) beixtiyor ta'sir.

Ataylab ta'sirda o'qituvchi oldindan qo'yilgan maqsadga erishish uchun ongli va maqsadli ta'sirni yo'lga qo'yadi.

Masalan, 9 "V" sinf o'quvchisi Komil juda tortinchoq, o'z-o'ziga baho berishda qiynaladi. Ona tili o'qituvchisi darsda;

«Sizlarning bayonlaringizni tekshirib chiqdim. eng yaxshilaridan biri Komilning ishi. Barakalla, Komil, tur! O'zingni rostlab ol! Yaxshi, mening ko'zimga qara!

Sen baland ovozda, ishonch bilan javob bera olasan. Doskaga chiq!

Beixtiyor (o'ylamasdan) ta'sir shu vaqtda bo'ladiki, ta'sir etuvchi o'z oldiga hech qanday maqsad qo'ymaydi. Odatda bunday o'qituvchi, oddiy, doimiy, bir xildagi ta'sir qilish bilan o'sha o'quvchida kuchli reaksiya uyg'otishi ham mumkin. O'qituvchi odatdagidek qaytarib: «Sen doimgidek qaysarsan», «Sen ahmoqsan», «To'polon qilishdan boshqa narsani sendan kutish mumkin emas!», «Seni tuzatib bo'lmaydi» kabi tanbehlar berish orqali beixtiyor bolada o'z kuchiga ishonchsizlik tug'diradi.

Yosh o'qituvchi o'z o'quvchilarining imtihonga puxta tayyorlanishlariga erishish maqsadida doimo shu gapni takrorlardi: «Kim nimani bilishini imtihon ko'rsatadi. O'ylamanglar osongina o'tib ketamiz deb». Oqibatda, imtihon o'quvchilarning imkoniyatlaridan ham past natijani ko'rsatdi. Hatto eng tanilgan o'quvchilar ham «uch» oldi. Nima sodir bo'ldi? O'qituvchi bu o'rinda butun o'quv yili davomida o'quvchilarga imtihondan qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik hissini beixtiyor shakllantirib keldi va oqibat ularning faoliyatini yo'qqa chiqarib qo'ydi.

Pedagogik ta'sirning maqsadini aniq tushungan o'qituvchi uni ishontirish va ta'sir etish orqali amalga oshiradi. Tez-tez, oldindan maqsadli o'tkazilgan ta'sir ayrim rag'batlantiruvchi tarzda ham amalga oshiriladi. Masalan: «Mening esligim», «Yaxshi», «Olgan natijalaring juda yaxshi», «Barakalla», kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bunday ta'sir ishonch bilan, qat'iy, erkin holda, ma'qullagan tarzda qarash, tabassum, ovoz ohangi, o'qituvchining tashqi ko'rinishida (uning yig'inchoqligi, dadilligi, optimistik kayfiyati) ham namoyon bo'lishi kerak. O'quvchilar o'zlariga nisbatan bunday munosabatni juda tez va aniq his etadi.

4. Ta'sir etish natijasiga ko'ra.

a) ijobiy;

b) salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy holatda: qiziqish, qarashlar, munosabatlar, odatlar ma'lum psixik sifatlar shakllanadi.

Salbiy holatda: o'qituvchining o'z-o'ziga baho bera bilmasligi,

majburiyatni xis etmasligi oqibatida shaxsda salbiy psixologik sifatlar, holatlar odat tusiga aylanib qolishi ham mumkin.

5. Mazmunga ko'ra ta'sir:

a) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish, ya'ni ta'sir etish maqsadi uning tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ta'sir etuvchi ta'sir obyektni ochiq-oydin u yoki bu salbiy sifatlarini xatti-harakatlarni yanada yaxshilashga chaqiradi. Masalan: «Endi sen bundan keyin doimo yaxshi o'qiysan» yoki «Endi sen bundan buyon hech chekmaysan».

6) yashirin ko'rinishdagi ta'sir. Bunday ta'sir qandaydir niqoblangan bo'ladi. Ya'ni bunday ta'sir obyektga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmaydi, balki uning ta'sirida tahlil yoki shunday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi fikr xohishni bildirishga harakat qilinadi.

Maktabda, odatda, ochiq yoki to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishda quyidagi formalardan foydalaniladi: komanda berish, buyruq, nasihat - maslahat xarakteridagi ta'sirlar amalga oshiriladi.

Komanda, buyruqlar, odatda, ong tomonidan nazorat qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik tarzda bajariladi va o'quvchilarda ma'lum xatti-harakatlar yuzaga keltiriladi, Bu o'rinda o'z o'qituvchisiga to'la ishonadi. Odatda bunday komanda va buyruqlarda: «O'rningdan tur, tekislan, oldinga qadam tashla» kabi ko'rinishda bo'ladi va ular sport o'yinlarini, tartibni saqlash, armiyada harbiy mashqlarni bajarish davomida beriladi. Intizomni saqlashni yo'lga qo'yish uchun (qo'llarni partaga qo'ying, kitoblarni yoping, endi menga qarang)dan ham foydalaniladi. Albatta bunday buyruq va komandalar jamoadagi an'-ana, odatlarga teskari tushmagan taqdirdagina sinf jamoasi yoki ayrim o'quvchi tomonidan so'zsiz bajariladi, Aks holda u salbiy natija berishi ham mumkin. Barcha komanda, buyruqlar shartli tarzda quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Tahmini, dastlabki yoki jalb etuvchi (Diqqat, tayyorlaning).

2. Bajaruvchi - ijro etuvchi (tekislaning, g'oz turing, oldinga qarang, to'xtang).

3. Taqiqlovchi (to'xtang, to'xtating, bajaring),

4. Ibrat tarzidagi (menga o'xshab bajaring, Solievdan keyin bajaring).

Ko'pincha tarbiyachi- o'qituvchi o'z faoliyatida ta'sir etuvchi -nasihat maslahatlar. ko'rinishidagi ta'sirlardan ko'proq foydalanadi.

Masalan, o'qituvchi uy vazifalarini doimiy bajarishga doir odatni yuzaga keltirish uchun foydalanadi.

Masalan: o'qituvchi o'quvchining ko'ziga ma'noli qarab, maksimal buyruq tarzida «Sen yaxshi o'qishing mumkin va buni xohlayapsan», «Bugun sen soat 3 da dars qilgani o'tirasan». Bu o'rinda o'qituvchi o'zining ko'rsatma va tavsiyalarini izoxlab o'tirmaydi, balki ma'lum xatti-harakat va xulqi bajarishga undaydi.

Masalan, 1-sinf o'quvchisi Anvar doimo darsga kech qolaveradi. Bir kuni o'qituvchi uning oldiga kelib juda xotirjam holda: «Anvar, endi sen hech qachon kech qolmaysan, o'tir» dedi. Ertasiga Anvar uyqudan juda erta turdi va darsga bir soat oldin keldi.

Albatta, bunday ta'sir doimo ham har qanday o'quvchiga ijo-biy ta'sir etavermaydi. Agar, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonch, bir-biriga

o'zaro hurmat bo'lmasa, yuqori natijaga erishish mumkin emas.

Shaxs rivojlanishida o'z-o'ziga ta'sir muhim o'rin tutadi. Biz turli ko'rinishdagi o'z-o'ziga ta'sir bilan birga, hikoyalar va filmlar orqali yoshlarning o'z-o'ziga ta'sir etish haqidagi manbalar bilan ham tanishmiz. Odatda biz «O'z-o'ziga ta'sir» termini orqali o'quvchi o'zining xatti-harakatlari, kamchiliklarini anglab etib, uni tuzatishga harakat qilganini tushunamiz. Lekin o'z-o'ziga ta'sir jarayonida shaxsning o'zining imkoniyatiga ortiqcha baho berishi orqali unda salbiy munosabat ham yuzaga kelishi mumkin. O'z-o'ziga ta'sirda shaxsning yetuklik darajasi e'tiborning qat'iyligi muhimdir. Shaxs o'smirlik va balog'at yoshida o'zining ichki dunyosiga, o'z-o'zini tanitishga bo'lgan qiziqishi ortganda, o'zini yanada takomillashtirishga, yetuklikka intilish kuchayadi. Huddi shu vaqtda o'z-o'ziga ta'sir, o'z-o'zini tarbiyalashning muhim vositasiga aylanadi. Demak, tarbiyaviy maqsadda o'z-o'ziga ta'sirni qo'llash shaxsning yuqori darajada rivojlanish davridagina qo'llash muvofiqdir. U o'quvchi o'z kamchiligini ko'ra bilganda, xis etgandagina amalga oshiriladi. Bu davrda pedagog o'quvchini o'z-o'ziga ta'sir usullari bilan qurollantirmog'i kerak. O'qituvchi shaxsga bu ishning muvaffaqiyati samarasi birdaniga kelmasligini, balki o'sha to'siqlar - kamchiliklarni asta-sekin yengish kerakligini, har bir ishda fikrni to'g'ri yo'naltira olishi orqaligina muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tushuntirishi kerak. O'z-o'ziga ta'sir oldindan ko'ra bilish va ichki ziddiyatlarni yenga olish bilan samaralidir.

Hozirgacha biz ta'sir etishni oddiy faoliyat va pedagogik amaliyotda oddiy sharoitda amalga oshiruvchi ta'sir sifatida ko'rib o'tdik. Lekin ta'sir etish yoki o'z-o'ziga ta'sir etish psixik va fiziologik xotirjamlik, bo'shashish holatida uning samaradorligi yuqori bo'ladi. Relaksasiya yoki relaksopediya oxirgi yillarda pedagogikada keng foydalanilyapti.

Relaksopediyani ayniqsa, o'ta mas'uliyatli va murakkab holatlarda jumladan, pedagogik jihatdan qiyin tarbiyalanadigan, ijtimoiy normalardan chetga chiqib ketgan bolalarga nisbatan samarali tarzda qo'llash mumkin.

Relaksasiya fanida ta'sirni qo'llash, ayniqsa, bolada ta'sir etuvchiga nisbatan qabul qilish kuchayganda (ya'ni ta'sir etuvchiga moyillik kuchayganda) ijobiy natija beradi. Gap shu yerdaki relaksasiya holatida ma'lumotlar keladigan ichki va tashqi yo'llar keskin chegaralanadi yoki berkiladi, faqat bitta ta'sir etuvchi pedagogning ovozi asosiy bo'lib qoladi va uning samarali ta'siri kuchayadi.

Mushaklarda relaksasiya holatida o'z-o'ziga ta'sirning kuchi ortadi. Bunga eng yaxshi vaqt uxlash oldidai, uyqudan turgan davr maqsadga muvofiqdir. Xuddi shu davrda psixik va fiziologik bo'shashishlik, yengillik davri bo'ladi. Demak, relaksasiya holati yoki relaksopediya barcha ta'sir (tarbiyaviy va didaktik) tizimida eng samarali usul hisoblanadi.

Ta'sir etish - pedagogik ta'sir metodi sifatida unga murojat qiluvchi yoki undan foydalanuvchi har qanday tarbiyachida, avvalo, uni amalga oshirish uchun yetarli darajada texnika bo'lmasa, ta'sir natijasiz bo'libgina qolmay, balki o'qituvchiga nisbatan bolalarda kulgi yuzaga keltiradi. Yosh o'qituvchilar ishini kuzatish shuni ko'rsatadiki, ko'pchiligi mimika va jestni yetarli darajada egallamagani uchun ma'nosiz, zerikarli xarakterdagi o'git nasihatlar bilangina chegaralanadi, xolos. Ta'sir etuvchining faoliyat samarasi ba'zan oddiy,

masalan, ovozi qandayligi, qarashi harakatlariga ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, nasihat qiluvchining mimika va jestlari so'z bilan ta'sir mazmuniga hamohang bo'lmog'i zarur. Masalan, uyatchan, kamgap bolani tetiklashtirish, faollashtirish maqsadida, unga qaramasdan «Men ishonamanki, sen bugun yaxshi javob berasan» deydi, lekin bunday ta'sirning samaradorligi ancha past bo'ladi. Chunki bunday ta'sir, hissiz, shunchaki aytilgan gapdan nariga o'tmadi. Ta'sir etishni amaliy jihatdan qo'llashda, his-hayajonni boshqarish o'zining his-tuyg'usini ifodalash uchun aniq ibora, so'z, gaplarni topa bilish kerak.

Buning uchun, ayniqsa yangi ish boshlovchi o'qituvchi pedagoglarga qanday amaliy maslahatlar kerak?

1. Ko'proq kuzatuvchanlik, shaxslararo munosabatda qaysi so'zingiz, iltimosingiz, talabingiz, taklifingiz so'zsiz bajariladi yoki bajarilyapti?

Bular nimalar bilan bog'liq?

a) gapingizning mazmuni bilan bog'liqmi?

b) ta'sir etish usulingiz, his-tuyg'u bilan yo'g'rilgani tufaylimi?

Zarurligiga ishonch bilan qaraganingiz uchunmi?

v) obro'yingiz tufaylimi?

g) o'quvchi yosh va o'ziga xos xususiyatini hisobga olganingiz tufaylimi?

Shulardan eng muhimlarini ajratib olingda, hech kim yo'q, xotirjam vaqtda shularni qaytaring.

2. Bu tahminni siz muvaffaqiyatga erisha olmaganda ham qo'llang.

3. Shu qo'l kelgan holatlarni oyna oldida, magnitafon yordamida qaytaring, mashq qiling.

4. Muskullar tarangligi va uni bo'shashtirish mashqlarini bajaring.

Shuni dars boshlanishidan oldin va dars o'rtasida (dars o'ylaganimdek ketyapti, o'quv materiallarini to'g'ri yetkazayapman, o'quvchilar meni qiziqib tinglayapti, darsda ular qiziqishini orttira olayapman.)

5. Ishdan keyin o'zingizdagi ortiqcha asabiy holatni yengillatish usullarini o'ylab toping. Kitob terapiya, gul terapiya, musiqa terapiya, va boshqalardan foydalaning. Kechqurun vaqt topib ish vaqtida sodir bo'lgan kamchiliklarni tahlil qiling, hech qachon yomon fikrga bormang, yomonlikni o'ylamang.

6. O'quvchi sizning tushuntirishingizni anglamadi yoki qabul qilmadi. Siz sababini chetdan istamang, o'ylang, sizning gapingiz, izchil, mantiqli, ishonarli bo'ldimi.

Shu qoida va maslahatlarga doimo amal qiling.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kommunikativ ta'sir etishning asosiy usulini qanday izohlaysiz?

2. Ishontirishga qanday pedagogik talablar qo'yilgan?

3. Isbotlash mantiqi tuzilishi qanday?

4. Qanday ta'sir etish ko'rinishlari mavjud?

5. O'z-o'ziga ta'sir etish hamda relaksasiya holatlarini qanday tushunish mumkin?

6. Ta'sir etish va ishonch o'rtasida bog'liqlik nimada?

PEDAGOGIK TEXNIKA VA TAKT

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.
2. Pedagogik jarayonda mimika va pantomimika.
3. Nutq texnikasi.
4. Pedagogik takt tushunchasi.
5. Pedagogik texnika va taktning shakllanish jarayoni.

Pedagogik texnika nima? Pedagogik texnika – bu tarbiyachining pedagogik jarayonda qo'llaydigan yo'l, usul va ko'nikmalari yig'indisidir. Pedagogik texnikaga oid ko'nikmalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ko'nikmalariga tarbiyaining o'z xulqi va xatti –xarakatlarini boshqarish, idora qila olish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar kiradi. Masalan, mimika, pantomimikadan unumli foydalanish, emosiya va kayfiyatni boshqarish, nutq texnikasi, diqqat kuzatuvchanlik, ijodiy hayollar kabilar shular jumlasidandir.

Ikkinchi guruh ko'nikmalar bevosita shaxsga va jamoaga ta'sir etishda namoyon bo'ladi va ta'lim tarbiya jarayoning texnologik tomonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu guruh ko'nikmalarga didaktik (o'qitish va tarbiyalash metodlarini muvaffaqiyatli ko'llay bilish), tashkilotchilik, konstruktiv (bolani kelajakda qanday kishi bo'lib yetishishini oldindan ko'ra bilish va loyihalashtirish), kommunikativ (bolalar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish olish, bir-birini tushunish) ko'nikmalari kiradi. Bulardan tashqari, bolalar oldiga talablar ko'ya bilish, pedagogik muloqotni boshqarish, bolalarning ijodiy ishlarini tashkil qilish kabilar ham shu guruh ko'nikmalariga kiradi.

Kuzatishlarimizdan ma'lumki, yosh tajribasiz tarbiyachi - o'qituvchi yuqoridagi pedagogik ko'nikmalarning barchasi mavjud bo'lmaydi yoki ular o'z takomiliga yetmagan bo'ladi. Shu sababli ularning pedagogik faoliyatda ko'plab kamchiliklar darrov ko'zga tashlanadi. Ana shunday kamchiliklar qatoriga bolalar yoki ularning ota-onalari bilan yurakdan gaplasha olmaslik, nutqda tez gapirish yoki jumlar tuzishda xatolarga yo'l qo'yish, bolalar guruhiga birinchi kirganda o'zini yo'qotib qo'yish, nutqining monotonligi, ovozning baland yoki pastligida eng qulay darajasini topa bilmaslik, qo'l, oyoq, gavda xarakatlarini nazorat qila olmaslik kabilar kiritish mumkin. Bularning barchasi yosh o'qituvchida pedagogik texnikani yetishmasligining oqibatidir. Bu kamchiliklar pedagogik jarayonga, bolalar ta'lim tarbiyasiga so'zsiz salbiy ta'sir etadi. Pedagogika institutlarining vazifasi esa bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik texnikani yaxshiroq shakllantirish, ularni pedagogik faoliyatga yaxshiroq tayyorlashdir.

Pedagogik texnikada tarbiyachi - o'qituvchining tashqi qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. Tashqi qiyofasining pedagogik maqsadga muvofiqligi uning tashqi ko'rinishida, hissiyotlarni boshqara olishida, mimika va pantomimika o'z aksini topadi.

Avvalo tarbiyachi-o'qituvchining tashqi ko'rinishi estetik jihatdan ko'rkam, qomati tik, kiyimlari toza va kamtarona bo'lishi lozim. O'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor bermaslik (soqolni o'sib ketishi, yoqasining kir bo'lishi, tufisining chang yoki loy bo'lishi) ham, aksincha ortiqcha bezanishga berilish

ham tarbiyachi, pedagog kasbiga ziddir. Chunki bolaning taqlidchan bo'lishini unutmasligimiz kerak.

Tarbiyachi-o'qituvchining yuzidan, qo'zidan, xarakatlaridan o'ziga bo'lgan ishonch yaqqol sezilib turishi kerak. Bolalar esa kuchli, bilimi chuqur, o'ziga ishongan tarbiyachi-o'qituvchilarni ko'poq xurmat qiladilar.

Ta'lim tarbiya jarayonida tarbiyachi-o'qituvchining o'z his- tuygularini boshqara olishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, ishni endigina boshlagan yosh tarbiyachi-o'qituvchida qo'rqish, o'ziga ishonmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish hislari kuchli bo'ladi. Bu his-tuyg'ular so'zsiz uning nutqiga, fikrlarining ketma-ketligi va izchilligiga, psixik xolatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, his-tuyg'ularni kerak bo'lganda bosa olishham zarur. Buning uchun esa kishi o'zini o'zi ishontirishi va his-tuyg'ularining mexanizmlari faoliyatini nazorat qila bilishi kerak.

Pedagogik jarayonda mimika va pantomimika unumli va maqsadga muvofiq foydalana bilish pedagogik texnikaning eng muhim qismlarini tashkil etadi. Mimika – bu tarbiyachi-o'qituvchining o'z fikrlari, his – tuyg'ulari, kayfiyatini va yuz xarakatlari, ifodalari orqali bildirish san'atidir. Ko'pgina tarbiyachi-o'qituvchining yuz ifodalari, ko'z qarashlari bolalarga so'zga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatishligini tajribadan yaxshi bilamiz. Haqiqatdan ham, jest va mimika berilayotgan informatsiyalarning emotsional bo'lishi. Uni bolalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirilishiga imkon beradi. Ma'lumki bolalar tarbiyachi-o'qituvchining yuziga, ko'ziga qarab turadilar, uning ichidagini bilishga, fikrlarini o'qishga, kayfiyatini aniqlashga xarakat qiladilar. Shunday ekan, tarbiyachi-o'qituvchi o'z fikr va his – tuyg'ularini yuzda ifodalay bilishi, shu bilan birga, kerak bo'lganda his – tuyg'ularini yashira bilishi ham lozim. O'z uyida yuz bergan noxushlikdan hosil bo'lgan yomon kayfiyati, xafagarchiligini bog'cha, maktabga olib kelishga xaqqi yo'q. U faqat ta'lim – tarbiya ishi uchun zarur bo'lgan narsalarnigina yuzda ifodalashi lozim. Bunday his-tuyg'ular qatoriga o'ziga ishonch, ma'qullash, qoralash, norozilik, quvonch, hayratlanish, befarqlik, nafratlanish kabilarni kiritish mumkin.

Yuz ifodalarida qosh – ko'zning roli ham katta. Masalan qoshning yuqori ko'tarilishi taajjubni bildirsa, pastga tushishi esa osoyishtalikni, diqqatni bir yerga to'planganligini ifodalaydi. Ko'zga qarab esa quvonch yoki g'azabni bilish mumkin. Ko'z yana ko'p narsalarni ifodalaydi. Shunday ekan, gapirayotganda devorga, derazaga, shipga qarab emas, balki bolalarga qarab gapirishi lozim. Ko'z bolalar bilan tarbiyachi-o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa (kontakt) o'rnatishning muhim vositasidir.

Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoq harakatlaridir. Ta'lim –tarbiya jarayonida bularning ham rolikattadir. His – hayajon bilan mashg'ulot o'tayotgan tarbiyachiga razm solsak unda bosh, bo'yin, qo'l, gavda harakatlarining bir – biriga nihoyatda uyg'un ishlayotganining guvohi bo'lamiz.

Kishining gavdasi, qomati, xatti-harakatlarida uning o'ziga bo'lgan ishonchi, ichki his-tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi. Xuddi shu singari, boshning egilgani, qo'l va oyoqlarning bo'shashganiga qarab kishining kuchsizligi, o'ziga ishonmaganini ham yaqqol sezish mumkin.

Pedagog - bolalar oldida tik turish, uyoq-buyoqqa yurish san'atini ham egallashi lozim. Masalan, oyoqlar bir-biridan 12-15 sm uzoqlikda turishi bir

oyoq ozgina oldinda bo'lishi kerak, tik turganda tebranmaslik, stul yoki devorga suyanmaslik lozim. Xatto qo'lda keraksiz predmetni o'ynab turmaslik, boshni qashimaslik, quloqni ushlamaslik zarur. Aks holda bular pedagog uchun yomon odatga aylanib qoladi.

Qomatni tik tuta bilish uchun mahsus mashqlardan foydalanish mumkin. Masalan, sport bilan shug'ullanish, gavgani devorga tik suyagan holda 10-15 minut turish kabilar. Bundan tashqari, gavgda va uning harakatlarini ongli ravishda nazorat qilib turish ham yaxshi natija beradi. Pedagog o'ziga tashqaridan qarab ko'rishi, ayniqsa, bolalar ko'zi bilan qarashi ham lozim.

Muloqotni faol bo'lishini ta'minlash maqsadida tarbiyachi-o'qituvchi goh bolalarga yaqinroq borishi mumkin. Bu ular diqqatini to'planishiga olib keladi. Goh orqaroqqa qaytishi mumkin, bu bolalarning erkinroq nafas olishi, dam olishiga imkon beradi.

Pedagogik texnika ko'p jihatdan nutq texnikasini egallash bilan bog'liqdir. Chunki nutq texnikasi ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Sababi bolalar informasialarni asosan nutq orqali qabul qiladilar. Shunday ekan pedagog nutq texnikasini mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Tajribadan yaxshi bilamizki, tarbiyachi-o'qituvchi tomonidan biror tovush yoki so'zni noto'g'ri talaffuz qilinishi bolalar o'rtasida kulgiga sabab bo'ladi, yoki bir xil ohangdagi nutq ularda zerikishni keltirib chiqaradi, haddan tashqari baland ovoz yoki noo'rin to'xtalishlar /pauzalar/ ularning jahlini chiqaradi yoki tez charchatadi.

Ayrim kishilar ovoz ham, uning temбри /baland-pastligi/ ham tabiat in'omidir, uni o'zgartirish mumkin emas deb o'ylaydilar. Lekin ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ovozni sifat jihatdan keskin o'zgartirish mumkin. Bunga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, qadimgi yunon notig'i va siyosiy arbobi Demosfen maxsus mashqlar orqali o'z nutqini tarbiyalab zamonasining mashxur notig'i darajasiga ko'tarilgan. Adolf Gitler, Fidel Kastro kabi arboblار ham nutqini maxsus mashq qildirganlar.

Hozirgi vaqtda ovozni sozlashning ilmiy asoslangan metodikasi ishlab chiqilgan.

Nutq texnikasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Nafas olish texnikasi.
2. Ovoz texnikasi.
3. Diksiya.
4. Ritmika.

Nafas olish fiziologik hodisa bo'lib odam organizmining hayotini ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda u nutqimizning energiya manbai ham bo'lib hisoblanadi. Agar nafas olish va nafas chiqarish bo'lmaganda, nutq ham bo'lmagan bo'lur edi.

Ovoz nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Bunda diafragma, ko'krak qafasi, ovoz apparati va artikulyasion apparat faol ishtirok etadi.

Ovoz kekirdakda – ovoz paychalari yordamida hosil bo'ladi. Ovozning past yoki baland bo'lishi paychalar orasidan o'tayotgan havo oqimining hajmi va kuchiga bog'liqdir. Ovoz artikulyasion apparatda tovush va harflarga ajratiladi. Bunda til va lablar asosiy rolni uynaydi.

Pedagog ovozining o'ziga hos xususiyatlari nimada? Avvalo bu tovushning kuchida. Tovushning baland-pastligi esa nutq apparati faoliyatining faolligiga bog'liqdir. Ichkaridan chiqayotgan havo tovush paychalari orasidan qanchalik kuch bilan o'tsa, tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi yoki aksincha.

Nutqning ikkinchi xususiyati uning eshitilish darajasidir. Bu darajani boshqarish tarbiyachining ixtiyorida buladi: eshituvchilar yaqinda bo'lsa ovoz kuchini pasaytiradi yoki aksincha.

Nutqning yana bir xususiyati harakatchanligi bo'lib, sharoitga qarab uni tez o'zgartirilishi tushiniladi, ya'ni goh ovozni ko'tarish, goh tushirish kerak bo'ladi. Uning yana bir xususiyati ovoz diapazoni ya'ni hajmi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra nutq yuqori diapazonli va quyi dapazonli bo'lishi mumkin.

Tarbiyachi-o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida ovoz gigienasiga albatta rioya qilishi lozim. Aks holda kasb kasalligi – ovoz xastaligiga duchor bo'lishi mumkin. Ovoz apparatining kasallanishi pedagoglarda juda yuqori bo'lib, 40,2 foizni tashkil etadi. Bu kasallikning sabablari juda ko'p bo'lib, shulardan to'rttasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: kunlik ovoz yuklamasi /nagruzkasi/ ning yuqoriligi, ovoz apparatidan to'g'ri foydalana bilmaslik, gigienaga rioya qilmaslik, ovoz apparatining tug'ma kuchsizligi kabilar.

Ma'lumki pedagog o'z ish vaqtining 50 foizldan ortig'ida gapirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun u ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq so'zlashuvlardan o'zini tiyib, ovoz apparatiga dam berishi lozim. Bundan tashqari, u pedagogika bilim yurtida dars beradigan bo'lsa dars jadvali tuzayotganda 3-4 soat ishdan so'ng bir soat dam berilishi nazarda tutilishi kerak. Ovoz apparati tez ta'sirlanuvchan bo'lib o'ta sovuq yoki issiq, shu bilan birga, achchiq ovqatlar tufayli ham kasallanishi mumkin.

Bir necha soat dars o'tgandan /gapirgandan/ so'ng sovuq havoda tez yurish ham tavsiya etilmaydi. Chunki tez yurganda nafas olish tezlashadi. Va ovoz apparatiga sovuq havo oqimi ko'proq kirib ishdan charchagan ovoz paychalarini kasallantiradi.

Pedagog faoliyatida diksiya ham muhim ahamiyatga ega. Diksiya – bu so'zlar, bo'g'inlar va tovushlarni aniq, burro, ravshan talaffuz qilish demakdir. Diksiya nutq apparatining intektiv ishlashiga bog'liq. Bunda lab, til, tish, qattiq va yumshoq tanglay, osilchoq tilcha, xiqildoq, jag'lar faol ishtirok etadi. Buning uchun ularni hamma vaqt mashq qildirib borish lozim. Hozirgi kunda artikulyasion apparatni ham takomillashtiruvchi maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Nutq texnikasida ritmika ham muhim ahamiyatga ega. Ritmika – bu so'zni aytilishining tezligi va davomiyligi bo'lib hisoblanadi. Nutqning tezligi pedagogning individual xususiyatiga, nutq mazmuni va muloqot sharoitiga bog'liqdir. Nutq eng tez bo'lganda bir daqiqada /minutda/ 110-120 so'zni aytish mumkin. Inglizlarda bu raqam 120-150 ga tengdir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, V-VI sinfda o'qituvchi bir daqiqada 60, IX sinfda 75 tadan ortiq so'z ishlatmasligi lozim. Bolalar bog'chasida esa bu raqam 35-40 ni tashkil qilishi kerak.

Ayrim soʻzlarning davomiyligi uning uzunligi, kattaligigagina bogʻliq boʻlib qolmay, shu matndagi ahamiyatiga ham bogʻliq. Masalan, soʻz zarurroq, ahamiyatliroq boʻlsa uni choʻzibroq, boʻrttiribroq aytish mumkin. Ayrim qoidalar, taʼriflar, xulosalarni sekinroq tempda gapirish, qolganlarini esa tezroq gapirish mumkin.

Nutqda pauzalar ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir pedagog nutq texnikasi ustida hamisha ishlashi, nafas olishni mashq qildirishdan tortib, ovoz, diksiya, ritm ustida tinimsiz ishlashi kerak.

Koʻrinib turibdiki, pedagogik texnika koʻplab koʻnikmalar, malakalar, odatlar va harakatlarni mukammal egallashga va ulardan taʼlim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olishga bogʻliq ekan. Shunday ekan, har bir tarbiyachi va oʻqituvchi chuqur bilimga ega boʻlishidan tashqari pedagogik texnikani ham egallashi zarur. Ana shundagina u mahoratli pedagog boʻla oladi.

Pedagogik texnika tizimida takt tushunchasi boʻlib, uni quyidagicha izoxlash mumkin.

Oʻqituvchi va oʻquvchilarning muomalasi jarayonida hissiyotning ikki tomoni (ijobii- salbiy) namoyon boʻladi. Oʻz munosabatlarida ijobiy hissiyotlarga asoslanish, intilishi, qobiliyati katta tarbiyaviy samara beradi. Salbiy xissiy xolatlarni oʻqituvchi maqsad kilib olmaydi. Ijobiy xissiy samaradorlikka erishish uchun vaqtincha vaziyat boʻlishi mumkin. Masalan, xurmatni yoʻqotib quyishdan choʻchish, hayajonlanish va hakazo. Tajribalarni koʻrsatishicha, pedagogik takt oʻqituvchiga bolalar bilan ruhiy aloqaga va ijobiy hissiy muomalaga asos boʻladi.

Pedagogik takt talablari boʻyicha oʻqituvchi oʻzida muomalaning demokratik usuli va muomala madaniyatiga erishadi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida pedagogik takt boʻyicha koʻplab ishlar yigʻilgan. Albatta bu ishlar oʻzaro munosabatlarni toʻgʻri tashkil etishga, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi. Barcha oʻrganuvchilar pedagogik taktning keng va chuqur tushuncha ekanini, alohida taʼrifni yoʻqligini taʼkidlashadi. Bu umumiy qabul qilingan, oʻziga xos «takt» tushunchasi bilan bogʻliq.

Takt soʻzi soʻzma - soʻz «daxl» (prikosnovenie) degan maʼnoni beradi. Ahloqiy toifa boʻlib, kishilararo munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi. Xulq - atvordagi nazokatlik (taktga ega boʻlish) insonparvarlik bilan bogʻlik eng ogʻir, qarama- qarshi vaziyatlarda ham boshqa kishilarga boʻlgan xurmatini, eʼtiborini saqlab qola bilishdir. Nazokatli boʻlish har bir kishiga, ayniqsa oʻqituvchiga boʻlgan ahloqiy talabdir. Chunki u, rivojlanuvchi shaxs bilan muomalada boʻladi. Pedagogik takt oʻqituvchining kasbiy sifati, mahoratining maʼlum qismi. Pedagogik taktning, umumiy takt tushunchasidan farqi, u fakat oʻqituvchi shaxsi xususiyatiga ega boʻlmasada, bolalarni sevishtirish, mehribonlik, xurmat-eʼtiborni talab qiladi. Yaʼni oʻqituvchilarga muomala yoʻlini topish, tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishdadir. Umumiy tarzda pedagogik takt oʻqituvchining oʻquvchilarga pedagogik maksadga mos taʼsir etish sermaxsul muomala usulidir.

Pedagogik takt mahorat bilan tarbiyalanadi. Oʻqituvchining ruhiy yetukligi, oʻz ustida ishlashi, munosbatlarda yosh va individual xususiyatlarni

farqlay bo'lishi zarur.

Pedagogik takti puxta egallashda o'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi va uni namoyish qila olish, bolalar xulq - atvorini ichki asoslarini, motivlarini ko'ra bilishi, sharoitga kirisha olish, vaziyatni to'g'ri baholash lozim. Umumiy tarzda o'z-o'zini boshqara olish, tug'rilik, boshqalar tajribasiga ijobiy yondashish, pedagogik texnikaning rivojlanishi kabilar zarur.

Pedagogik takt muayyan chegaraga ega. Aksincha u teskari xolatni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalarga nisbatan xurmat va gamho'rlik, unda o'ziga ishonch, o'z qadr - qiymatini anglash hissini, vujudga keltiradi. Natijada bola tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Xurmat va erkalash talabchanlik va xushyorlikdan ajralib qolmasligi kerak. Talabchanlik bolani individual xususiyatini hisobga olingan xolda bo'lsa o'qituvchining xurmati oshadi.

O'quvchining tarbiyalangan darajasiga qarab munosabatlarni qurish zarur. Bolaga e'tibor, ochiq ko'ngillik bola yoshini ortib borishi bilan o'zgarib boradi.

Pedagogik takt o'qituvchi xulqini barqarorligini talab etadi. O'quvchi kelajagiga ishonch asosiga quriladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar o'qituvchining xarakatsizligidan kelib chiqadi. Masalan, o'quvchining xulqiga qarab o'qituvchi tanbex berishi o'rtadagi ziddiyatga sabab bo'ladi.

Pedagogik takt darsning hamma bosqichlarida zarur. Bolani bilimini aniqlash va baholashda o'qituvchi o'z xulqiga e'tibor berishi va boladagi xato va nuqsonlarga chidashi shart. Har bir o'qituvchi o'zining tinglovchilarni, uni xurmat qiladiganlarni sevadi, o'quvchining javobini u bo'lmasligi kerak. O'qituvchi sinf xonasida dars o'tayotganda yurib turishi, o'quvchiga dalda berishi, izohlashi muhimdir.

Baho quyish bosqichi ham g'oyat muhimdir. Ba'zan ijobiy bahoga ham o'quvchida qonikish bo'lmasligi mumkin. Bunday xolda bahoni adolatli izohlash, asoslash maqsadga muvofiqdir. O'quvchini to'g'ri javobidan mamnun bo'lishi, noto'g'ri javobidan u bilan birga kayg'urishi va uni izohlashi, asoslashi maqsadga muvofiqdir. Bahoda bola muvaffaqiyatsizligini kechirishi, uni bartaraf etishga bolada ishonch hosil qilishi ijobiy natijalar beradi. Tajribali o'qituvchi o'quvchining har bir xarakatini his etib, kuzatib yurmaydi, balki unga ishonchini namoyon qiladi.

Pedagogik takt bolaga ishonchini namoyon qilishi bilan ham bog'liqdir. O'qituvchidan muayyan taktikaga ega bo'lishni talab etadi. O'quvchi bilan muomala turli vaziyat va obrazlarda bo'ladi. Muomalada xolislik, aniqlik, darsga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa, qattiqqo'llik kabilar muhimdir. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda do'stona muomaladan foydalanish mumkin.

Muomalada taktika tanlash, o'z roldan qanday foydalanish ko'nikmasiga bog'liqdir.

Pedagogik takt - pedagogik mahorat bilan birgalikda o'sib boradi. U o'qituvchining ma'naviy kamolotini, o'z ustida muntazam ishlashi, bolalar bilan muomala qilish kunikmasi mahsulidir.

Shu bilan birga takt va individual xususiyatlar to'g'risidagi psixologik bilimlar xamdir. Shuningdek axloq asoslari; xulq va xatti- xarakatini ko'ra bilish

haqidagi bilimdir.

Bolalarni yetuk kishi darajasida muomalaga o'rgatish, muomalada ishonch va uzaro ishonchni hosil qiladi.

Pedagogik takt pedagogik mahorat bilan o'sib boradi. O'qituvchining ruhiy yetukligi o'z ustida ishlashi bolalar bilan muomala qilish ko'nikmasi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini bilishi pedagogik takt uchun asos bo'ladi.

O'qituvchiga pedagogik takti egallashda quyidagi ta'sir etish ko'nikmalari zarur:

1. Bolalarni yaxshi ko'rishi va xuddi shuni ko'rsata olishi.
 2. Bolalarni kuzatish, bolalarning xulq-atvorining ichki asoslarini, motivlarini ko'ra bilish.
 2. Sharoitga kirisha olish, ya'ni sinfga moslasha olish.
 3. Ta'sir etishning maqsadga muvofiq vositalarini, usullarini tanlay olish.
- Umumiy tarzda o'z-o'zini boshqara olish, to'g'rilik, boshqalar tajribasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikaning rivojlanishi kabilar zarur.

Ziddiyatli xolatlarda quyidagilar zarur, ya'ni muximdir:

1. Ushbu vaziyatni yenga olish, tashqi bosiqlik, o'zini qo'lga olish.
2. Xulq - atvor bilan ta'sir etish.
3. Xarakat motivlarini o'rganish.
4. Maqsadli kelishish va ziddiyatga birgalikda baho berish.
5. O'z qarashlarini mustaqil ishlash, xal qiluvchi qaror chiqarish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabati, ularning oldida o'zini ko'rsata bilishi, xatti-xarakatlari, o'zini tuta bilishini tushunamiz.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yosh o'qituvchilarning tipik holatlari nimalardan iborat?
2. Emosional holatni boshqarish deganda nimani tushunasiz?
3. Nutq texnikasi va uning mashqlarini sanab bering?
4. Pedagogik takt va taktika nima?
5. Pedagogik takti egallashda qanday shartlarga rioya qilish zarur?

NOTIQLIK SAN'ATI VA PEDAGOGIK MAHORAT

1. Notiqlik san'ati haqida tushuncha.
2. Pedagogik faoliyatda nutq.
3. Pedagog nutqining sifat va xususiyatlari.

Insonlar hayotida nutqning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi har bir kishiga ham ma'lum. Chunki odamlar til yordamida fikr almashish, bir-birlarini tushunishdan tashqari, o'z istaklarini, his-tuyg'ularini, irodalarini ham izhor etadilar.

Nutq kishilarning bir-birlariga ta'sir etishning qudratli vositasidir. So'z insonni ishontirishi, mehnat va g'alabaga chorlashi, yomon yo'ldan qaytarishi, quvontirishi yoki jahlini chiqarishi, hatto o'ldirishi ham mumkin.

O'qituvchi faoliyatida nutq juda muhim funksiyalarni bajaradi.

O'qituvchilar nutq orqali bilim, ishonchga ega bo'ladilar. Muayyan his-tuyg'ularga tushunib yetadilar, o'qituvchining so'zlari ta'sirida bolalarda muayyan psixik prosesslar va psixik holatlar vujudga keladi, shaxsiy jihatlari shakllanadi.

Nutqning fiziologik asoslari I.P.Pavlov tomonidan tushuntirib berilgan. Uning ta'limotiga asoslanib, sezgilarimiz, idrokimiz va tasavvurlarimizni atrofimizdagi tashqi dunyoning birinchi signallari deb yuritamiz. Nutq va tafakkur esa ikkinchi signal sistemasidan iboratdir. So'z voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok qilish hamda tasavvur etishdan iborat bo'lgan bevosita signallarning signalidir.

Insondagi ikkala signal sistemasi birgalikda mavjuddir. So'z asosida doimo aniq narsa, hodisa, voqelik yoki umumlashgan tushuncha tasavvuri mavjud bo'lmog'i zarur. Aks holda, nutq ham real hayotni aks ettira olmaydi, hamda tafakkur ham umumlashtirish vositasi bo'lmay qoladi.

Inson tafakkur bilan bog'liq bo'lgan nutq ikkinchi funksiyani: aloqa va ta'sir ko'rsatishni bajaradi.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, nutq boshqalar bilan aloqa vositasi bo'lishi bilan bir vaqtda tafakkurning ham shaklidir. Chunki har birimiz «ichki nutq» deb atalmish «so'zlar bilan fikr yuritamiz».

O'zgalarga qaratilgan nutq og'zaki va yozma ravishda bo'lishi ham mumkin. Nutqning bu ikkala ko'rinishi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, bularning birini egallash ikkinchisiga bog'liq. Lekin, ba'zan shunday ham bo'ladiki, og'zaki nutqni yaxshi o'zlashtira olmagan odam o'z fikrini yozma nutqda yaxshi bayon etishi va, aksincha, yozma nutqi yaxshi rivojlanmagan odam yaxshi gapira olmasligi ham mumkin.

O'qituvchi uchun nutqning ikkala turini bilish, ayniqsa, og'zaki nutqni yaxshi egallashi zarur. Nutq monolog (o'qituvchida bu ma'ruza va himoya ko'rinishida bo'ladi) va dialogik (bu ikki shaxsning o'zaro suhbatidan iborat bo'ladi), turlari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Pedagog o'z tajribasida tashqi nutqning ikkala turidan ham foydalanadi.

O'qituvchining nutqi o'quvchilarga nimani o'rgatmoqchiligiga qarab turli xarakterga ega bo'lishi mumkin va boshqa nutqlar kabi tuzilaveradi. Lekin faqat pedagogik nutqqagina xos bo'lgan spesifik belgilarni ham ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining nutqi, avvalo, yo'naltirilgan yoki, boshqacha aytganda, undalma nutqdan iboratdir. Bunda gapirilayotgan gapni tinglovchilar qaysi darajada qabul qilayotgani hisobga olinadi. O'qituvchi materialni turli shaklda bayon qilishi mumkin. Masalan, hikoya qilish, ma'ruza va suhbatlar shular jumlasidandir. Lekin sinf bilan doimiy aloqada bo'lish zarur.

Har bir odam nutqining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. O'qituvchilarning o'quvchilarga o'quv materiallarini tushuntirishi, ular bilan suhbatlar olib borishiga qarab quyidagi nutq xususiyatlarini ko'rsatish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilarning nutqi juda ta'sirchan bo'ladi. Bunday o'qituvchilar nutqi his-tuyg'uga sug'orilgan bo'lib, ular o'zlari gapirayotgan gaplardan o'zlari ta'sirlanadi, ana shundagina o'quvchilarga ham muayyan kayfiyatini yuqtiradilar.

O'qituvchining nutqi muayyan mazmuni natijasida bolalarning his-

tuyg'ularini uyg'otibgina qolmay, balki uni dramalashtirish, to'g'ri ifodalash, so'zlarni aniq, burro talaffuz etish tufayli ham ta'sirchan bo'ladi.

Boshqa o'qituvchilarda esa nutq ongga ohista, ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilingan holda, daliliy va mantiqiy bo'ladi. Bunda o'ziga xos nutq bilan hikoya qilgan o'qituvchilar ilmiy masalalarni qanday hal qilish va o'quvchilarni bunday aqliy ishlariga qanday jalb etishni rejalashtiradilar. Bunday nutqni «diskursiv», ya'ni mulohazali nutq deyiladi.

Nihoyat yana bir xil o'qituvchilar borki, ularning nutqlari emosional hamda diskursiv emas, ammo o'quvchilar ularning nutqini yaxshi o'zlashtiradilar. Bunday nutqlarda zo'r ishonch kuchi yangraydi, gapirilayotgan gapga chuqur ishonch paydo qiluvchi kishining irodasi borligi sezilib turadi, o'z o'quvchilarida ixtiyorsiz ishonch hosil etadi.

O'qituvchi o'z nutqining mukammal bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilishi va bunday nutq uning ishida ishonchli qurol bo'lib xizmat qilishi lozim. Pedagogik nutq qanday talablarga javob berishi kerak?

Ta'lim-tarbiya ishlarida pedagog nutqi uchun xarakterli bo'lgan sifatlarni ikki gruppaga bo'lish mumkin: nutqning turliligini ta'minlovchi sifatlardan va ta'lim berish, tarbiyalash vositasi tufayli uni amalga oshiruvchi sifatlardan. Birinchi gruppadagi pedagogik nutq sifatiga nutq leksikasi, uslub fonetikasi, talaffuz etilishi, so'zlardagi urg'u jummalarning benuqson bo'lishi, shevachilik, arxaizmdan qochish, nutqni buruvchi ortiqcha so'zlarni ishlatmaslik kiradi. Har bir o'qituvchining nutqi shunday bo'lishi lozim.

Ammo nutqi noto'g'ri o'qituvchilar ham uchray qoladi. Bu kamchiliklar ko'pincha bilimsizlikdan emas, balki ehtiyotsizlik, ba'zan maktabda dars berayotganda o'z nutqi ustidan yetarli nazorat qilmasligidan va maktabdan tashqari joyda madaniyati kam kishilar orasida ularga ixtiyorsiz taqlid qilish tufayli sodir bo'ladi.

Turli odatlar nutq sifatiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham boshqalarga qaraganda, o'qituvchi ko'proq o'zini, ayniqsa yashab turgan yerida gap orasida noto'g'ri so'z, jumla ishlatilganda o'zining nutqini ham kuzatib borishi lozim.

To'g'ri (grammatika qoidalariga muvofiq) gapirish mumkin, biroq, shunday bo'lsa ham, nutq chiroyli chiqmaydi, «g'aliz» bo'ladi. Silliqlik, ravon, to'xtalmay va keraksiz to'xtalishlarsiz gapirilgan gapni, kerakli so'zlarni tez topa bilganlar gapini eshitish yoqimli.

Zarur iboralarni tez tanlay olish so'z zahirasiga, fikrlash jarayonlarining tezligiga, gapiriladigan materialni yaxshi bilishiga, topqirlikka, kishining shu paytdagi umumiy holatiga va boshqa ko'pgina sabablarga bog'liqdir.

O'z nutqini qulay va to'g'ri tuza bilishda badiiy adabiyotni o'qib turish ayniqsa katta ahamiyatga ega. Kitob o'qiganda kishidagi lug'at boyligi ko'payadi, fikrning obrazlilik ortadi, nutq ravshan, chiroyli va odobli bo'ladi hamda grammatik jihatdan yaxshilanadi.

Tinglovchilarga tegishli ta'sir ko'rsatadigan pedagogik xususiyatlar (ikkinchi gruppaga) nutq sifatiga taalluqlidir. Bunga dastavval nutqning mazmundorligi, shuningdek, uning ravshan, yengil bo'lishi, o'quv materialini tushunarli qilib berishi kiradi. Bir hil ilmiy qoidani ikki o'qituvchi boshqa-boshqa bayon etishi mumkin. Birining aytganini o'quvchilar yengil va tez

anglab oladilar, ikkinchisiniki esa ular uchun tushunarli bo'lmaydi.

Bu yerda bayon qilish bir tekis sistemada bo'lishi, materialni izchillik bilan tushuntirishi, ya'ni oldingi o'tilgan materialga asoslanishi, yangisini material asosida o'tishi, qiyinchiliklarni asta-sekin tugata borishi ham katta ahamiyatga ega.

Nutqda murakkab jumlar va notanish qiyin terminlar bo'lmasa, u ravshan hamda tushunarli bo'ladi. Qisqa jumlar bayon etiladigan murakkab materiallarni tez tushunib olishga yordam beradi.

O'qituvchi nutqining sodda bo'lishi uni tor mazmunga aylantirib yubormasligi kerak. Uning sun'iy murakkablashib ketishidan, sohta bilimga aylanib ketishidan qochish lozim. Nomzodlik dissertasiyasini yoqlab, sinfda «olim»lik iboralari bilan ish boshlagan o'qituvchilar ham yo'q emas.

Ammo nutq turlaridan eng yomoni pand - nasihat usuli hisoblanadi, ayniqsa, buni o'quvchilar va o'smirlar yoqtirmaydi. Holbuki ko'pchilik o'qituvchilar pedagogik ishdan nasihat juda zarur, deb hisoblaydilar. Bunday pedagoglar pand-nasihatlarining bolaga hech qanday yaxshi fikr, uning aqli va hissiyotiga hech qanday ozuqa bermasligini unutib qo'yadilar.

O'qituvchi, albatta, bolalarni koyiydi, ba'zan esa xayfsan ham beradi. Biroq nasihatgo'ylik qilish, ya'ni o'zini uzoq va jonga tegadigan pand-nasihatlar qilishdan qochish lozim. O'quv materiallarini bayon etish va tarbiyaviy suhbatlar imkoniyat boricha jonli o'tishi lozim.

Shu o'rinda notiq'larga berilgan qo'yidagi maslahatlarni keltirib o'tish mumkin.

1. Ma'ruzaga puxta tayyorlanish kerak.

Ma'ruzaga taalluqli bevosita yoki boshqa muhim va qiziqarli materiallarni to'plash lozim,

2. Ovozni fikrga bog'lab o'zgartirish, uni ko'tarish va pastlatish lozim. Bunday ovoz diqqatni o'ziga tortadi.

Og'zaki nutqning ayrim qismlari orasida pauza qilishning ahamiyatini ham unutmaslik kerak.

3. Gapirayotganda qo'l-gavdani harakatlantirish nutqni jonlantiradi, biroq bundan ehtiyotlik bilan foydalanish lozim.

4. Ma'ruzachidan sabotli bo'lish va har qanday noqulay sharoitda ham o'zini tuta bilish talab qilinadi.

Shovqin bo'lganda kishilarni tinch o'tirishga chaqirib, so'ngra nutqni davom ettirish lozim.

5. Nutq shakli - oddiy, tushunarli bo'lsin, ko'rgazmali taqqoslash, o'xshatish, ifodalash, epitetlardan foydalanish yaxshi ta'sir etadi.

6. Ma'ruzaning mazmuni auditoriyaga mos bo'lmog'i lozim.

7. Nutq oxirida xulosa qilish, ya'ni uning muqaddimasi bilan bog'lash lozim.

Pedagog nutqi haqida gapirganda, shuni qayd qilish kerakki, u ichki nutqning taraqqiy etishi bilan takomillashadi. Jumladan, og'zaki talaffuzni shakllantirishdan oldin, odatda, miyada yaxshi pishitib olish zarur. Talaffuz etishdan oldin shu onda zarur so'zlarni miyada tanlash jarayoni ham yuz beradi.

Shunday qilib, pedagogik nutq masalasi o'quvchilar bilan gaplasha

bilish hamda o'qituvchining o'z-o'zini tayyorlashda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning natijasida u o'quvchilarda zarur his-tuyg'u hosil qiladi va shu bilan birga, ularga zarur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, jonli fikr o'yg'otadi hamda emosional o'lchovda, ishonarli hamda tushunarli, yorqin gapirishni shakllantiradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik nutqning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogik nutqning shakllari va kommunikativ xususiyatlari,
3. Uqituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
5. O'qituvchi nutqini takomillashtirish yo'llari qanday?

PEDAGOGIK MAHORAT VA MUOMALA MADANIYATI

1. Pedagogik muomala haqida tushuncha.
2. Pedagogik muomala uslublari.
3. Pedagogik muomalada nazokat.

Pedagogik muomala pedagogik mahoratning shakllanishida eng muhim vositalardan biri bo'lib, u pedagogik faoliyatning asosiy quroli hisoblanadi. Qator pedagog va psixolog olimlar bu sohada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi o'laroq muomala o'qituvchi faoliyatida katta ahamiyat kasb etishini isbotlaganlar.

Pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchilarda dars payti va darsdan tashqari vaqtlarda:

- qulay psixologik muhitni yaratish vositasi sifatida;
- o'qituvchi bilan o'quvchilarning bevosita muomalasini pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usuli sifatida ham qo'llashni taqozo etadi.

Muomala - axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish subyektidan (pedagogdan) boshqarish obyektiga (o'quvchilarga) boradi va, aksincha, obyektidan subyektga boradigan vositadir. Pedagog tarbiyalanuvchilar, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida hilma-xil axborotlarga ega bo'ladi. O'z navbatida, pedagog muomala jarayonida tarbiyalanuvchilarga maqsadga qaratilgan hamda har bir shaxs hayotiga kirib boradigan axborotlarni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat hilma-hil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarni qayd etish bilangina kifoyalanmaydi.

Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay shaxsdan sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin.

Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi. Bolalar bilan bevosita muomala pedagog jamoadagi yoki ayrim o'quvchilardagi biron bir voqeaning rivojlanish jarayonida o'rganish zarur bo'lganda ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishdan, ularning tuzilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada takomillashuvi to'g'ri ketayotganligini ma'lum darajada oldindan aytib berish kerak bo'lganda ham zarurdir.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zuhur qilinishidagi farq - u shaxsning o'tmishdagi tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Bunday tajribaning uch jihati bor:

- umuman, hayotiy tajriba;
- pedagogik faoliyat tajribasi;
- muayyan jamoa, o'quvchilar bilan muomalada bo'lish tajribasi.

1. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo'lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamliligi darajasi, pedagog o'zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishiga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

2. Ikkinchi tomondan, pedagog faoliyati kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa sheriklari ahvolini fahmlab olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi.

3. Nihoyat, pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o'zi tez-tez keltirgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvoridan foydalanadi. Pedagogik muomala ijtimoiy-ruhiy jarayon sifatida shaxsning bilishi axborotlar almashish, faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini anglash, rol almashish kabi vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarni bilish va o'rganish yosh mutaxassislar uchun dars paytida va darsdan tashqari paytlarda muomala yagona jarayon ekanligini anglab yetishga imkon yaratadi.

O'qituvchi darslarni rivojlaitirish asosida mashg'ulot materialini o'zlashtirish yo'llarinigina emas, balki o'quvchining o'zini anglashi uchun, his-tuyg'ularini ifodalashi uchun sharoitlar yaratishni ham o'ylaydi. eng avvalo, o'qituvchi yordamga muhtoj o'quvchilar taqdiri haqida qayg'uradi, ular bilan hamkorlik yo'llarini topadi.

Muomalada munosabat va o'zaro harakat deb ataluvchi tomonlarni ko'rsatish mumkin. Bu aysbergning suv osti va suv usti qismlariga o'xshash bo'lib, ko'zga ko'rinuvchi qismida nutqiy va nutqsiz harakatlar seriyasini, ko'zga chalinmaydigan qismida harakatlarga ehtiyojlar motivlari, qiziqishlar, his-tuyg'ularni ko'rsatish mumkinki, bular hammasi bir bo'lib kishini muomalaga undaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, pedagoglardagi bilimlarga nisbatan emosional ijobiy munosabat, ularning o'qishi va xulqidagi ayrim kamchiliklarga nisbatan ishchan vaziyatdagi to'g'ri muomala, xotirjamlik va tenglik asosida munosabat ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Bolalarga nisbatan salbiy munosabat («Senlarning sinfingdan to'ydim», «Donolik

qilasani, lekin to'g'ri yozolmaysan»), o'qituvchi pozitsiyasidagi beqarorlik o'quvchilar o'rtasida ishonchsizlikni tug'diradi, shuningdek, ikkiyuzlamalik, xushomadgo'ylik kabi zararli hislatlarni yuzaga keltiradi. Bularning hammasi butun o'quv-tarbiya jarayonida o'z izini qoldiradi.

Murabbiy hech qachon o'quvchining g'oyasi o'qituvchi shaxsidan ayri emasligini unutmasligi darkor. Shunday qilib, tadqiqotlar o'qituvchining sinf jamoasiga nisbatan munosabatini uchta asosiy uslubga:

- barqaror ijobiy;
- passiv ijobiy;
- beqaror ijobiy uslubga ajratadilar.

A. A. Leontev o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida xulosa chiqarib, «salbiy» va «beqaror» o'qituvchilar o'zlariga nisbatan salbiy munosabatni tug'diradilar, deb ta'kidlaydi.

Mutaxassislarning uqtirishicha, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatlarida uch xil uslub ko'zga tashlanadi.

1. Axborot uslubi.

O'qituvchi barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarini yakka hokimlik asosida tashkil etadi va amalga oshiradi. Harakatning asosiy shakllari - buyruq, ta'kidlash, tavsiyalar, hayfsan berishdan iborat.

2. Demokratik uslub.

Bu rahbarning jamoa fikriga tayanishi asosida quriladi. U o'z faoliyati maqsadini har bir o'quvchi ongiga yetkazishga, hammani birdek maqsadni amalga oshirishga yo'naltiradi. Shu asosda munosabatlarda o'zaro ishonch, hamkorlik tug'iladi, o'quvchilarda rag'bat, o'z kuchiga ishonch, o'z-o'zini boshqarish shakllanadi. Bunday o'qituvchilar vazifalarni teng taqsimlaydi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga oladi. Faollikni rag'batlantirib, tashabbusni rivojlantiradi. Munosabatlarning asosiy usullari - iltimos, maslahat, o'zaro axborot almashishdan iborat bo'ladi.

3. Liberal uslub.

Anarxiya va o'zibo'larchilikka asoslangan munosabatdir. Bunday rahbar jamoa hayotiga aralashmaslikka, betaraflikka asoslanadi, turli masalalarni yuzaki hal etadi, boshqalarning ta'siriga tez beriladi.

Javobgarlikni his qilmaslikka harakat qiladi Bunday o'qituvchilar hech qanday obro'ga ega bo'lmaydi. O'qituvchining bolalar bilan muomalasi muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odobi)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida bolalarni o'qitish va ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritish sharti hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi hislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Birinchi navbatda, perseptiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli xususiyatlar (ulardan eng muhimlari kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol o'ynaydi. O'qituvchiga o'quvchi psixologiyasini uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan holda, umuman,

sinf jamoasining avvaliga xususan mazkur pedagog ahvoliga to'g'ri baho berish imkonini beradi. Nihoyat o'qituvchi shaxsining fikr apmashuvi bilan bog'liq xususiyatlarning uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o'zaro harakatda bo'lgan yuksak rivojlangan ehtiyojini hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishga, bolalar bilan muomala qilishga intilishida, bolalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi o'z navbatida, o'quvchilarni ular muhitidagi o'zaro munosabatlarni, hozirgi daqiqada qanday bo'lsa, huddi shunday idrok etish va ko'rish mahoratini, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida ro'y berayotgan narsalarni ichidan idrok etish mahoratini doimo takomillashtirib borishi lozim.

Pedagogik vaziyatlar tez-tez o'zgarib turadigan sharoitda o'qituvchining vazifasi ro'y bergan vaziyatga tez-tez mo'ljal bo'lib, unga to'g'ri baho bera bilish zarur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri qarorga kelishdan iboratdir.

Agar o'qituvchi bolalarning xatti-harakatlarini faqat to'g'ri idrok etib, baho bera bilsa, ularni vujudga keltirgan sabablarni chuqur ko'ra olsa, o'zida sabot, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik kabi fe'l-atvorni rivojlantira olsagina yuqoridagi vazifani hal etish mumkin. Bu pedagogik nazokatga rioya qilishning zarur shartidir.

Nazokat me'yor yoki odob qoidapariga rioya qilishni bildiradi. Pedagogik nazokat me'yor tuyg'usi va o'z o'quvchilari bilan to'g'ri munosabatga amal qilishdir. Pedagogik nazokatning psixologik asoslari deb, bir qolipdagi fikrlar (barqaror tasavvurlar), ijtimoiy yo'l-yo'riqlar va shaxsiy hislatlarning jamini aytish mumkin. Ular o'qituvchining o'quvchilar bilan muomala sohasidagi hulq-atvorini belgilab beradi. Biroq bu tarkibiy qismlar o'zgarmaydigan narsalar emas. Ular o'qituvchining butun faoliyati mobaynida qaror topib boradi, ya'ni o'qituvchining o'zi ularning tarkibiy qismini ma'lum darajada o'zgartirishga moyil bo'ladi, pedagogik nazokatni ko'proq egallashga intiladi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarini eng qulay shaklga keltirishga harakat qiladi.

Tabiiyki, pedagog batamom aniq va muayyan nuqtai nazarda turgan taqdirdagina uning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarida ishonch vaziyati vujudga kelishi lozim. Bunda gap pedagogning tashqi holati haqida emas, balki jamoadagi ichki holati haqida boradi. U shundan iboratki, pedagog bolalarning kattalar bilan muomalada bo'lishiga yuqorida eslatib o'tilgan ehtiyoj asosida ularning munosabatlari sistemasiga ma'lum darajada kirib borishga muvaffaq bo'ladi. Bunday holda u bolalar muhitida ro'y beradigan va tashqi kuzatishdan yashirin bo'lgan jarayonlarni o'rganish imkoniga ega bo'ladi. U o'z oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun bolalarning o'zini ma'lum darajada jalb qila oladi. Bu narsa suhbatlarda, bolalar bi-lan birga ularning hayotidagi turli voqealarni tahlil qilish, ro'y berayotgan narsalarga ularning qarashlarini, tevarak-atrofdagi narsalarga beradigan bahosini aniqlab olishi mumkinligida ko'rinadi.

Agar bolalar bilan o'qituvchi o'rtasida ishonch munosabatlari o'rnatilgan bo'lsa, ular hayotining og'ir damlarida uning huzuriga yordam so'rab keladilar. O'z quvonchlarini u bilan baham ko'radilar. Nihoyat ishonch munosabatlari pedagogning bolalarni turli vaziyatlarda, ya'ni ba'zi hollarda anglab

bo'lmaydigan vaziyatlarda ko'rish imkonini beradi.

Masalan, bolalar bilan shunday vaziyatlarda muomalada bo'lish juda muhimki, bunda ularning xulq-atvorini maktab sharoitidagidan boshqacha andozada boshqaradi. Bunda pedagog o'quvchilar bilan norasmiy sharoitda muomala qilish uchun har doim o'zining qanday yo'l tutishini aniqlab olishi zarur.

O'quvchining o'z o'quvchilarini, ularning fe'l-atvori, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini, turli voqealarga, muomalalarga va hokazolarga munosabatlarni doimo o'rganib va bilib borishga intilishi muhimdir. O'qituvchi bolalarni qanchalik yaxshi bilib olsa, unda bolalar bilan munosabatlarda xushmuomala bo'lish imkoniyatlari shu qadar ko'proq bo'ladi. Lekin o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan yaqinroq bo'lishga harakat qilar ekan, ba'zan tegishli hollarda o'zi yeshitmasligi lozim bo'lgan narsalarni eshitmasdan o'tib ketishi lozim. Bunga sabab eshitish odobsizlik bo'lishi mumkinligi yoki vaziyat noaniq bo'lib turganda, eshitish darhol aniqlik kiritishni taqozo qilishidadir.

O'quvchilar bilan o'z munosabatlarini, muomalasini baqiriq va maydachuyda narsalarga aralashishga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishga o'rganishi muhimdir. Nihoyat, ba'zan biror narsani tushunmay qolish ham foydali bo'ladi.

O'qituvchining muhim ijtimoiy yo'l-yo'riqlaridan biri dilkashlikdir. An'anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi. Bu butunlay qonuniy holdir. Lekin, bunday yondashuv bir tomonlamadir. U dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xusu-siyatlarigina bo'lib qolmay, shu bilan birga, odamning u yoki bu vaziyatlardagi muayyan xulq-atvori hamdir, ya'ni ijtimoiy yo'l-yo'rigidir.

O'quvchilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim sosial yo'l-yo'riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O'qituvchida ularning mavjudligi uning pedagogik nazokatga rioya qilishning zamini va sharti ham hisoblanadi.

Muomala ijtimoiy jarayon bo'lib, u jamiyatda yosh avlodning shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha sohalarga kirib boradi. Bu fikr o'quvchilar muomalasiga nisbatan ham to'g'ridir, chunki uyushgan jamoalarga yoki stixiyali guruxlarga dastavval ular doirasida u yoki bu amaliy faoliyatni (hordiq chiqarish va ma'naviy faoliyatni ham kiritganda) yo'lga qo'yish maqsadi bilangina birlashib, ular bu guruhlarda muomalaga kirishadilar, uning pirovard maqsadi ular uchun sirdan qaraganda muomalaning o'zi maydonga chiqadi, aslida esa o'z hayotiy yo'lining aniq bir bo'lagida hayot ma'nosini topishdir.

O'quvchilar muomalasining mazmuni, tomonlari ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi o'quvchilar uchun muomalaning o'ziga xos hissiy-ma'naviy g'oyasi xosdir. Muomalaning asosiy g'oyasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki, u har bir yosh bosqichidagi o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatini belgilab beradigan yetakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o'z ichiga oladi. Umuman olganda, o'quvchilar muomalasining mazmuni turmushning turli sohasini, hayotning voqeiy qatlamini, g'oyaviy ahloqiy muomalalari va hissiy

tomonini qamrab oladi. Yoshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o'zaro nisbati turlichadir. Har bir yosh bosqichidagi muomalaning asosiy g'oyasi o'quvchilar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining u yoki bu tomoni uchun bo'lishini belgilab beradi va asosan, uning xilma-xil bo'lishini cheklamay, bo'lgan rejani tashkil etadi.

Natijada jamoa faoliyatidagi muomala o'quvchilar o'rtasida, ular bilan pedagoglar o'rtasida ham samarali bo'lib boradi. Muomala jarayonida muayyan normalar vujudga keladi va qaror topadi.

Ular jamoadagi rollararo muomalani ham, shaxslararo muomalani ham tartibga solib turadi. O'quvchilarning ijodkorligi va faoliyatchanligi ular muomalasining mazmuniga muhim ta'sir ko'rsatadi, yetarli darajada axborotlarga boy bo'ladi. O'quvchilarning yoshiga mos keladigan ijtimoiy - siyosiy, ilmiy-texnik, falsafiy - ahloqiy va boshqa o'ziga xos axborotlar ularning diqqat markazida bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik muomala deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik muomalaning asosiy vazifalari qaysilar?
3. O'qituvchi muomala uslublarini sanab bering.
4. O'qituvchi muomala subyekti deganda nimani tushunasiz?

O'QITTUVCHINING DARSNI TASHKIL ETISHDAGI MAHORATI

1. Dars pedagogik faoliyatning asosi ekanligi.
2. Novator pedagoglarning asosiy g'oyalari.
3. Mahoratli o'qituvchining ta'lim vositalari
4. Mahoratli o'qituvchining dars ishlanmasi.
5. Darsni tashkil etishdagi asosiy talablar.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun har bir o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodiylik, mustaqil fikrlay olish, yechimlarning yangi, andozasiz yondashuvlarni talab qiladi. Maktabdagi dars pedagogik ijodkorlikning bosh plasdarmi hisoblanadi. Darsda o'qituvchining asosiy ehtiyoji: uzatish, berish, o'rgatish amalga oshiriladi. Yosh avlodga o'z bilim va tajribalarini uzatish jarayonida o'qituvchi o'z ijodkorligini namoyon qiladi.

Dars ishlarida an'anaviy metodika bo'yicha ko'plab kamchiliklar haligacha yo'qolgani yo'q. Masalan, dars o'tish jarayonida ma'nosini anglamay, yod olish elementlari haligacha saqlangan. Ko'pchilik o'qituvchilar hozirgi zamon iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotni yorita borib, yetilib qolgan muammolarni tahlil qilishga e'tibor berishmaydi, bapki o'quvchida materialning eng muhim joylarini yodlab olishni talab etadilar.

Bunday dars berishdan qochish kerak. O'quv jarayonini tashkil etishga yangicha sifat yondashuvi kerak. Shuning uchun maktabdagi formapizmni bartaraf etishga qaratilgan yangi g'oyalar, konstruktiv holatlar pedagogik jamoatchilik tomonidan katta e'tibor bilan kutib olinmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, pedagogik hamkorlik haqida aytish o'rinli. Bunday pedagogik hamkorlikning mualliflari o'qituvchi-novatorlar V. F. Shatalov, ye. N. Lisenkova, P. I. Volkov, M. P. Shetinin va boshqalar haqida

gapirish mumkin. Pedagogik hamkorlik metodikasiga tayanib ishlansa, ancha yengil bo'ladi. Bu yerda o'qituvchi hotirjam, bolalar ham xotirjam, o'zaro ishonch, ularga yengil, o'qituvchi ham xursand. Quyida o'qituvchi-novatorlarning pedagogik hamkorlikka asoslangan ijodiy laboratoriyalari ishi bilan tanishimiz.

O'quvchilar bilan munosabat. O'qituvchi oldida o'quvchilarni ta'limning umumiy mehnatiga jalb etishdek muhim vazifa tu-radi. Pedagogik hamkorlik oldingi pedagogikadan, bolalarni o'qishga tortishda o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi mehnati asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi. O'quvchilar bilan munosabatda novatorlik yondashuvining mohiyati shundaki, ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi ta'lim tizimida adekvativ o'zgarishlarni talab etadi. V. I. Juravlevning ta'kidlashicha, hamkorlik pedagogikasi nafaqat munosabatlar, balki bilish operasiyasining tuzilishini, bilimlarni jamoa bo'lib egallash va mustaqil bo'lib yakka tartibda ishlashni (eng yaxshi sherik bo'lish uchun) ham talab etadi.

Ixtiyoriy ta'lim olish. Hamkorlik pedagogikasining bu prinsipi o'quvchida qo'rqish hissini yo'qotish, erkin bo'lish, o'ziga ishonch uyg'otish, unda to'laqonli ijodiy ishlashga qobil insonni ko'rish, V.A.Suxomlinskiy so'zi bilan aytganda, muvaffaqiyatdan yuzaga kelgan ko'tarinkilik bo'lsa, o'sha yerda o'qishga qiziqish bo'ladi.

Qiyin maqsad g'oyasi. Tajribani o'tkazuvchi o'qituvchilarning yozishicha, ularning ishlari an'anaviy darsdan shunisi bilan farq qiladiki, ular bolalar bilan hamkorlik g'oyasini quvvatlab turadi, bolalar oldiga ko'proq murakkab maqsadlarni qo'yadi, ularning o'ta murakkabligiga e'tiborni qaratadi va ushbu maqsad albatta amalga oshiriladi, bu o'rinda mavzu yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak. Mazkur holatda o'quvchilarni maqsadning o'zigina emas, balki qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan qat'iy ishonch ham birlashtiradi.

Tayanch g'oyasi. O'qituvchi - novatorlar predmet-so'z axborot-lariga turli-tuman tayanch signallarini kiritadi. Chunki bular xotirani, mantiqni, xayolni, tafakkurni algoritmik ko'rinishlarini - rivojlantirish vositasi hisoblanadi. V.F.Shatalov darsda tayanch signallaridan unumli foydalanadi.

Erkin tanlash g'oyasi. O'quvchilar ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng oddiy yo'li hisoblanadi. Erkin tanlash maktab o'quvchilari shaxsidagi ayrim sifatlar notekis rivojlanishining oldini olish imkoniyatlarini beradi. Erkin tanlash g'oyasiga misol: V.F.Shatalov o'quvchilar ixtiyoriga juda ko'plab misollar beradi va bolalar o'z ixtiyorlari bilan xohlagan misolni tanlab oladi.

S.N.Lisenkovada o'qituvchi doskaga qanday qiyin so'zlar yozishini bolalarning o'zlari tanlaydi. I. P. Volkov o'quvchilarga faqat mavzu beradi, o'quvchilar esa qanday materialdan nima tayyorlash mumkinligini aytadilar.

Ilgarilab ketish g'oyasi. Bu g'oya S.N.Lisenkova, V.F.Shatalov va boshqa o'qituvchilarda yaxshi hal etilgan. An'anaviy tarzda o'qituvchi darsda o'tgan materialni qaytarib, yangisini bayon etar ekan, u faqat «kechagi» va «bugungi»ni bilar edi. Hozirgi zamon darsida ilg'or o'qituvchilar, masalan, S.N.Lisenkova misolida, darsning ma'lum vaqtini keyinchalik o'qitilgan materialni o'zlashtirishga ajratadi.

Yirik bloklar g'oyasi. Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, agar materiallar yiriklashtirilib, yagona blokka birlashtirilsa, o'quvchiga tushadigan og'irlikni

keskin kamaytirish hisobiga o'rganiladigan material hajmini ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Ijodkor novator-o'qituvchilar darslikdagi 3-4 paragrafdagi tekstlarini bitta darsda o'rganishni ma'qul ko'radilar.

Darsga turlicha shakl berish g'oyasi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarda dars o'rganilayotgan predmet shakliga javob beradi. Masalan: V.F.Shatalovning matematika darsida teoremani isbotlay borib, ortiqcha bironta so'z ishlatmaydi. Matematika o'qituvchisining hikoyasi juda aniq bo'lishi kerak. I.P.Volkovning ijodkorlik (mehnat) darsida o'qituvchilarning shovqin qilishiga yo'l qo'yiladi. O'qituvchilar unga ko'plab savollar bilan murojaat qilishadi. Ye. N. Ilin badiiy asarni tahlil eta borib, tahlil badiiy shaklda bo'lishiga harakat qiladi.

O'z-o'zini tahlil etish g'oyasi. Ilg'or o'qituvchilar bolalar o'qishining dastlabki davridan boshlab individual va jamoa bo'lib o'z-o'zini tahlil etishga o'rgatib boradi. Sh.A.Amanashvili kichik yoshdagi bolalarni baho berish va muhokama yuritishga o'rgatib boradi. Uning o'qituvchilari dars vaqtida o'z o'rtoqlarining ishlarini tekshirib, baholab, bir-birlarining yozma ishlariga taqriz yozishga o'rganib boradilar.

Sinfning intellektual asosi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning sinflarida bilimga bo'lgan intilish, yuqori maqsadlarga erishish doimo hukm suradi. Sinfning umumiy maqsadlari va boyliklariga uning intellektual fondi (asosi) kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar qiyinchiliklarni yengishga, aqliy zo'riqishdan qo'rqmaslikka, yevristik quvonchni ko'ra olishga o'rgatadi.

Shaxsiy yondashuv. Ilg'or o'qituvchilar dars o'tish jarayonida, har bir o'qituvchi o'z shaxsini his etib turishiga o'rgatadi, o'qituvchining o'ziga e'tibor berayotganini sezib turadi. Bu, asosan, har bir o'qituvchining dars davomida o'z mehnatiga berilayotgan bahoni olib turishi bilan xarakterlanadi. Har bir o'qituvchi o'ziga vazifa tanlaydi. Hech kim undan qobiliyatsiz deb gumonsiramaydi. Sinfda hamma har tomonlama himoyalangan bo'ladi.

Maktab amaliyoti va pedagogika asosli ravishda tasdiqlaydiki, dars o'qituvchining butun fikr va harakatlari doimo qaytarilib turadigan va aylanib turadigan markaz hisoblanadi. Dars pedagogik jarayon zanjirida shunday halqaki, M.N.Skatkin so'zi bilan aytganda tomchida quyosh aks yetganidek, unda barcha tomonlar aks etadi. «Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan». (Совершенствование процесса обучения. М. 1971. 149 стр.).

Tarbiyalanuvchi shaxsini yaxlit shakllantirish nuqtai nazaridan har qanday darsning foydali koeffisientini aniqlash yuzasidan ma'lum bir mezonni topish qiyin.

Dars ta'limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktabdagi ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o'qituvchilarni o'zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyati davomida 25 mingdan kam bo'lmagan dars beradi. Qaysi o'qituvchi darsning mazmunli va qiziqarli bo'lishini xohlamaydi? Kim mohir o'qituvchi bo'lishni xohlamaydi?

Buning uchun uzoq yil ishlagan o'qituvchi bo'lish yetarli emas. Dars mustaqil va mas'uliyatli ijodiy ish sifatida o'qituvchidan rivojlanuvchi ijodiy

pedagogik fikrlashni, pedagogik mahoratni egallashni talab etadi.

Biz bu yerda pedagogika kursini o'rganish jarayonida aytilgan gaplarni qaytarishni maqsad qilib, qo'ymoqchi emasmiz. Faqat hozirgi zamon yetuk darslarining bo'sh darslardan farqini, mohir pedagoglarning tayyorgarlik tizimi va darsni o'tishining asosiy, muhim texnologik tomonlarini ko'rib o'tamiz.

Darsning texnologik tomonlari.

1. Ta'lim vositalari. O'qituvchining muvaffaqiyati uning, birinchi navbatda, g'oyaviy, nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Darsga tayyorgarlik shu fan bo'yicha darslik, psixologik-pedagogik va uslubiy xarakterdagi kitoblar o'qishdan, uslubiy jurnallar, qo'shimcha adabiyotlar, gazeta va turli materiallarni o'qishdan iborat bo'lishi kerak. Bibliografik kartochkalar, boshqa o'qituvchilarning konspektlari, rejalari, dars loyihalari, turli tahlillar va boshqa manbalar ham zarur. Shuningdek, yana turli o'quv fanlari, diafilmlar, diapozitiv, texnik vositalardan ham foydalanish muhimdir. Shu mavzu (darsga oid) bo'yicha turli ilmiy manbalardan, qonun va qarorlardan olingan sitatalar, tezislar, fikrlar keltirilsa ham maqsadga muvofiqdir.

Shuni hisobga olish kerakki, barcha o'qituvchilar uchun bir xilda bo'lgan ta'lim vositalari bo'lishi mumkin emas. Uning turli-tumanligi o'qituvchi fanning o'ziga xosligi bilan, uning imkoniyatlari, ehtiyoji, intellektual faolligi, yangilikni his etishi, pedagogik bilimga chanqoqligi va b. q. bilan belgilanadi.

2. Dars materiali mazmuning tahlili. Darsning yaratilishi - bu fikrlarning paydo bo'lishidir. U bir nechta elementlardan tashkil topgan. Bulardan eng muhimi davlat programmasi tomonidan belgilab qo'yilgan materialdir. Tajribali o'qituvchilar o'quv programmalarining asosiy yo'nalishini, ularning har bir bo'lagini juda yaxshi biladi. Bunga maqsad, vazifa va programmaning tuzilishi kiradi. Yaxshi o'qituvchini doimo mavzuga oid materialni shu vaqt uchun qanday o'tish kerak degan masala qiziqtirib keladi (mavzu bir necha bor oldin o'tilgan bo'lsa ham). Bu esa, bugungi maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirishga qanday ta'sir etadi? Oldingi yildagi darsdan farqli o'laroq bu yilgi darsni, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy holatni, ilmiy yangilik, madaniy sohadagi o'zgarishlarni ifodalash haqida jon kuydiradi. Tajribali o'qituvchilar - kompleks tarzda rejalashtirishni o'ylaydi.

Har bir dars o'zida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni belgilaydi:

- tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ma'lum ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy dunyoqarashlarni shakllantirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa insoniy sifatlarni yuzaga keltirishdan iborat;

- ta'limiy maqsad; o'quv programmalarini talablari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

- rivojlantiruvchi maqsad esa: o'rganilayotgan materialdan eng muhimlarini, zarurini ajratib olish, qiyoslash - umumlashtirish, mustaqil fikrlay olish, ta'limda qiyinchiliklarni yenga olishga o'rgatish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

3. Dars ishlamasi.

O'qituvchi shu darsning muallifi va dars uning mahorati, ijodkorligi, motivlariga bog'liq bo'lib, dars badiiy rangga ega bo'lishi zarur. Avvalo,

darsning ijodiy mushohadasini yuzaga keladi va u ishlanib, keyinchalik pedagogik asar sifatida amalga oshiriladi.

Darsning mushohadasini quyidagi elementlardan iborat:

- davlat programmasida belgilangan materialni o'qituvchi tomonidan anglab yetish;
- shu yoshda o'qiyotgan o'quvchilar saviyasini hisobga olgan holda hozirgi zamon g'oyaviy vazifalari bilan shu dars materialini o'rtasidagi munosabatni belgilash;
- o'tiladigan materialning o'qituvchining o'z bilimi, tajribasi va g'oyaviy tayyorgarligi bilan bog'liqligi;
- oldingi o'tilgan materialning bugungisi bilan o'zaro uzviy bog'liqligi;
- o'tiladigan materialning mazkur sinf va shaxs psixikasi bilan bog'liqligi.

Eng yaxshi darsni hozirgi ilg'or va yangi usullarga asoslanmay turib tashkil etish mumkin emas. Shuningdek, fanlar va turli yoshdagi o'quvchilar gruppasining o'ziga xos tomonlari ham hisobga olinishi kerak.

Masalan, M.Abdurasulov, V.F.Tursunov va S.N.Lisenkovalar tajribasi boshlang'ich sinf uchun ma'qul bo'lsa, V. F. Shatalov, N.P.Guziklarning tajribasi tabiiy matematik sikldagi fanlar uchun ma'qul, Ye.N.Ilina, A.Jabborovlarning tajribalari adabiyot fani o'qituvchilari uchun foydali.

Dars mushohadasini ishlab chiqish barobarida o'qituvchi o'quvchilarni darsning subyektiga, uning hammuallifiga aylantirish foydali.

Mushohadali o'ylash - bu dars materialini uchun samarali prinsiplar va vositalarni o'ylab topish, aniq sharoit uchun, ta'limiy, tarbiyaviy vazifalarni shu holat uchun belgilash kam vaqt, ortiqcha urinish qilmay materialni o'quvchiga yetkazishdir. Masalan: darsni suhbat asosida yoki munozara usulida qanday tashkil etish mumkin?

Eng muhimi, darsni ishlashda uslubiy yo'llar tanlash, keyinchalik darsning qolgan komponentlari haqida (vazifalarni tekshirish, mustahkamlash va h. k.) o'ylash kerak.

O'qituvchining o'quvchilar faoliyatini dars jarayonida boshqarish mahorati ko'plab omillarga bog'liq. Shulardan eng muhimi o'z predmetini o'quvchilarga qiziqarli qilib yetkazishdan iborat. Olimlarning takidlashicha, qiziqish shaxsning barcha psixik jarayonlari va funksiyalari, idrok, tasavvuri, diqqati, xarakteri, fikrlashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda o'qishga qiziqish, havasning yuzaga kelishi va rivojlanishida mohir o'qituvchilar quyidagi asosiy holatlarga doimo rioya qiladilar:

- bilimga qiziqishni rivojlantirish, o'rganilayotgan predmetga muhabbat shu vaqtda yuzaga keladiki, agar aqlli o'quvchilarni mustaqil, izlanuvchi xarakterda tashkil etilsa, ta'lim muammoli xarakter kasb etadi;
- boshqa mehnat kabi o'quv mehnati ham turli-tuman bo'lsa, qiziqarli bo'ladi. Bir xildagi ma'lumotlar va bir xildagi ta'sir tizimi tezda zerikish uyg'otadi;
- o'rganilayotgan predmet va ayrim mavzuga qiziqish uyg'otish uchun uning zarurligini, muhimligini maqsadga muvofiqligini tushuntirish zarur yoki uni anglab yetish kerak;
- oldingi o'tilgan materiallar bilan yangi o'rganilayotgan material uzviy bog'lansa, u yanada qiziqarliroq bo'ladi;

- juda yengil yoki juda og'ir materiallar bolalarda qiziqish uyg'otmaydi. O'qish qiyin, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi zarur;
- o'quvchi ishi qanchalik tez tekshirilib, baholanib turilsa, ishlash shunchalik qiziqarli bo'lib boradi;
- o'quv materialining yorqinligi, emosionalligi, o'qituvchi his-tuyg'u bilan materialni bayon etishidagi o'zaro uzviyligi o'quvchilarda shu materialga kuchli qiziqish uyg'otadi;
- ta'sir tizimining xilma-xilligi, kompleksligi va ular-ning frontal differensial individual ishlarda unumli foydalanish o'quvchilarda o'rganilayotgan predmet va materiallarga qiziqishni oshiradi.

4. Darsda ish shakllarining xilma-xilligi. Mohir pedagoglar dars-leksiya, dars-seminarlar, dars-munozaralar, dars-konferensiya, dars-ekskursiya, o'quv kabinetlari tizimida mustaqil ishlar darsi, dars- konkurslarni o'tish va ularni o'tkazish texnikasini yaxshi egallash bilan ularning mahorati ajralib turadi.

a) Muammoli ta'lim. Masalan, birinchi sinf o'quvchilariga tayyor materialni daraxt va boshqa poliz yekinlari misolida berish mumkin (Daraxtda yagona katta ustun bo'lib, undan bir nechta shohchalar, barglar o'sib chiqadi, poliz yekinlarida yagona katta ustun yo'q va yerdan birdaniga bir necha barglar o'sib chiqishi mumkin), Lekin ular oldiga muammoli holatni qo'yish mumkin. Birinchidan bu holatda bolalar materialni eslab qoladi, ikkinchidan, mustaqil yechimni izlaydi.

b) Ijodiy xarakterdagi masalalar. Bu pedagog va o'quvchining haqiqatni birgalikda izlash mashg'uloti, madaniy fikrlash laboratoriyasi. Bunday darsda har bir o'quvchida bilimga qiziqish, yangilikka intilishga ehtiyoj seziladi. O'zlari savol berib unga javob axtaradilar. An'anaviy darslarda o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar darslik bo'yicha javob beradilar, Shu bilan haqiqat topilgan, ular darslik va qo'llanmalarda mavjud degan tasavvur hosil bo'ladi. Yana nimanı istash kerak? Nima uchun istash kerak? Haqiqat topilgan, faqat uni qabul qilish zarur degan tushuncha yuzaga keladi. Bunday holat darsni zerikarli, ehtirossiz, o'lik bir narsaga aylantiradi. Shuning uchun beriladigan savollar oldindan o'ylab, sistemalashtirilgan, bolalarni o'ylantiradigan fikrlarni to'qnashtiradigan, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga turtki beradigan, mustaqil fikr yuritishga undaydigan, yangilikni o'zi izlab topishga turtki beradigan aniq, qisqa savol berishga alohida e'tiborni qaratmoq kerak. Mantiqiy fikr yuritishga undaydigan savollar bolalarni keyinchalik ijodiy fikr laboratoriyasini kengaytirishga yordam beradi.

d) Darsda mustaqil ishlar. Mohir o'qituvchilar yosh o'qituvchilarga nisbatan kam kuch, vaqt sarf qilgan holda o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qiladi va bu borada yaxshi natijalarga erishadilar. Buning uchun ular quyidagi qoidaga amal qiladilar agar mavjud mavzu ish sharoit uchun kuchi yetadigan bo'lsa, u holda o'quvchilarga shu materialni mustaqil o'rganishini tashkil etish, agar qiyin bo'lsa, u holda, o'qituvchi o'zi materialni bayon qilib berishi kerak.

Mustaqil ishlashning juda ko'plab ko'rinishlari - o'qituvchi o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlashda qo'llaydi. Birinchi navbatda, bu ishlar qaytarish xarakteriga ega. Jumladan, oldingi o'tilgan materiallarni qo'llash bo'yicha mashq va masalalar, o'qituvchi topshirig'i bo'yicha darslik

materiallarini tanlab o'qitish, oldingi o'tilgan materiallarni umumlashtirish uchun turli sxema va tablisa tuzish zarur. Mustaqil ishlar yangi materialni samarali o'zlashtirish maqsadida ham foydalaniladi.

Tajribali o'qituvchilar, o'quvchilarni kitob bilan ishlash, konspekt olish texnikasi, ijodiy ishlar tashkil etish va bajarish metodikasi bilan ham tushuntirib boradi.

Masalan: V. F. Shatalov, o'quvchilar tomonidan mustaqil tarzda har bir kashfiyotni juda yuqori baholaydi va har tomonlama izohlaydi. Ayniqsa, o'quvchilar uchun mustaqil tahlil, umumlashtirish va xulosalar asoslarini egallashga yordam bergan ijodiy va yarimijodiy xarakterdagi mustaqil ishlar o'quvchilar uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. O'quvchilar kitob bilan ishlash jarayonida tajribali o'qituvchilar tez-tez o'qiydiganni tormozlamaydi, sekin o'qiydiganni tezlashtirmaydi.

To'g'ri javob bergan o'quvchiga darrov boshqa savolni beradi, xatoga yo'l qo'ygani darrov qo'shimcha topshiriq beradi.

e) Darsda qayta aloqani amalga oshirish.

O'quvchilar tomonidan bilish jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun o'qituvchi qayta aloqani oqilona tashkil eta bilishi kerak. O'qituvchilariga ushbu ko'nikmalar, kuzatuvchanlik, hayolning yaxshi rivojlanishidan, har bir pedagog o'quvchilar bilan muloqotda o'ylab qadamini qo'yishi kerak.

Psixologlardan A.A.Bodalov, S.V.Kondratyeva a'lochi, o'rtacha, yomon o'zlashiradigan o'quvchilar to'g'risidagi mohir pedagoglarning turli tiplarga ajratish to'g'risidagi tasavvuri o'z vazifasini formal bajaradigan o'qituvchilardan ancha boy hisoblanadi. eng yaxshi o'qituvchilar o'quvchilarda o'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi sabablarni dars jarayonida quyidagicha tiplarga alohida ajratib olganlar:

a) bilish sohasining bo'sh rivojlanganligi (e'tiborsizlik, xotiraning yomonligi, fikrlash operasiyalarining shakllanmaganligi, bilimdagi kamchilik);

b) hissiy-irodaviy sohalardagi kamchilik (kuchli tormozlanish, ortiqcha hayajonlanish, chidamlilikning yo'qligi va boshqalar);

d) integral shaxsiy sifatlarning bo'sh namoyon bo'lishi (bilishga qiziqish, mustaqillik, mas'uliyat va boshqalar);

e) bir vaqtning o'zida bir nechta kamchiliklar mavjudligi. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarni faqat ikki tipga ajratadi: dangasa, aqlsiz. Qayta aloqani o'rnatishning samarali shartlaridan biri tarbiyachi psixologiyasiga chuqur kirib borishdir.

Shu o'rinda A.A.Bodolevning ta'kidlashicha, o'qituvchi sinf o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi, o'quvchi bo'lib ko'rishi va shu tariqa pedagogik holatni yechishi kerak.

Masalan, darsda o'quvchilar turli-tuman mustaqil va nazorat ishlarni alohida toza varaqda bajaryapti. Shu varaqlar u yoki bu mashqlarni bajarishda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi uzviy aloqani boglovchidir. Mustaqil ishni bajarish ketyapti. Duskada 5 ta mashq har bir o'quvchi o'zi xohlagan mashqni bajarishdan boshlaydi bir o'quvchi ma'lum topshiriqni bajarib bo'ldi, lekin u to'g'riligini yonidagidan so'rash ta'qiqlangan. Shunda darrov o'qituvchiga ko'rsatadi, to'g'ri bo'lsa, kulib davom ettirishni aytadi, boshqalarga halaqit ham bermadi.

Ish chala, noto'g'ri bo'lsachi? U holda darrov tuzatish yo'lini ko'rsatib beriladi va h. k.

5. O'qituvchi pedagogik mehnatining madaniyati. Biz yuqorida aytganimizdek, o'qituvchi uchun pedagogik mahoratni egallash nafaqat o'z predmetining har tomonlama bilishi bilan, shuningdek, odamlarni siyosat, fan, san'at, texnika, sport sohasida nimalar qiziqtirishni ham yaxshi bilmog'i zarur.

a) Darsning psixologik tomonini hisobga olish: O'qituvchilar o'quvchilar xotirasi, diqqati, irodasi, yig'inchoqligi, chidamliligi kabi sifatlarning rivojlanish darajasini doimo sinab turadi. Bunda nimalarga rioya qilish kerak? O'qituvchining bosh vazifasi - o'quvchilarni hamma tomonlama yaxshi bilishi va uni tushunishga intilishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Darsda optimal psixologik rejimga rioya qilish kerak. Qanday qilib? Fikrni yo'naltirishga, ixtiyoriy diqqatni markazlashtirishga halaqit berayotgan har qanday narsani yo'qotish zarur. Shuning uchun o'quvchi yuzi, ko'zi, harakatlaridagi ozgina bo'lsada har bir o'zgarishlarni darrov seza bilish, unga darrov reaksiya berish, ular diqqatini boshqarish, jonlantirish va yo'naltira bilmoq zarur.

Ijodiy darsning asosiy shartlari, qiziqishlarni hisobga olish qobiliyati, fikrlash tezligini, tayyorgarlik darajasini, har bir sinf o'quvchilarining xarakter sifatlarini hisobga olishdan iborat.

b) O'qituvchining o'quvchilarga talab qo'yish xarakteri. Oddiy hisob-kitob shuni ko'rsatyaptiki, 45 minut davomida o'qituvchi o'quvchiga o'rtacha 100 ga yaqin talablar qo'yadi. Ko'pmi bu yoki ozmi? Bu o'rinda A.S. Makarenkoning gapini eslash o'rinli «Shaxsga qancha ko'p talab qo'ysang, shuncha marotaba uni hurmat qil». Lekin gap nechta talab qo'yishda emas, boshqa o'qituvchilar qanday talab qo'yayotganini kuzatish bilan xarakterli. Shuningdek talabalar tabiatini bilish ularning tavsifini tahlil etish kerak.

Bu o'rinda ayrim o'quvchilar harakatlariga baho berish, rag'batlantirish, xulosa qilish ayrim ko'rsatma, kamchiliklarni aytib o'tish orqali ko'plab o'qituvchilar kimga qanday talablar qo'yishni biladilar va bolalar buning oqibatida ma'lum tartibdagi talablarga ko'nikib, ma'lum xulqiy tomonlarini shakllantirib boradi. eng muhimi, qo'yiladigan talablar kuchi yetadigan, aniq, ma'lum darajada oxiriga yetkaziladigan talablar bo'lmog'i zarur.

d) Darsda emosional - intellektual holatni yaratish. Dars davomida o'quvchi atrof muhitni bilibgina bormay, balki unga munosabat ham bildiradi. Ba'zi holatlar uni hayajonlantiradi, ba'zilariga befarq, ba'zilariga o'zi aralashadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, ijobiy yemosiya inson faoliyatining kuchli kuzatuvchisi va ilhomlantiruvchisidir. Darsning emosional-intellektual holati bir qator usullar bilan quvvatlab turiladi.

Birinchidan, o'rganilayotgan mazmunda qiziqarli axborotlardan foydalanish qo'shimcha manbalarga murojaat qilish tufayli. Masalan, tarix darsida shunday misol keltiring: yer yuzida bo'lib o'tgan 14520 dan ortiq urushda 3 mlrd. 640 million odam o'ldi. Agar shu urushlar xarajatlari hisoblab chiqilsa, 8 metr qalinlikdagi 10 km oltin kamar bilan yer ekvatorini o'rab chiqish mumkin.

Ikkinchidan, darsda turli kashfiyotlar, ma'lum olimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, irodaviy, xarakterli odamlar hayotidan hikoyalar aytish mumkin.

Uchinchidan, bolalar o'zlarini qiziqtirgan ijodiy ishlarga birdaniga jalb etish orqali tasodifiylik, hayron qolish keyingi faoliyat uchun muhimdir.

To'rtinchi, o'quv materialiga o'qituvchining turli ko'rinishdagi emosional munosabati. Boshlovchi o'qituvchilar shuni esda tutish kerakki, go'zallik, obrazlilik, o'rganilayotgan materialning hayajonlilik o'quvchilarga o'tadi.

e) Yumor hissi: tadqiqotchilar tajribali o'qituvchilarning xususiyatlari ichida ularning quvnoq xarakteriga alohida e'tibor berishadi. Bunday fazilat butun dars davomida ishchan kayfiyatni saqlashga yordam beradi. Buning uchun usullar ko'p (fizkultminut, sevimli ashulani aytish, hazil-mutoyibali gaplar aytish).

f) Dars tezligi. O'qituvchi uchun dars tezligi nafaqat mehnat muammosi bo'lib qolmay, balki intizom, dars sifati muammosi hamdir. Darsda yuqori tempni ushlab turish uchun uning kuchi yetadigan bo'lishi va, bu o'rinda, o'quvchilarda ma'lum ko'nikmalar shakllanishi zarur. Ba'zi tajribasiz o'qituvchilar vaqtni material sifatiga e'tibor bermay tezligini oshiradilar. Ritmning buzilishi har qanday ishchan holatga, o'quvchilar kayfiyatiga ta'sir etadi.

Ish tezligining eng qulay holatini aniqlash uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- a) darsning ko'pchilikni qoniqtiradigan o'rtacha tezligini to-pish;
- b) o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish;
- d) jamoa va individual ishlashning o'zaro ma'qul bog'liqligini izlab topish;
- e) o'quvchilar faoliyati ko'rinishlarini o'zgartirib va yangilab turish kerak;
- f) vaqtni samarasiz sarf bo'lishini maksimal qisqartirish, tezlikni asta-sekin oshirishga erishish zarur.

Ish tezligi o'qituvchi tomonidan faqat ish vaqtida hal etiladi.

g) Darsda o'z-o'zini nazorat. O'z-o'zini nazorat yosh o'qituvchilar pedagogik qobiliyatini rivojlanishini tezlashtiradi, tajribali o'qituvchilar pedagog mahoratini «sirini» oshkor etadi. O'qituvchi o'z-o'zini tahlil etishga murojaat etib, darsda o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirish kabi kuchli qurolga ega bo'ladi, bu esa o'z o'rnida o'z mehnatidan qoniqish, ma'naviy kuchga ega bo'lish kabi his-tuyg'uni yuzaga keltiradi. Dars tahlilining quyidagi umumlashgan prinsiplariga rioya qilish mumkin:

1. Darsda nima qilish mo'ljallangan edi, aslida nima bo'ldi, qiyoslash zarur.

2. Bilim, ko'nikma va rivojlanish borasida o'quvchilarda o'zgarishlarni oldingi tahlil qilingani bilan qiyoslash.

3. Darsda o'quvchilar chin dildan ishlayotganini hisobga olish zarur.

h) Darsning sifat tomoni. Darsning sifat tomonini aniqlash o'qituvchi uchun mahorat maktabi, mashg'ulotlar tashkil qilishning eng samarali yo'l va usullarini ongli darajada qo'llash sharti hisoblanadi. U darsda nimaga erishdi, nimaga erishaolmadi, sabab qanday, bartaraf etish, yanada rivojlantirish uchun nima qilish kerak?

Dars sifatini an'anaviy sxema bo'yicha aniqlash mumkin: so'rash - tushuntirish - mustahkamlash - uyga vazifa.

Masalan, dars sifatini M. Maxmutov sxemasi bo'yicha didaktik

kategoriyalar va tuzilish elementlari bo'yicha o'tkazish mumkin.

Didaktik kategoriyalar bo'yicha tahlilning vazifalari quyidagilarni aniqlashdan iborat:

1. Dars didaktik prinsiplar va o'quv tarbiya jarayoni talabari javob beradimi?

2. Darsning borishi va natijasi dars talablari va programmaga javob beradimi?

3. Didaktik vazifalar hal etildimi? O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari maqsadi ro'yobga chiqdimi?

4. Butunicha dars tuzilishi qanday edi va tashqi-ichki tuzilishi elementlarining izchilligi qanday?

5. Darsning didaktik vazifalariga o'qituvchi metodlari, ko'rgazmalilik va texnik vositalar to'g'ri keldimi, o'quvchilar yuqori darajada bilishi uchun mustaqil ishlashiga bular yordam berdimi?

6. Ushbu darsda differensiallash va individuallashtirishning xarakterli tomonlari nimalardan iborat bo'ladi?

Dars tahlili tuzilish elementlariga ko'ra quyidagilarni aniqlaydi.

Dolzarblikni sifat jihatdan aniqlash, harakat qilishning yangi tushuncha va usullarini shakllantirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, darsning qaysi elementlari o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini belgilash. Shularning barchasi dars sifatini belgilaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o'qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg'or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o'rin tutadi.

Quyida pedagogika fani bo'yicha tayanch dars ishlanmasidan namuna beriladi.

Fan: Pedagogika.

Mavzu: Barkamol shaxsning mehnat tarbiyasi.

Maqsad: Mehnat tarbiyasi, vazifalari, turlari, bu xaqida buyuk allomalar talimotini, mazmuni, sinfdan tashqari ishlarni tushuntirish.

Ajratilgan vaqt. 2 soat (90 minut)

Mavzuni o'rganish davomida olinadigan bilimlar ro'yxati.

- barkamol shaxs tarbiyasida mehnat tarbiyasining tutgan o'rnini;
- mehnat inson moddiy va ma'naviy hayotining asosi ekanligi;
- mehnat va mehnatsevarlik haqida xalq pedagogikasi va buyuk allomalarning ta'limotlari.
- Mehnat tarbiyasining vazifalari.
- bolalar mehnatning turlari va mehnatga faoliyat ko'rsatishga ijtimoiy qiziqishlarini shakllantirishi.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi mehnat turlarining vujudga keltirishi.
- Maktabga mehnat tarbiyasi mazmuni, tizimi va asosiy tarmoqlari.
- Oilada bola mehnati va uni tashkil etish uslublari.

- Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar orqali mehnat tarbiyasi berish.

Texnologik xarita.

Maqsad			
Tanishuv	Muz yorar	Sehrli tayoqcha	10
Mavzuta kirish	Ma'ruza	Slayd, kadoskop, bo'r	10
Oldingi bilimlarni aniqlash	Aqliy xujum	Doska,bo'r	10
Yangi mavzu bayoni	Muammoli ma'ruza	Slayd, kadoskop, doska, bo'r	15
Kichik guruxlarni shakllantirish		Rangli doirachalar	5
Kichik guruxlarda ishlash	Muxokama	Didaktik material, test	15
Taqdimot	Muxokama	Baholash mezonlari varag'i.	10
Baholash	O'z - o'zini baholash	Doska, bo'r, sovga	5
Umumlashtirish	Munozara		5
Darsga yakun Yasash	Ma'ruza		5
Natija			

7. Kerakli o'quv jihozi, asbob -uskunalar va xom -ashyo. Kodoskop, slayd, plakat, tayanch chizmalari, didaktik materiallari, rangli kartochka, doska. Bo'r, baholash mezonlari varag'i, sehrli tayoqcha.

8. Usul metod: ma'ruza, aqliy hujum, muz yorar, tashrif, ishbilarmonlik o'yini.

9. O'tilgan mavzuni takrorlash uchun topshiriqlar. O'tilgan dars amaliy mashg'ulot barkamol shaxsning estetik tarbiyalashga ko'ra to'garak va ko'rik - tanlov rejasini va shartini ishlab chiqish.

-«Iste'dod» to'garagi ish rejasini tuzish.

- «Tabiat in'omlari» tanlovni shartini ishlab chiqish.


- «Balli qizlar» ko'rik - tanlovi shartini ishlab chiqish.

10. Yangi mavzu yuzasidan topshiriklar.

Barkamol avlod, (shaxs), mustaqil fikrlovchi, erkin shaxs O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir.


Milliy qadriyatlar
Umuminsoniy
Jismoniy yetuk
Aqlan yetuk
Ahloqan pok
Madaniyatli
Ma'rifatli
Mafkuraviy
E'tiqodli
Mehnatsevar
Huquqiy
Insoniylik
Iqtisodiy tejamkor
Ruhiy kamolotli
Estetik yetuk
Vatanparvar
Boynalminal
Intizomli
Fidoiy
Sog'lom

Mehnat



Mehnatning belgilari → maqsad → intilish → natija

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining, moddiy va ma'naviy hayotining asosi.



O'quvchiga topshiriqlar. Mexnat xaqida xalq pedagogikasi. Didaktik

materiallar, tarqatma shaklida.

1. Halol mehnat kishi hayotining mazmuni tashkil qiladi.
 2. Mehnat - mehnatni tagi roxat .
 3. Daryo suvini baxor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.
 4. Bugungi ishni ertaga qo'yma.
 5. Mehnatdan qo'rqma minnatdan qo'rq!
 6. Odamning xusni - mehnatda.
 7. Xazina g'oyibdan emas, mehnatdan.
 8. Oltin o'tdan bilinar, odam mehnatdan.
 9. Odamning xusni mehnatda.
 10. Halol mehnat yaxshi, yaxshi odat, berur senga saodat.
 11. Mehnat qilsang yasharsan, katta - katta osharsan.
 12. Mehnat bizni uch xil illatdan: zerikish, qusur, muxtojlikdan xalos etadi.
 13. Inson mehnat yordamida kamol topadi.
 14. Hayotda hech narsa mashaqqatli mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi.
 15. Ishlamaslik har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi.
- Bu maqollarni mazmunini so'zlab bering!
- Mexnatsevarlik 3 ta tushuncha:
- 1) zarur; 2) qiyin; 3) go'zal;
- O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirmog'imiz zarur:

Ma'naviy poklik	Hayotiy yetuklik	Quntlilik	Tirishqoqlilik	Kasb egallash	Mutaxassis bo'lish	Serhavsallik	Mas'uliyatlilik	Javobgarlilik	Xalollik	Tirishqoqlilik	Raqobatlilik	Muqobillik	Musobaqaviylik	Ishchanlik	Sifatlilik	Ishni do'ndirishlilik	Tadbirkorlik	Xormas - tolmaslik	Ehtiyotkorlik	Ishni havosini olganlik
-----------------	------------------	-----------	----------------	---------------	--------------------	--------------	-----------------	---------------	----------	----------------	--------------	------------	----------------	------------	------------	-----------------------	--------------	--------------------	---------------	-------------------------

Mexnatsevarlik xaqida buyuk allomalar fikrlari.
(tarqatma materiallar).

Bahouddin Naqshband

Abu Nasr Farobiy

Abu Rayxon Beruniy

Abu Ali ibn Sino

Yusuf Xos Xojib, A. Navoiy

M. Bexbudiy

A. Avloniy

I.A. Karimov



Mexnat tarbiyasining vazifalari:

(Plakatda)


Bolalar mehnatining turlari.


Inson o'z qo'li, aqli va kuch – qudrati bilan yaratgan narsalar uning

mehnati mahsulidir.



Umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-9 sinflarida hizmat ko'rsatish mehnati, 1-4 sinflarda mehnat fan sifatida o'qitiladi







Mustaqil O'zbekistonimiz butun jahonga yuz tutmoqda, boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatilmoqda shunday ekan, bu sharoitda mehnatning yangi turlari vujudga kelmoqda.

«BIZNES» - Qonuniy yo'l bilan daromad topish yo'lida biror ish bilan shug'ullanish. Biznesning eng yaqin unsuri tadbirkorlikdir. «Menejer»- boshqaruvchi «Broker» - dallol, makler.

Hozirgi kunda kim aqlli, bilimli, xarakatchan, izlanuvchan, madaniyatli bo'lsa, o'sha xuddi millionlab dollar topgan menejerlar singari ko'pi foyda topib, farovon yashar ekan.

Yalqov, dangasa, ishyoqmaslar, biror bir kasb - xunarni o'rganmaganlar esa, mushkul axvolga tushub qolishlari aniq. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni (1997 yil 29.VIII) ishlab chiqish zamon talabi bo'lib qoldi.



«O‘z o‘lkamizda, yuksak malakali, har jixatdan yetuk kadrlar tayyorlash dasturimizning asosiy sharti bo‘lmog‘i lozim».

I.A. Karimov

«Yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuqori darajadagi umumiy kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga turli vazifalarni yechish qobiliyatiga ega bo‘lgan, jaxon andozalari talablariga mos keladigan barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan».


J. Xusanov

«Ma‘rifat» ro‘znomasi 2001 yil 29 avgust. «Istiqlol kashf etgan ta‘lim turi» maqolasidan.

«Men qiyomatda o‘z ummatlarimniyng ko‘p bo‘lishi bilan sevishni istayman»

Muxammad Payg‘ambarimiz xadislaridan

O‘zbek oilasi bolajonli oila. Mexnat tarbiyasining vazifalarini bajarishda oila muxim rol o‘ynaydi. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq - atvorli, uning a‘zolarining o‘zaro munosabati samimiy bo‘lsa, oila tarbiyasi xam shunchalik samarali



bo'ladi.

Agar bolalar o'z ota - onalarini namuna deb bilib, uyda o'zlariga xizmat ko'rsatishga, oila a'zolariga yordam berishga o'rgangan bo'lsalar, maktabda o'qituvchi ularning o'z - o'ziga xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatini tashkil qilishda ancha yengilliklarga ega bo'ladi.

12. Mustahkamlash. O'qitish bo'yicha ko'rsatmalar

Dars bosqich lari	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi	Texnologiya		
			Metod	Shakl	Vosita
Tayyorlov	Maqsad va natijalarni belgi-lash, mantiqiy struktura va texnologik xarita tuzish. Kichik guruxlarga topshiriq-lar, baxolash mezon-larini tayyorlaydi				
1 chi bosqichga kirish 20 daqiqa	Darsni boshlaydi, O'quvchilar bilan tanishadi, mavzu nomi, maqsad, natija, baxolash mezonla-rini e'lon qiladi, Tanishuv «Muzyorish» uslubini qo'llash.	Mavzu, rejani baxolash mezonlarini, o'ziga belgilab oladi. Xar bir o'quvchi o'zini tanishtiradi.	Ma'ruza	Guruxli	Slaydlar. kodoskop, plakat

O'quvchilari oldingi bilimlarini aniqlash 10 daqiqa	Uquvchilarni oldingi bilimlarini aniqlash uchun savollar beradi, amaliy ishni tekshirib chiqadi	O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar, bajarib kelgan ishni ko'rsatadi.	Aqliy xujum	Guruxli	Doska, bo'r
Asosiy qism. Yangi mavzu bayoni. 15 daqiqa	Yangi mavzuni bayon qilish. Tayanch konspekt asosida	Kerakli ma'lumotni o'zlariga qayd etadi.	Muammoli ma'ruza.	Guruxli	Sllayd, kodoskop, doska, bor
Kichik guruxlarni shakllantirish 5 daqiqa	Yangi mavzuni mustaxkamlash uchun kichik guruxlarni shakllantiradi, topshiriq beradi.	Kichik guruxlarga bo'linadila, topshiriq oladilar.		Kichik guruxlar	Rangli kartochka
Kichik guruxlarda ishlash 15 daqiqa	Kichik guruxlar ishini nazorat qiladi, kerakli maslaxat beradi.	Topshiriqni bajarishda yo'l qo'yilgan xatodarni to'g'rilaydi	muxokama	Kichik guruxlar	Didaktik materiallar
Taqdimot 10 daqiqa	Kichik guruxlarda bajarilgan ishlarni eshitadi, kamchiliklarni tuzatadi.	Bajarilgan ishlarni ximoya qilishadi. Qo'shi-mcha savollarga javob beradi.	muxokama	Kichik guruxlar	Baxolash mezonlari varag'i
Baxolash 5 daqiqa	Kichik guruxlarni berilgan topshiriqlarni bajarilganligini baxolashni eshitadi.	Kichik guruxlar bir - birlarini baxolaydilar	Munozara, o'z- o'zini baxolash	Kichik guruxlar	Doska, bo'r, sovg'a
Umumlashtirish 5 daqiqa	Kichik guruxlar ishlarini umumlashtiradi	Tinglaydilar, savollariga javob beradilar.	Aqliy xujum	Kichik guruxlar	Doska, bo'r
Darsga yakun yasash 5 daqiqa	Darsni yakunlaydi, uyga vazifa beradi.	Tinglaydilar Topshiriqlarni yozib oladilar.	ma'ruza	guruxli	Ma'ruza matn.

13. O'quvchining o'zlashtirishini baholash (test savollari, baholash mezonini ishlab chiqiladi).

Ko'rsatkichlar	Baholash (5 ballik)		
	To'liq	To'liq emas	Ifodalanmagan
Maqsad va natijalar to'g'ri ifodalanipga			
Mazmunliligi, axborotning to'liqligi			
Taqdimot			
Dizayn			

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'quv jarayonida pedagogik hamkorlik nima?
2. Darsda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishning qanday usullari mavjud?
3. Darsda qayta aloqa o'rnatish deganda nima tushuniladi?
4. Darsda hissiy-intellektual holat yaratishni qanday tushuniladi?
5. Darsda o'z-o'zini nazorat deganda nima tushuniladi?

TARBIYACHI MAHORATI

1. Tarbiyachi mahoratining mazmuni.
2. Tarbiyachining asosiy ko'nikmalari.
3. Tarbiyachi mahoratining tuzilishi.

Oliy o'quv yurti bitiruvchilari ko'pgina o'quv jarayonini tashkil etishga yetarli darajada tayyor bo'lganlari holda, maktabda tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyor emasliklarini aytadilar. Haqiqatan ham ko'pchilik o'qituvchilar uchun tarbiyachilik mahorati o'qituvchilik mahoratining shakllanishi jarayoniga nisbatan murakkab hisoblanadi. Buning obyektiv sababi aniq, chunki tarbiya tushunchasi ta'lim tushunchasiga qaraganda ancha keng va ta'limning tugal maqsadi tarbiya maqsadining biron bir tomonini: yo o'quvchi intellektual qobiliyatini, yo estetik, yo ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Tarbiya jarayonining shaxs mahorati asoslarining shakllanishidagi murakkablik shaxs xususiyatlaridagi kasbiy shakllanishda tarbiya jarayonining zarur bo'lgan yaxlit tizimini egallashi bilan ham bog'liq.

Bu yerda nimani nazarda tutaymiz?

Boshlovchi pedagog ziddiyatli holatlarda o'qituvchining turli-tuman xulq usullarini tanlashida uning topqirligi bilan tarbiya mahoratini bog'lashga o'zida moyillik sezadi. Albatta, bu narsa muhim, lekin mohir tarbiyachi usullarni tanlashi bilan kuchli emas.

A.S.Makarenko tarbiyachi ishlarini ko'rib chiqib aytadiki, tarbiyachi faoliyati, aslida, mohiyati bilan tashkilotchilik faoliyati ham hisoblanadi. Demak, tarbiyachi mahorati, boshqa narsa emas, balki bolalar hayotini tashkil etuvchi mahoratdir. Tarbiyachi mahorati - o'quvchining samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik holatlarni yarata bilishda ko'rinadi. Mahoratda nazariya va amaliyot uzviyligi gavdalanadi.

Hech qachon biron bir muvaffaqiyatli harakat tushunilmagan yoki stixiyali bo'lmaydi. Har qanday samarali usullarning asosiy va yetarli sharti shu maqsadga erishish vazifalarini, yo'l va vositalarini, ya'ni tarbiya jarayonining qonuniyatlarini bilish demakdir.

Tarbiya mahorati - bu faqat yetarli nazariy bilimlarni egallashgina emas, balki tarbiya qonuniyatlari, bolalar jamoalari hayotini tashkil etish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan barcha vosita, usul va metodlarni hayotga, ijodiy tatbiq eta bilish hamdir.

Tarbiya mahorati mazmunining acoci bilim va unga asoslangan ko'nikmalardir. Tarbiyachining muhim ko'nikmalariga turli pedagogik holatlarda bolalar dunyosida sodir bo'layotgan turli jarayonlarni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi, holatni tanlashga nisbatan tadbiq etiladigan «Maqsad - vosita- natija» munosabatlarini tahlil qila olish ko'nikmasi, diqqatni tez yo'naltira olish va biridan ikkinchisiga tez o'gkaza olish ko'nikmasi, bolalar bilan o'ynay olish ko'nikmasi, ko'plab pedagogik holatlardan muhimini ajratib olish ko'nikmasi, turli tomondan holatlarni baholay olish ko'nikmasi, tasodifiy omillardan muhimini ko'ra bilish ko'nikmasi, bir xil holatda turli-tuman ta'sir usullaridan foydalana bilish ko'nikmasi, o'zining kayfiyatini, hissiyotini va fikrini

so'z, mimika, harakatlar orqali yetkaza olish ko'nikmasi.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalar bilan birga quyidagilar ham muhimdir: o'quvchilarning barcha faoliyatlarida ular bilan kontakt o'rnatish; individual yondashish olish ko'nikmasi; o'quvchilarni yomon va yaxshiga ajratmaslik; bolalar tashabbuskorligini rivojlantirish olish; qiyin holatlarda bolalarga yordam bera olish; o'quvchilar jamoasi fikrini kelishtirish ko'nikmasi; o'z-o'zini boshqara olishning turli shakllaridan mohirona foydalana bilish; o'quvchi ishonchini suiste'mol qilmaslik; har bir o'quvchidan ijobiy sifatlar topa bilish va ulardan unumli foydalana bilish ko'nikmasi; o'quvchilarni yomon va yaxshiga ajratmaslik, har bir nohaqlik, yomonlik, badbaxtlikka muvaffaq bo'lish; o'quvchilarda axloqiy yo'nalishni shakllantirish; yaxshilik va yomonlik to'g'risida bolalar tasavvurlarini rivojlantirish ko'nikmasi va boshqalar.

«Kim tarbiya jarayoni texnologiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilsa, munosabatlar tuzilishini rivojlantirsa va shu orqali erishilgan muvaffaqiyatlar bilan chegaralanib qolmay, balki yanada yaxshiroq natijaparga erishishga intilgan bo'lsa, u yanada mahoratli bo'lib boradi». (Amonashvili Sh. A, yedinstvo seli. M. 1987 g. 167-str).

Pedagogikada tarbiyachi mahorati yaxlit tizim sifatida uchta o'zaro bog'langan tizimchalarga bo'linadi: texnologik; ijtimoiy psixologik (munosabat); ahloqiy. Texnologik tizimcha yoki texnologiya pedagog uchun o'zining kuchini rejalashtirish va kerakli natijaga erishishga yordam beradigan shaxs va jamoaga ta'sir etadigan aniq vositalar hisoblanadi.

Kasbiy texnika asoslari nimalardan iborat? Albatga, tarbiyachi tomonidan o'quvchilar amaliy faoliyatini tashkil etish, ularni ma'lum pedagogik vazifalarni bajarishga jalb etishdan iborat. Gap bu o'rinda o'quvchilarning o'zlari hayotlarini tashkil etish, yo'lga qo'yish, demak, o'quvchilar faol amaliy faoliyatlarini tashkil etishning samarali shakllaridan foydalanish haqida gap boradi. Bu shunday asoski, uning zahirida tarbiya yo'lga qo'yiladi.

Ochig'ini aytish kerakki, ko'pchilik sinf rahbarlari o'zlari navbatchilik qiladi, kino, teatr, muzeylarga kollektiv bo'lib olib boradi, ota-onalar majlislari, yig'ilishlar, bayramlar, munozaralar, uchrashuvlarni o'zlari tashkil etadilar. Hatto tarbiyachi nazoratisiz binoni tozalash, o'ynash va boshqa ishlarni ham bajarishga ruxsat etilmaydi. Agar tarbiyachi faol tashkilotchi, lekin o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lgan bo'lsa, u joyda tarbiya muvaffaqiyati haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bu haqda o'z-o'zini boshqarishga asoslangan maktablar tajribasi bizga ko'p narsani aytib turibdi.

Shunday maktablar borki, ko'plab jamoat ishlarini (tarbiyachi navbatchiligi, o'z-o'ziga hurmat, shanbalik) tarbiyachi ishtirokisiz bolalarning o'zlari bajaradilar. Tarbiyachilar esa bu ishlarni boshqarib, yo'naltirib, maslahat berib turadilar. Bu yerda tarbiyachi qanday qilganda, o'quvchilar o'z-o'zlarini mustaqil boshqarishi mumkin? degan savolga ijodiy izlanishlar orqali javob topib bo'ladi.

O'tkaziladigan u yoki bu tadbirlarni o'quvchilar bilan birga muhokama qilib, ularning ilg'or, yangi, foydali tomonlarini quvvatlash, ularni ijodiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltirib turish zarur.

Tarbiyachining donoligi, ziyrakligi va mahorati shundaki, u har bir bola imkoniyatlarini yaxshilab o'rganish va o'sha imkoniyatlarni yanada ochish,

undan foydalana bilish hamda rag'batlantirib turishdan iborat.

Endi kollektiv ijodiy ishlar qanday tashkil etilishini ko'rib chiqamiz. Buni uch bosqichda amalga oshirsa bo'ladi:

- jamoa bo'lib rejalashtirishi;
- tadbirlarni jamoa bo'lib o'tkazish;
- jamoa bo'lib tahlil etish.

Lekin, bu masalani quyidagi 6 bosqichda ko'rib chiqilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lur edi:

1-bosqich: jamoaning dastlabki ishlari. Bunda quyidagi savollarga javob topish zarur. Nima va kim uchun qilamiz? Qachon? Qaerda? Kim bilan? Kim tashkilotchi bo'ladi?

2-bosqich: jamoa bo'lib rejalashtirish. Reja oldin kichik jamoalarda ishlab chiqiladi. Uning bajarilish muhokamasi umumiy yig'ilishga qo'yiladi. Keyin bu rejalar muhokama etilib, keyin tasdiqlanadi. Bu davr ichida, sen nima qilishni xohlarding? Kim uchun? degan savollar yechimi hal etilishi zarur.

3-bosqich: jamoa bo'lib ijodiy ishlarga tayyorgarlik. Buning uchun kengash tuziladi va vazifalarni birga bajarish maslahatlashiladi.

4-bosqich: jamoa bo'lib ijodiy ishlarni o'tkazish. Bunda jamoa rejasi amalga oshiriladi.

5-bosqich: natijalarni jamoa bo'lib yakunlash va quyidagi savollarni hal etish maqsadga muvofiq. Nimaga erishdik va nima uchun? Rejadagi qaysi ishlar bo'lmadi, nima uchun? Kelajakda qanday xulosa chiqarish mumkin? Qanday?

6-bosqich: yakuniy muhokama. Tajribalarni keyinchalik qo'llash, uslubiy o'ziga xosliklar tahlili, pedagogik o'ziga xos yondashuvlarning xarakteri. Uslubiy tavsiyalar ishlanadi va ular qarab chiqiladi.

Tarbiyaviy ishlarda kattalar bilan bolalarni o'zaro bog'lovchi mazmun va shakl hamda usullar bo'yicha jamoa ta'sirining o'zaro munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining mahorati bolalar munosabatlarini yo'naltira olish san'ati bilan xarakterlanadi.

Munosabatlar tizimchasida to'g'ri baholay olishni, fikrlashning shakllanishi asosida har bir jamoa a'zosining qimmatli tomonlari shaxs sifatida ochilib boradi. Shu jamoa ijodiy faoliyatini tashkil etishda dastlabki suhbatlashish ishni tugallash bosqichi uchun zarurdir. Bu o'rinda bolalar qanday o'zgarganligi qanday sifatlarga ega bo'lganligi hisobga olinadi. Baho bu o'rinda samimiy, o'zaro bir-birlarini to'g'ri tushunish asosida bo'lishi kerak.

To'g'ri munosabatlar shakllanishiga yakuniy yig'in, «chaqmoq» chiqarish tarbiyalanuvchi xulqi va muammolarni muhokama etish, har bir vazifalarni bajarishda ayrim shaxs ishini baholash va to'g'ri tahlil etishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Bolalar muhitida munosabatlarni to'g'ri boshqarish uchun ustoz tarbiyachiga jamoa ichidagi va jamoalar o'rtasidagi bog'liqliklarni, ziddiyatlarning kelib chiqish tabiatini bilish muhim hisoblanadi.

Jamoadagi shaxslararo muammolarni tadqiq etuvchilar bir necha qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatadilar.

a) sinf jamoasining har bir a'zosini belgilab qo'yilgan maxsus vazifasi

bilan ayrim o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyat;

b) tashkilot faoliyatining asosiy rejasida belgilangan maqsad bilan, jamoaning har bir a'zosining shaxsiy maqsadlari o'rtasidagi ziddiyat;

d) axloqiy va huquqiy omillar o'rtasidagi ziddiyat;

e) bola tarbiyalanayotgan mikromuhitdagi ahloqiy tajriba bilan ijtimoiy axloq normalarining to'g'ri kelmasligi;

f) tarbiyalanuvchida yetarli iroda sifatlarining, erinchoqlik (saranjom-sarishtalik)ning yetishmasligi, bir tomondan, tarbiyachining talabchanligi, ikkinchi tomondan, to'g'ri kelmasligi.

Bu ziddiyatlar yechimi tarbiyachi shaxsiga, u bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar mahoratning yo'naltirilganiga bog'liq.

Tarbiyachi u yoki bu tadbirni o'tkazish uchun har xil usullardan foydalanadi: ba'zilar buyurib, ba'zilar iltimos qilib, ba'zilar o'zlarining ibрати orqali u yoki bu tadbirni bajarishga erishadi.

Ko'proq uch xil yondashuv bor.

1. Komanda berish holati: Bu tasodifiy hollarda buyruq tarzida amaliyotda komanda berish kamdan-kam holda qo'llaniladi va bu tasodifiy hollarda yuz beradi.

2. Kirishib, qo'shib ketish holati: bolalar bilishdan avval taqlid qilish orqali o'rganishlarini hisobga olgan holda tarbiyachi shaxsiy ibrat ko'rsatadi. Ishga sadoqati, e'tiqodi, hech qanday manfaatsiz jamiyatga foyda keltirishni o'ylab o'z orqasidan boshqalarni ham ergashtiradi. Shuningdek, tarbiyachi hamma qatori maktab faoliyatiga - o'quv, sport, mehnat, sayohat ishlariga ham kirishib ketish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

3. Betaraf bo'lish holati: tarbiyachining hech nimaga aralash-masligi. Uning ma'nosi bolalar faoliyatiga aralashmaslik, chekkada kuzatuvchi sifatida turish.

Texnologik va munosabatlar tizimchalari tarbiyachi mahorati tizimida yaxshi o'zlashtirilishi mumkin. Ajoyib yo'l va usullar ortida yetakchi g'oya bo'lmasa, yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Pedagog va jamoa diqqat markazida - maktab, sinf o'quvchilari nima maqsadda faoliyat ko'rsatayotgani ularga ma'lum bo'lsa, chuqur ijtimoiy motivlar tursagina faoliyat foydali bo'ladi. eng muhimi, bu o'rinda shunday g'oyalarni shakllantirishda ajoyib pedagog I. P. Ivanovning prinsipial qoidalariga e'tibor berish zarur. «Inson unga hayot ta'sir yetayotgani uchungina tarbiyalanayotgani yo'q, balki dunyoga o'zi kuchli ta'sir yetayotgani uchun tarbiyalanyapti. Dunyoni o'zgartira borib, o'zi ham o'zgarish, tarbiyalanib borishi mumkin: («Uchit. gazeta». 1987. 31 mart).

Buyuk maqsadlar pedagoglarning samarali, ijobiy ta'sirining muhim shartlari bo'lib, tarbiya jarayonini asoslovchi prinsiplari tizimiga tayanishni talab etadi.

a) hayot bilan tarbiya birligi;

b) bolalar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalash;

d) axloqiy norma va xulqiy odat borligi;

e) insonparvarlik va insoniylik;

f) axloqiy va estetik birlik;

g) talab va ishonch birligi;

h) bola kelajagini ishonch bilan loyihalashtirish;

i) o'quvchi shaxsiga ehtiyotlik bilan munosabat; i) jinsiy farqni hisobga olish;

j) bolalarning - jismoniy va axloqiy sog'ligi to'g'risida g'amxo'rlik:

k) me'yor prinsiplari.

Axloqiy tasavvurlar tarbiya texnologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi uchun tajribali pedagoglar turli mavzularda axloqiy suhbatlar tizimini amalga oshiradi. Jumladan, ota-ona, kattalarning Vatan oldidagi burch va mas'uliyati, xohish va burch uyg'unligi, xohish va haqiqiy ehtiyoj: vijdon tushunchasining axloqiy ma'nosi, vijdon pokligi va boshqalar.

Har bir aniq holatda pedagog mahorati ijodkorlikdir.

Pedagog hamma vaqt u yoki bu holatda, tarbiyalanuvchiga to'g'ri ta'sir ko'rsatishning ijodiy yechimini topa oladi. Masalan, 6-sinf o'quvchisi uchinchi qavatda bitta oynani ochib, undan tashqariga chiqib, ikkinchi oynaga o'tishi va bunga o'quvchilarning munosabati.

O'qituvchi: Ahmad haqiqatan qo'rqmay harakat qilgan, lekin hech qanday maqsadsiz, befoyda harakat. Agar qilayotgan harakatimiz, qo'rqmaslik, botirligimiz ko'pchilikka, xalqqa, Vatanga biron foyda keltirsa, o'z hayotini qurbon qilish yevaziga ko'pchilik hayotini vatan boyligini saqlab qolsa, bu haqiqiy qahramonlik. Aks holda bu harakatlar befoyda.

Buning o'rniga tarbiyachi: «Agar Ahmadga biron narsa bo'lganda, meni sud qilishardi, ota-onaga jabr bo'lardi. Maktab, sinf, jamoa isnodga qolardi» deganda foydali bo'lmasdi. Buni bolalar to'g'ri tushunmas yedi ham.

Ma'lumki, rejalashtirish ijodiy xarakter kasb yetganligi sababli hamma uchun bir xilda shaklni taklif etib bo'lmaydi. Lekin, yosh, yangi ish boshlayotgan tarbiyachilar uzoq yillar ishlab, tajriba orttirgan tarbiyachilar ish rejalari asosida g'oya, yo'nalishni belgilab olishlari mumkin. Tajribalarni maqsad asosida berish individual ijodkorlikdir. Quyida 4-sinf o'quvchilari uchun tuzilgan rejaning «Vatanparvarlik va xalqlar o'rtasidagi birodarlikni tarbiyalash» bo'limidan bir qismini keltiramiz. Bu rejada bajarish muddati va bajaruvchi shaxs ko'rsatilmagan.

Sinfdagi tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning taxminiy ko'rinishi.

Ish mazmuni

Ish shakli

Mavzular

Vatanga, ona yurtga, uning o'tmishi va hoziriga muhabbatni shakllantirish.

Sinf yig'ilishi, uchrashuvlar, suhbatlar. Vatanimiz boyligi beqiyos. Vatanimiz bayrog'i, gerbi, gimni.

Xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik. Qo'shni respublikalar va ularning xalqlari turmush tarzi va madaniyati. Toshkent - ko'p millatli shahar turli millat kishilari bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari

Qo'shning tinch -sen tinch. Qondoshimiz-qardoshim. Butun dunyo bo'ylab mening do'stlarim bor.

Mustaqilligimizning 15 yili mobaynida viloyatlardagi, erishilgan muvaffaqiyatlar: sayohat, albom, turli plakatlarni tayyorlash, ona yurt tabiati va uning go'zalligi. Xorijiy mamlakatlarga sirtqi sayohat.

Bu o'rinda rejada keltirilgan ish mazmuni, uni amalga oshirish shakllari,

o'tkazilajak tadbirlar mavzulari ham aniq va tushunarli ekaniga e'tiborni qaratmoq kerak.

Ma'lum ish tajribalari asosida suhbatlashish.

6) «Qiyin» bolalar bilan ishlash. Buning uchun quyidagi prinsiplarga amal qilgan holda individual reja ishlab chiqish zarur.

1. Ular xatti-harakatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash maqsadida bolalar subyektiv dunyosini hayotiy ko'rinishlari jihatlarini diqqat bilan o'rganish.

2. Qarashlar va xulqdagi chetga chiqishlar sabablarini aniqlash.

3. Turmush tarzini ijobiy tomonlarga o'zgartirishda yordam beradigan hayotiy ko'rinishlardan tanlab olish.

4. Yaqinlashish maqsadida kontakt (aloqa) o'rnatish uchun o'smirning hayotiy tajribasi darajasida uning «psixologik territoriyasidan» manba izlash kerak.

5. Bola xulqi va uning xatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi salbiy ta'sir natijalarining doimiy nazoratini amalga oshirish.

Buning uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

a) hayron qoldirish usuli;

b) hazil - mutoyiba usuli;

d) bola qobiliyatiga tayanish usuli;

e) o'zaro bir-birini to'g'ri tushunish usuli;

f) o'z munosabatini bildirish usuli;

g) pedagog o'z aybini tan olishi usuli; g) tarbiya natijalarini hisobga olish.

Ma'lumki, tarbiya natijalari o'zida pedagogik oqibatlarni aks ettirgan va o'quvchilar xulqidagi tarbiyachi uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarda, ularning o'qish va mehnatga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topgan.

Tarbiya faoliyati natijalarining samaradorligi ancha murakkab masalalardan hisoblanadi.

Tarbiya natijalari hech qachon o'tkazilgan turli tadbirlarning miqdori va unga jalb etilgan o'quvchilar soni bilan o'lchanmaydi. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi tarbiyaviy ishlarni baholashda eng muhimdir.

U holda, o'quvchining tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkich uning harakati, faoliyati, munosabati deb aytish mumkinmi?

O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi qanday ko'rsatkichlardan iborat? Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni asos qilib olish mumkin.

1. O'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy tayyorgarligi, mamlakatimiz siyosatiga, uning yutuqlariga, uning xalqaro miqyosidagi o'rniga qiziqishi, jamiyat huquqiy normalarni bilishi va amal qilishi.

2. Maktab yoshlar ittifoqi faoliyati va ularning jamiyat ishlaridagi faol ishtiroki.

3. O'quvchilarning o'qishga munosabati, o'quv mashg'ulotlariga qiziqish darajasi, fanga kirishilganligi va h. k.

4. Mehnat faoliyatiga munosabati, mehnat topshiriqlarini bajarish sifati, ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtiroki, jamiyat mulkiga munosabat.

5. O'quvchilarning bir-biriga munosabati, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik, o'zaro yordam hissining shakllanganligi, sinfdagi o'rtoqlariga,

maktab o'quvchilariga, kichiklarga munosabati.

6. O'quvchilarning maktabdan, nazoratdan tashqaridagi yurish-turishi, xushmuomalaligi, madaniy xulqi, munosabat va muomalasi.

7. Umumiy estetik madaniyati, badlly, ijodiy rivojlanganligi.

8. Umumiy pedagogik tayyorgarlik, sifat tizimi bilan tugallanishi.

Demak, buning uchun tarbiyachi pedagogik ta'sirni amalga oshirishda natijalarni oldindan loyihalashtirishga alohida e'tibor berishi kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tarbiyachi mahorati deganda nima tushuniladi?
2. Texnologik tizimchalarni qanday tushunish mumkin?
3. Munosabatlar tizimchalari va ularning mexanizmi qanday?
4. Mehnatni ilmiy tashkil etishning qanday shartlari mavjud?
5. «Qiyin» bolalar bilan ishlashning pedagogik asoslarini tushuntirib bering?

ADABIYOTLAR.

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: O'zbekiston, 1998.
3. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. T.: O'zbekiston, 1993.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,- Xalq ta'limi, 1998, 1-son.
6. Davlat ta'lim standartlari to'grisida Nizom. – Ta'lim taraqqiyoti, 1998, 1-son.
7. Основы педагогического мастерства. / Под редакцией А.И. Зязина Москва, Просвещение, 1989 .
8. В.И. Загвязинский. Педагогическое мастерство учителя. Москва, Педагогика, 1987.
9. Pedagogik izlanishlar. T.: O'qituvchi, 1990.
10. В.П. Беспалко. Слагаемые педагогической технологии. Москва, Педагогика, 1989.
11. Ю.М. Львова. Творческая лаборатория учителя. Москва, 1985.
12. Е.Ш. Натанзон. Приёмы педагогического воздействия. Москва, 1986.
13. Педагогическая деятельность как творческий процесс. Москва, 1977.
14. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.:1999.
15. Azizho'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003.
16. Sayidaxmedov N. Pedagogik mahorat va texnologiya. T.: 2003.
17. Ta'lim va texnologiya. Toshkent, 2004.
18. Dars va texnologiya. Qo'qon, 2004.
19. O'qituvchilik faol usullari. Qo'qon, 2004.
20. Erkaboeva N. va boshqalar. Amaliy pedagogika. "Fan va texnologiyalar". T.: 2005.
21. Xaydarov M. va boshqalar. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. T. TDPU. 2003

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Pedagogik mahorat va uning taʼlim –tarbiya tizimida tutgan oʻrni.....	3
Pedagogik faoliyat va pedagogik mahorat.....	6
Oʻqituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish va pedagogik mahorat.....	15
Oʻqituvchi – aktyor mahoratidagi uygʻunlik va uning pedagogik amaliyotdagi ifodasi	18
Pedagogik taʼsir koʻrsatishdagi mahorat.....	22
Pedagogik texnika va takt.....	32
Notiqlik sanʼati va pedagogik mahorat.....	38
Pedagogik mahorat va muomala madaniyati	42
Oʻqituvchining darsni tashkil etishdagi mahorati.....	47
Tarbiyachi mahorati.....	66
Adabiyotlar.	72

Pedagogik mahorat asoslari

Toshkent – “Fan va texnologiya” – 2006

Muharrir: M.Tojiboyeva

Musahhih: S. Badalboyeva

Bosishga ruxsat etildi 20.04.06. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. Nashr tabog'i 7,0.

Adadi 100. Buyurtma № ____.

“Fan va texnologiya” nashriyoti, 700003, Toshkent, Olmazor, 171.

